

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

4-jild

2-son

Iyun, 2026



TAHRIRIYAT HAY'ATI**Bosh muharrir**

Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari

Yuldashev Farrux Haqberdiyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief

Yuldashev Farrukh Hakberdievich
doctor of philological sciences, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Norbekov Azamat Ostanaqulovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Aynur Öz Özcan - filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Nadir Mammadli - filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)

Ra'no Sayfullayeva - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Azamat Pardayev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Mehri Abuzalova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Qo'ysin To'xtayeva - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Manzura Ernazarova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Ra'no Davlatova – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Alijon Allaberdiyev – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Dilnoza Sobirova – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Botir Zaripov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Fazliddin Najmiddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Xolibi Qurbonova - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Feruza Jumayeva - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Ra'no Sharopova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Gulnoza Ernazarova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Nasiba Yarashova - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Navro'z Rahmonov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Omongul Xolibekova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Munira Mengliyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Erkin Musayev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Bobir Maxammadov – filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Kurbanov Muzaffar	5
Tilshunoslikda diskursiv belgilar nazariyasi	
Mengliyeva Munira	12
Ingliz tilida aspektual ma’no ifodalovchi vositalarning leksikografik talqini	
Zaripov Rafiqjon	17
Neyrolingvistikaning shakllanish bosqichlari va til funksiyalarining miyadagi lokalizatsiyasi haqidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi	
Mengliyeva Munira	24
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari	
Maxammadov Bobir	29
Microsoft Windows operatsion tizimi terminologiyasining lingvomadaniy talqini	
Bobojonova Dilnoza	38
Mansab-lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollari asoslari	
Qurbonova Xolbibi	43
Raqamli ta’lim muhitida lug‘at bilan ishlashning zamonaviy usullari	
Turg‘unova Gulnoza	51
Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonlari uzviyligini ta’minlovchi pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	
Xaqqulova Dilshoda	58
Tasavvufiy asarlar tahlilida abdurahmon go‘zal mahorati	
Жумаева Феруза	63
Моделирование и структура словарной статьи при фиксации межчастеречного перехода слов	
Mattiyev Abdulaziz	69
Metaforik tizimlarni o‘rganishda korpus tilshunosligining o‘rni va uning analitik imkoniyatlari	
Sobirova Dilnoza	75
Lingvistik ekspertiza va uning reklamalar uchun ahamiyati	

Наралиева Шахло	82
Глобаллашув ва лингвоэкологик парадигма шароитида ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-функционал табақаланиши ҳамда динамик ривожланиш омиллари	
Sharopova Ra'no	94
O'zbek tili raqamli diskursining sotsiolingvistik xususiyatlari	
Sanoyeva Muhtabar	102
“Orzuga ayb yo‘q” qissasining pragmatolingvistik tadqiqi	
Хакимова Нигина	106
Тенденции в определении грамматического рода заимствованных существительных в современном русском языке	
Исканджанова Ферузахон, Комилова Малохат	113
Смешанное обучение в преподавании лингвистических дисциплин: возможности формирования коммуникативной компетенции	
Батыралиева Шахноза, Иброхимова Наргиза	119
Трансформация речевого этикета в онлайн-общении	
Bobokalonov Po'lotshoh	122
Yolg'on va aldovning neyropsixolingvistik segmentlari	
Rizayeva Umeda	129
Halima Xudoyberdiyeva ijodida qo'llangan pretsedent birliklar	
Батыралиева Шахноза, Абсаматова Хонзодабегим	134
Интернет-сленг как часть современного русского языка	
Yusubova Umida	138
Fonatsion noverbal vositalar pragmatikasi	
O'rolova Zuhra	143
Zulfiya she'riyatida kognitiv metaforalarning lingvopoetik tahlili	

TILSHUNOSLIKDA DISKURSIV BELGILAR NAZARIYASI

Kurbanov Muzaffar,

*Andijon davlat chet tillari instituti professori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Mazkur maqola diskursiv belgilar va ularning lingvistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda diskursiv belgilar tavsifi, belgilarning ijtimoiy munosabatlari va kommunikativ amaliyotdagi o'rni, modal vositalarning kommunikativ akti hamda zamonaviy diskurs tadqiqotlarida sintagmatik va paradigmatic munosabatlar haqidagi ta'limotlar ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, maqolada belgilar tizimi yordamida kommunikativ vaziyat, nutqiy amaliyot va ma'noning muloqot jarayonida yuzaga kelishiga oid masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: semiotika, diskurs, kognitiv tilshunoslik, kommunikatsiya, kommunikativ vaziyat, verbal va noverbal vositalar.

Abstract: This article is devoted to discursive markers and their linguistic analysis. It examines the description of discursive markers, the social relations of markers and their role in communicative practice, the communicative act of modal means, as well as the theories of syntagmatic and paradigmatic relations in contemporary discourse studies.

The article also analyzes issues related to the emergence of the communicative situation, speech practice, and meaning in the process of communication through a system of signs.

Keywords: semiotics, discourse, cognitive linguistics, communication, communicative situation, verbal and non-verbal means.

Аннотация: Данная статья посвящена дискурсивным маркерам и их лингвистическому анализу. В ней рассматриваются описание дискурсивных маркеров, социальные отношения знаков и их роль в коммуникативной практике, коммуникативный акт модальных средств, а также учения о синтагматических и парадигматических отношениях в современных дискурсивных исследованиях.

Кроме того, в статье подвергаются анализу вопросы, связанные с возникновением коммуникативной ситуации, речевой практики и значения в процессе общения посредством системы знаков.

Ключевые слова: семиотика, дискурс, когнитивная лингвистика, коммуникация, коммуникативная ситуация, вербальные и невербальные средства.

KIRISH

Diskursiv belgi tushunchasi semiotika, diskurs nazariyasi, kognitiv hamda kabi bir necha ilmiy yo'nalishning chorrahasida shakllangan bo'lib, aynan shu chorraha tabiati uning yagona, umum tomonidan qabul qilingan ta'rifga ega bo'la olmasligini izohlaydi.

Klassik semiotika belgini til tizimining barqaror birligi sifatida tavsiflagan o'rinda diskurs nazariyasi uni harakat ichida – jonli muloqot doirasida tahlil obyektiga aylantiradi, ya'ni nutq jarayonida belgilar tizimi tayyor ma'noni o'zida aks ettiruvchi qobiq emas, balki har bir kommunikativ vaziyatda uni qaytadan ishlab chiquvchi mexanizm. Mana shu ikki yondashuv o'rtasidagi tafovut bugungi lingvistik semiotika yechishi lozim bo'lgan asosiy konseptual muammolar tugunini hosil qiladi¹.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

“Diskurs” atamasi tilshunoslik muomalasiga nisbatan kech kirib kelgan va uzoq vaqt davomida turlicha ma'nolarda qo'llanilgan: u orqali goh nutq, goh kommunikativ vaziyatdagi matn, goh ijtimoiy-madaniy jihatdan shartlangan gapirish turi ifodalangan². Tadqiqotchilar diqqati alohida olingan jumalardan yaxlit, kommunikativ muhitga jo bo'lgan xabar mazmuniga ko'chgani sari belgini tushunish tarzi ham o'zgarib bordi. Formal-strukturalist tilshunoslik tahlilni tizim ichidagi birliklar doirasi bilan cheklagan bir paytda, diskursiv yondashuv so'zlovchini, manzilni, ularning maqsadlarini hamda umumiy bilim zaxirasini hisobga olishni zaruriy shartga aylantirdi. Aynan shu masala zahirida tadqiqotimiz obyekti o'zagini tashkil etuvchi savol tug'iladi: diskursda amal qilayotgan belgini faqat tizimli semiotika vositalari bilan tavsiflash mumkinmi yoki uning uchun alohida nazariy apparat zarurmi? “Diskursiv belgi” atamasi ham alohida izohni talab etadi. Tor ma'noda ushbu atama nutqning bog'liqligi va tadrijiyligini ta'minlovchi maxsus lisoniy vositalar (yuklamalar, bog'lovchilar, kirish so'zlar va h.k) majmuini anglatadi. Kengroq prizmada esa diskurs tarkibida faollashuvchi va kommunikativ jarayonda ma'no kasb etadigan har qanday sath hamda modallikka mansub semiotik birliklarni nazarda tutadi³. Leksema deymizmi, intonatsion vositalar, imo-ishoralar yoki vizual tasvirlar deymizmi, aynan ushbu tizim birliklari sirasidir.

Diskursiv belgilar tavsifi bir vaqtning o'zida bir necha fanlar chorrahasida ro'y beradi: belgilar tizimi hamda ularning ma'no hosil qilish mexanizmlarini tadqiq etuvchi semiotika, belgi ortida yotuvchi mental jarayon va konseptual tuzilmalarni izohlovchi kognitiv fanlar, shuningdek, belgining ijtimoiy munosabatlari hamda kommunikativ amaliyotdagi o'rnini tahlil qiluvchi sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi⁴. Biroq mazkur fanlarning har biri diskursiv belgi fenomenining faqat muayyan tomonlarini qamrab oladi xolos.

Asosiy nazariy masala belgining ontologik maqomini aniqlash bilan bog'liqdir. Uni muloqotdan oldin mavjud bo'lgan kod birligi sifatida tushunish kerakmi yoki muloqot ichida yuzaga keluvchi hodisa sifatida idrok etish lozimmi? Ushbu savolga beriladigan javob belgining mohiyati, funksiyasi va tahlil tamoyillarini belgilab

¹ Morris C. Writings on the General Theory of Signs. – The Hague: Mouton, 1971. – 486 p.

² Eco U.A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.

³ Morris C. Writings on the General Theory of Signs. – The Hague: Mouton, 1971. – 486 p.

⁴ Eco U. A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.

beruvchi nazariy asos vazifasini o'tashi turgan gap, chunki aynan shu nuqtada ikki klassik semiotik paradigma – F.de Sossyur va Ch.Pirs konsepsiyalari o'rtasidagi farq yaqqol namoyon bo'ladi. Sossyur yondashuvida belgi til tizimidagi o'zaro farqlanishlar asosida shakllanuvchi nisbatan barqaror struktur birlik, Pirs nazariyasida esa uzluksiz semiosis jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi: belgi ma'nosi talqinlar zanjiri orqali doimiy ravishda yangilanib boruvchi jarayondir⁵.

Diskursiv yondashuvlar doirasida ushbu nazariy qarama-qarshilik yanada murakkab tus oladi, chunki diskursiv birliklar bir tomondan til tizimining umumiy qonuniyatlari va struktur munosabatlariga tayanadigan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan kommunikativ vaziyat, kontekst va pragmatik omillar ta'sirida o'zgaruvchan xususiyat kasb etadi. Fikrimizcha, aynan shuning uchun ham masalani izohlashda ularning ham tizimli barqarorligi, ham kontekstga bog'liq dinamik tabiati birgalikda e'tiborga olinishi zarur.

Yana bir nazariy muammo lisoniy va nolisoniy semiotik vositalar o'rtasidagi chegarani belgilash bilan bog'liqdir. Kommunikativ jarayonda ma'no faqat verbal birliklar orqali emas, balki turli semiotik resurslarning o'zaro hamkorligi asosida shakllanadi. Bu esa zamonaviy diskursiv belgilar nazariyasi o'z tadqiqot doirasiga intonatsiya, imo-ishora, mimika, tana harakatlari, makondagi kommunikativ xulq-atvor kabi noverbal vositalarni ham kiritishga majbur bo'lmoqda.

Bundan tashqari, turli modal vositalarning yagona kommunikativ akt tarkibida uyg'unlashishi va ma'no hosil qilish jarayonida funksional vazifalarni bajarish tarzi masalasi ham kun tartibidagi dolzarb muammolardan biridir. Shu ma'noda belgi tavsifi integrativ xususiyat kasb etib, ma'noning lisoniy va nolisoniy manbalarini yagona kommunikativ tizim doirasida tahlil qilish lozimligidan dalolat beradi.

Shuningdek, zamonaviy diskursiv yondashuvlarda belgi mutlaq betaraf hodisa sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy omillar ta'sirida shakllanuvchi kommunikativ birlik sifatida talqin qilinadi⁶. Chunki muayyan ma'no yoki talqinning boshqasiga nisbatan ustun mavqega ega bo'lishi ko'pincha ijtimoiy maqomlar hamda mafkuraviy qarashlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, "to'g'ri" yoki "maqbul" ifodani belgilash huquqi jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanmagan bo'lib, ayrim ijtimoiy guruhlar boshqalarga nisbatan ko'proq diskursiv ta'sir imkoniyatiga ega bo'lishi rad etib bo'lmas haqiqatdir. Demak, uning mazmuni va funksional xoslanishi kommunikativ vaziyat, madaniy qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur masalalar turli ilmiy an'analarda bir xil talqin qilinmaydi.

⁵ Chandler D. Semiotics: The Basics. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2017. – 336 p.

⁶ Shu manba, 336-bet.

TADQIQOT NATIJALARI

Zamonaviy belgi tushunchasining fundamental asoslari ikki klassik modelning qarama-qarshiligida namoyon bo'ladi: F.de Sossyur uchun belgi ikki tomonlama munosabat – ifodalovchi (signifiant) bilan ifodalanuvchi (signified) o'rtasidagi bog'lanish bo'lib, bu bog'lanishni tabiiy o'xshashlik emas. Ular til tizimini ta'minlab, ixtiyoriy xarakterga ega⁷.

Birlikning ma'nosi mazkur tizimda u egallagan farqlanishlar tarmog'idagi o'rni orqali aniqlanadi: belgi – bu boshqa belgilari mavjud bo'lmagan tushuncha, demak ma'no tushunchaga to'g'ridan-to'g'ri mos kelishdan emas, qiyosiy oppozitsiyadan tug'iladi.

F.de Sossyur tomonidan til va nutq hodisalarining o'zaro farqlanishi tilni ijtimoiy jihatdan shakllangan va nisbatan barqaror tizim sifatida, nutqni esa mazkur tizimning individual va konkret kommunikativ voqelanishi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Olim ilgari surgan sintagmatik va paradigmatic munosabatlar haqidagi ta'limot ham zamonaviy diskurs tadqiqotlarida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Sintagmatik munosabatlar til birliklarining nutq jarayonida chiziqli ketma-ketlik asosida o'zaro bog'lanishini ifodalasa, paradigmatic munosabatlar muayyan pozitsiyada qo'llanishi mumkin bo'lgan alternativ birliklar o'rtasidagi tanlovni aks ettiradi⁸. Har qanday bayonot aynan ushbu ikki mexanizm – birliklarning sintagmatik birikishi va paradigmatic tanlanishi asosida shakllanadi.

Shunga qaramay, struktur tilshunoslik tilni avtonom belgilar tizimi sifatida talqin qilganligi bois, kommunikativ vaziyat, nutqiy amaliyot va ma'noning muloqot jarayonida yuzaga kelishiga oid masalalar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, tadqiqot markazidan chetda qolgan. Holbuki, diskursiv belgilar aynan konkret kommunikativ vaziyatlarda, muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'siri jarayonida namoyon bo'ladi va alohida ma'no kasb etadi. Shu bois strukturalistik model belgini, avvalo, tizim ichidagi funksional birlik sifatida tavsiflasa-da, uning kommunikativ faoliyatdagi dinamik tabiati va pragmatik xususiyatlarini to'liq yoritib bera olmaydi. Mazkur cheklanganlik keyingi lingvistik yo'nalishlarda, xususan, pragmatika, diskurs tahlili va kommunikativ tilshunoslikda belgining funksional hamda kontekstual jihatlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tizimdan diskursga o'tishni birinchi bo'lib aniq ko'rsatib bergan tilshunos E.Benvenist bo'lgan. U struktur tilshunoslikning asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda, tahlil markaziga kommunikativ faoliyatni amalga oshiruvchi subyekt omilini olib kirdi; diskurs tilning mavhum tizim sifatidagi holati emas, balki so'zlovchi tomonidan muayyan kommunikativ maqsadlarda o'zlashtirilgan va voqelantirilgan shakli ekanini dalillashga harakat qilgan.

⁷Saussure F. de. Course in General Linguistics / transl. by W. Baskin. – New York: McGraw-Hill, 1966. – P.33.

⁸ Saussure F. de. Course in General Linguistics / ed. by C. Bally, A. Sechehaye; trans. by W. Baskin. – New York: Columbia University Press, 2011. – 240 p.

Diskursiv belgi nazariyasi nuqtai nazaridan ushbu qarashlar fundamental ahamiyat kasb etib, lisoniy birlikning ma'nosi uni hosil qilayotgan subyekt, u yo'naltirilayotgan adresat hamda kommunikativ vaziyatdan mustaqil holda talqin qilinmaydi. Boshqacha aytganda, diskursiv belgining semantik va pragmatik mazmuni so'zlovchi, tinglovchi va muloqot sharoiti o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimida shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har qanday diskursiv belgi – xabar mazmunini muayyan nutq subyektidan kelib chiqib, ma'lum adresatga yo'naltiradi. Shaxs kategoriyalari ham tayyor holdagi lisoniy birliklar sifatida emas, balki aynan nutq akti jarayonida aktual mazmun kasb etuvchi diskursiv belgilar⁹ sifatida namoyon bo'ladi. Bunda belgi strukturalistik tilshunoslik chiqarib tashlagan kommunikativ vaziyatga qaytarildi va muloqot ishtirokchilariga munosabat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Chandler D. Semiotics: The Basics. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2017. – 336 p.
2. Eco U.A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.
3. Morris C. Writings on the General Theory of Signs. – The Hague: Mouton, 1971. – 486 p.
4. Saussure F. de. Course in General Linguistics / transl. by W. Baskin. – New York: McGraw-Hill, 1966. – P.33.
5. Saussure F. de. Course in General Linguistics / ed. by C. Bally, A. Sechehaye; trans. by W. Baskin. – New York: Columbia University Press, 2011. – 240 p.
6. Бенвенист, Э. Общая лингвистика. –М.: Прогресс, 1974.

⁹ Бенвенист, Э. Общая лингвистика. –М.: Прогресс, 1974.



INGLIZ TILIDA ASPEKTUAL MA'NO IFODALOVCHI VOSITALARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI



Mengliyeva Munira,
*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti
Filologiya fanlari doktori*

ANNOTATSIYA

Onlayn platformalarda jadal sur'atda taraqqiy etayotgan ingliz leksikografiyasida manbalarni universal lug'at shakliga keltirish tendensiyasi kuzatiladi. Izohli lug'at tarkibida tezaurus, etimologik va tarjima lug'atlarni birlashtirish vositasida mukammal o'quv manbalari shakllanmoqda. Bunday manbalarda so'z talqiniga muayyan standart tamoyillar asosida yondashish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda leksemalarning ma'no ko'lami to'liq qamrab olinishi, grammatik va stilistik ko'rsatkichlari voqelanishi shart. Izohlar asosan mantiqiy tavsif, sinonimik yoki ishoraviy shaklda amalga oshiriladi. So'z izohida ayni grammatik turkumga oid leksemalar bo'lishiga ustuvorlik beriladi. Izoh shakli har bir morfologik turkum, leksik-semantik guruh ma'no xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi kerak. Maqolada fe'l izohini harakat, holat, shuningdek, "jarayon" semalari izohi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, fe'l, aspektuallik, tavsifiy izoh

АННОТАЦИЯ

В английской лексикографии, стремительно развивающейся на онлайн-платформах, наблюдается тенденция приведения источников в форму универсального словаря. Толковый словарь формируется путем объединения тезауруса, этимологического и переводного словарей в превосходные образовательные ресурсы. В таких источниках очень важно подходить к толкованию слов исходя из определенных стандартных принципов. В этом случае необходимо полностью раскрыть значение лексем, осознать их грамматические и стилистические показатели. Аннотации преимущественно оформляются в форме логического описания, синонимии или аллюзии. Приоритет отдается наличию в объяснении слова лексем, принадлежащих к одной грамматической категории. Форму объяснения следует выбирать исходя из смысловой характеристики каждой морфологической категории, лексико-семантической группы. В статье анализируется трактовка сем глагола такие как действие, состояние, а также «процесс».

Ключевые слова: толковый словарь, глагол, видовое значение, описательное определение

ANNOTATION

In English lexicography, which is rapidly developing on online platforms, there is a tendency to bring sources into the form of a universal dictionary. A definition dictionary is formed by combining thesaurus, etymological and translation dictionaries into excellent educational resources. In such sources, it is very important to approach the interpretation of words based on certain standard principles. In this case, it is necessary to fully cover the meaning of lexemes, and to realize their grammatical and stylistic indicators. Definitions are mainly made in the form of logical description, synonymy or allusion. Priority is given to having lexemes belonging to the same grammatical category in the word definition. The form of definition should be chosen based on the meaning characteristics of each morphological category, lexical-semantic group. The article analyzes the interpretation of the verb semes such as action, state, as well as the meaning of "process".

Definition dictionary: definition dictionary, verb, aspectual meaning, descriptive definition.

Kirish. Leksemalar aspektuallik funksional-semantik maydonining periferiyasida joylashgan. Maydon cheti keng qamrovli – leksik sath barcha aspektual ma’nolarni qamraydi. Maydon periferiyasini ham shartli ravishda ikkiga ajratish kerak. Uning yadroga yaqin qismida oraliq ma’nolarni anglatuvchi fe’l va ravishlar o’rin oladi. Ushbu so’zlarning lug’aviy ma’nosini jarayon semasi – “boshlanish”, “davomiylik” yoki “tugallanganlik” to’liq qamraydi. Ikkinchi guruh leksik birliklar maydonning uzoq periferiyasidan o’rin olib, jarayonning xususiy ma’nolarini qisman yoki to’liq ifodalashga xizmat qiladi. Muayyan vositalarning ingliz izohli leksikografiyasidagi talqinini ko’zdan kechirishdan oldin ushbu tildagi lug’atlarga umumiy tavsif berish joiz.

Metodlar. Izohli lug’at so’zlarning semantik va funksional jihatlarini yoritib va misollar bilan dalillash orqali tilga xos ontologik xarakterni ochib berishni maqsad qiladi. Ingliz izohli leksikografiyasida ham pirovard maqsad aynan shunday. Turli izohli lug’atlar ushbu maqsadni amalga oshirishdagi yondashuviga ko’ra farqlanadi. Asosiy tafovut bevosita izoh tipida aks etadi. Ma’lumki, lug’atchilikda izohning to’rt asosiy shakli ajratiladi:

- 1) mantiqiy tavsif;
- 2) sinonimik izoh;
- 3) ishoraviy izoh;
- 4) sanab o’tish.¹⁰

Bu yondashuvlardan aynan biri mutlaqo to’g’ri va universal deb bo’lmaydi. Har bir izoh shakli muayyan ma’no guruhi yoki so’z turkumiga mos keladi. Ayrim hollarda so’z ma’nosini to’liq qamrash uchun turli izoh yondashuvlari kombinatsiyasidan foydalanish zarur.

Natijalar. Harakat va holat zot, jarayon uning tajallisi, ya’ni bir belgisi. Shu tajallining xoslanishi fe’lni variantdoshlaridan farqlovchi belgiga aylanadi. Buni aksioma sifatida qabul qilib, o’zaro ma’nodosh fe’llar izohiga tafovut nuqtayi nazaridan yondashish, jarayon farqini graduonimik qator yordamida aniqlash maqsadga muvofiq. Shu farqni ilova qilish, izohni shunchaki sinonimik talqindan tavsifiy yondashuv maqomiga ko’tarishi mumkin. Demak, o’zaro ma’nodosh, lug’aviy ma’nolari bir-biriga yaqin bo’lgan fe’llar izohida ularni farqlovchi elementlar ikki turga bo’linadi: a) misollarda aks etgan rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy qo’llanish doirasi; b) harakat va holat tarkibidagi “jarayon” semasi xoslanishi. Ingliz leksikografik maktabi ikki doimiy ziddiyat qurshovida mavjud. Birinchi yo’nalishda lug’at me’yoriy manba o’laroq leksikani tartiblash, so’z boyligini faol va nafaol qismga ajratish – faol leksikaning qo’llanish me’yorini belgilab berish bilan shug’ullanishi kerak. Masalan, yuqoridagi lug’at maqolalar qiyosidan Oksford izohli lug’ati aynan shunday yondashuvga asoslanishini ko’ramiz. Ya’ni ushbu lug’at muayyan so’zning eng faol qo’llanadigan ma’nosini qamrab, aksidensiyasi past bo’lgan semalarini e’tibordan

¹⁰Arnol’d I. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka – M.: Literatura na inostrannykh yazykax, 1959

chetda qoldiradi. Lugʻatchilikda bunday yondashuv preskriptiv deb atalib, oʻquvchiga soʻz aynan qaysi kontekstda, qay shaklda qoʻllanishini oʻrgatish maqsad qilinadi.

Munozara. Keng ommalashgan ingliz izohli lugʻatlari native speakers – yaʼni til tashuvchilari uchun emas, uni xorijiy til sifatida oʻrganuvchilar uchun moʻljallangan. Webster va Cambridge definition dictionary kabi manbalar oʻquv leksikografiya tamoyillari asosida shakllantirilgan. SHu sababdan lugʻat maqolalar serqirra, leksemaning turli semantik, funksional, nutqiy-kontekstual, pragmatik jihatlarini qamrab oladi. Quyida bevosita “boshlanish”, “davomiylik” va “tugallanganlik” aspektual maʼnolarini oʻzida mujassam etgan feʼllar izohiga eʼtibor qaratamiz:

INCEPT 1 of 2 verb in·cept ən'sept -ed/-ing/-s transitive verb 1 archaic: BEGIN, COMMENCE, UNDERTAKE 2 [influenced in meaning by Latin capere to take] : to take in: such as a: INGEST phagocytes incepting foreign particles **b:** to receive as a member **intransitive verb:** to obtain an advanced degree and therewith the right to teach or practice a learned profession —now used only at Cambridge University. **Etymology:** Latin inceptus, past participle of incipere.¹¹

Merriam Webster lugʻatidan olingan ushbu izoh anʼanaviy ravishda soʻz talaffuz variantlari va grammatik koʻrsatkichlari bilan boshlanadi. Soʻzning “boshlanmoq” maʼnosi eskirgan sema ekanligi koʻrsatilib maʼno uch sinonim vositasida ochib berilgan – ushbu maʼnoni dalillovchi misollar mavjud emas. Ikkinchi maʼno lotin tilidan oʻzlashgan “qabul qilmoq”, “hazm qilmoq” semalariga ishora qiladi. Biroq bu semalar qanday nutqiy doirada voqelanishi – yaʼni rasmiy, ilmiy yoki norasmiy nutqqa xosligi haqida hech qanday illyustrativ dalil berilmagan. Soʻzning uchinchi maʼnosi jarayon va vaziyat tasviri bilan tavsifiy yondashuvda shakllantirilgan. Bu maʼno ham misollar bilan dalillanmagan, misollar oʻrnini ushbu soʻz semasi faqat ilmiy kontekstda, Kembridj universitetida qoʻllanishi taʼkidlangan. Bizningcha, bir soʻz qoʻllanishi muayyan hudud yoki tashkilot doirasida cheklandimi, bunga biror sabab yoki izoh berilishi kerak. Hatto soʻzning etimologiyasi haqida ham qisqa maʼumot bergan lugʻat mualliflari ushbu feʼl nega aynan faqat Kembridj universitetida qoʻllanishi haqida maʼlumot bermaydi.

Colledge dictionary yaʼni oʻquv lugʻati deb kategoriyalanuvchi ushbu manbaning izohidagi bunday mavhumlik maqolaning informativlik darajasini soʻzsiz tushirib yuborgan. Tadqiq obʼektimiz boʻlgan jarayon semasi esa tavsifiy shaklda emas sinonimik koʻrinishda izohlangan. Kembridj izohli lugʻati ushbu soʻzning ikki qarama-qarshi maʼnosini yoritadi:

INCEPT verb UK /ɪnˈsept/ US /ɪnˈsept/ to begin or introduce something: *The offshore fund was incepted in India on May 14. Organic farming in Malaysia was incepted by the Center for Environment, Technology and Development, Malaysia. Fewer examples Please note that every Marine Pleasurecraft Policy will carry a minimum \$25 excess unless incepted over 3 years ago. Planning for NMI began in*

¹¹<https://www.merriam-webster.com/>

2007 and it was incepted through the collaboration of Norwegian organizations in both the public and private sector. Isn't this the purpose of the FTC and SEC and the antitrust laws they were incepted to enforce?

(UNIVERSITY) [I or T] UK old use to successfully finish university with a degree: *He was eventually permitted to incept. In 1253 a dispute arose at his presentation to incept as a doctor of theology.*¹²

Birinchi ma'no "boshlanish" va "tanishtirish" semalariga sinonimik ishora bilan ochib berilgan. Ushbu so'zning faqat rasmiy nutqiy doirasida qo'llanishi misollardan anglashiladi. Bu o'rinda lug'at tuzuvchilar so'z ma'nosini yoritib berishni asosan misollar kontekstiga yuklagani ma'lum. Misollarning ko'pligi Kembrij lug'atining o'quv leksikografik manba ekanligini ham asoslay olgan. Maqolaning ikkinchi qismi barcha lug'atga qarama-qarshi ravishda so'zning ikkinchi ma'nosini ochadi va ushbu ma'no faqat oliy ta'lim kontekstida qo'llanishiga ishora qiladi. Universitet darajasini muvaffaqiyatli tugallab, diplomga ega bo'lmoq ma'nosidan tugallanganlik, o'ziga qaratilganlik tarz-aspektual ma'nolari anglashiladi. Bu ma'no faqat Kembrij universitetida qo'llanishi haqida ma'lumot yo'q. Ehtimol ushbu sema so'zning "hazm qilmoq" fe'li bilan variantdoshligi sabab yuzaga kelgan. Oksford o'quv izohli lug'atida bu so'zning ot shakliga quyidagicha izoh beriladi:

INCEPTION noun /ɪn'sepʃn/ /ɪn'sepʃn/ [singular] (formal) the start of an institution, an organization, etc. *The club has grown rapidly since its inception in 2007.*¹³

Izohda fe'ldan yasalgan ot qo'llanishiga ko'ra eskirganligiga ishora yo'q. Lug'at ushbu so'zni rasmiy nutqiy doiraga oid deb kategoriyalagan va sinonimlari bilan birga misol ob'ektlarni sanab o'tgan. Rasmiy uslubiy doirada voqelanish misol gap bilan dalillangan. Lug'atda etimologiya va boshqa lug'aviy ma'nolar izohi keltirilmagan bo'lsa ham, leksemaning asosiy semasi to'laonli qamrab olingan. Tadqiq ob'ekti bo'lgan jarayon boshlanishi semasi sinonim va misollarni sanab o'tish vositasida izohlangan. Yana bir mutlaq jarayon ma'nosiga ega fe'l ingliz tilining izohli lug'atida quyidagicha talqin qilinadi:

CEASE verb /si:s/ /si:s/ [intransitive, transitive] (formal) to stop happening or existing; to stop something from happening or existing *Welfare payments cease as soon as an individual starts a job. cease to do something You never cease to amaze me! cease something They voted to cease strike action immediately. He ordered his men to cease fire (= stop shooting). cease doing something The company ceased trading in June.*¹⁴

Oksford lug'atida fe'l izohi uning sinonimi to stop atrofida markazlashgani bois uning kontekstual o'ziga xosligini ochib berish misollar zimmasiga yuklangan. Fe'l

¹²<https://dictionary.cambridge.org/>

¹³<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

¹⁴<https://dictionary.cambridge.org/>

ifodalagan “tugatmoq”, “tugamoq” ma’nolari hech qanday uslubiy xoslanishga – qo‘llanish doirasi rasmiy yoki norasmiy chegaralarga ega emas.

Kembridj izohli lug‘atida ham bu so‘z sinonimi to stop bilan izohlangan – misollar faqat rasmiy axborot kontekstidan olingani uchun so‘z formal nutqiy doirada qo‘llanadi degan tasavvur shakllanadi:

CEASE verb [I or T] formal UK /si:s/ US /si:s/ Add to word list B2 to stop something: *Whether the protests will cease remains to be seen. The company has decided to cease all UK operations after this year.* [+ to infinitive] *Workplace nurseries will cease to be liable for tax.*¹⁵

Webster lug‘ati ushbu so‘z ma’nosini to‘liqroq izohlaydi:

CEASE 1 of 2 verb 'sēs **ceased**; **ceasing**: to cause to come to an end especially gradually : no longer continue – *they were forced to cease operations* intransitive verb **1 a** : to come to an end the fighting gradually ceased **b** : to bring an activity or action to an end: **DISCONTINUE** they have been ordered to cease and desist¹⁶

Yuqoridagi izohlardan farqli o‘laroq ushbu maqolada so‘zning aspektual ma’nosiga alohida ishora qilinadi. “Tugallamoq” jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshishi, ya’ni davomiylik sur’atiga egaligi yoritiladi. Ushbu farq ziddiyatli izohdagi davom ettirmaslik jumlasini bilan mustahkamlanadi. Aynan jarayon ma’nosining ilova qilinishi bilan ushbu fe’lning boshqa ma’nodoshi to stop leksemasidan farqi ochib berilgan. Bundan kelib chiqadiki, ma’nodosh so‘zlar izohida ularning farqini ko‘rsatadigan jihat aynan jarayon (aspekt) semasi bo‘lishi mumkin. SHu sababdan lug‘at maqolani shakllantirishda fe’llar izohiga “jarayon” semasini qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Harakat va holat zot, jarayon uning tajallisi, ya’ni bir belgisi. SHu tajallining xoslanishi fe’lni variantdoshlaridan farqlovchi belgiga aylanadi. Buni aksioma sifatida qabul qilib, o‘zaro ma’nodosh fe’llar izohiga tafovut nuqtai nazaridan yondashish, jarayon farqini graduonimik qator yordamida aniqlash maqsadga muvofiq. SHu farqni ilova qilish, izohni shunchaki sinonimik talqindan tavsifiy yondashuv maqomiga ko‘tarishi mumkin. Demak, o‘zaro ma’nodosh, lug‘aviy ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan fe’llar izohida ularni farqlovchi elementlar ikki turga bo‘linadi:

- a) misollarda aks etgan rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy qo‘llanish doirasi;
- b) harakat va holat tarkibidagi “jarayon” semasi xoslanishi.

Ingliz leksikografik maktabi ikki doimiy ziddiyat qurshovida mavjud. Birinchi yo‘nalishda lug‘at me’yoriy manba o‘laroq leksikani tartiblash, so‘z boyligini faol va nafaol qismga ajratish – faol leksikaning qo‘llanish me’yorini belgilab berish bilan shug‘ullanishi kerak. Masalan, yuqoridagi lug‘at maqolalar qiyosidan Oksford izohli lug‘ati aynan shunday yondashuvga asoslanishini ko‘ramiz. YA’ni ushbu lug‘at muayyan so‘zning eng faol qo‘llanadigan ma’nosini qamrab, aksidensiyasi past bo‘lgan semalarini e’tibordan chetda qoldiradi. Lug‘atchilikda bunday yondashuv preskriptiv

¹⁵ <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

¹⁶ <https://www.merriam-webster.com/>

deb atalib, o'quvchiga so'z aynan qaysi kontekstda, qay shaklda qo'llanishini o'rgatish maqsad qilinadi.

Maktabning ikkinchi yo'nalishi so'z talqinida hech qanday normalar bilan cheklanmaslik kerakligini, uning ayni hozir qanday qo'llanishi, qaysi ma'nolarni kasb etishini to'laqonli qamrash kerak deb ta'kidlaydi. Bunda lug'atning maqsadi didaktik emas, tavsifiy (deskriptiv) tus oladi. Kembrij lug'atida to incept so'zining ikki zid ma'nosi keltirilishi ham ayni shu yondashuv natijasidir. Bunday lug'atlar aktual til normasini ko'rsatadi, doimiy o'zgarish va yangilanishlarni aks ettirib boradi.

Maslan, Merriam Webster lug'atidagi fe'l talqinida aynan shunday deskriptiv yondashuv mavjud:

ACCELERATE verb ac·cel·er·ate ik-'se-lə-, rāt ak- **1:** to move faster : to gain speed *The car slowly accelerated. The pace of change has accelerated in recent months.* **2:** to progress from grade to grade more rapidly than usual: to follow a speeded-up educational program transitive verb: to bring about at an earlier time *Circumstances accelerated their departure.* **2:** to cause to move faster accelerated his steps also: to cause to undergo acceleration **3 a:** to hasten the progress or development of accelerate our efforts **b:** INCREASE accelerate food production **4a:** to enable (a student) to complete a course in less than usual time **b:** to speed up (something, such as a course of study)¹⁷

So'zning to'rt asosiy ma'nosi ajratilgan. Bu ajratilgan semalar sof polisemiyaning aks ettirmaydi. Ya'ni ma'nolar bir biriga o'xshash – “kuchaymoq” semasining turli kontekstda voqelanishini ko'rsatadi. Har bir ajratilgan bandeda kontekstlar farqlanadi va har biri “kuchaymoq”, “jadal kuchayish” ma'nolarini tasdiqlashga xizmat qiladi. SHuningdek, misollardan ushbu so'z asosan rasmiy nutqiy doirada qo'llanishini anglash mumkin. *Kuchaytirmoq* so'zining “tezlashmoq”, “jadallashmoq”, “shitob bilan harakatlanmoq” kabi ma'no bo'yoqlari ochib berilgan.

Webster lug'atida ushbu kichik farqlar faqat misollar chog'ishtiruv natijasida anglashilishi ko'zda tutilgan. YUqoridagi fe'lning antonimi quyidagicha talqin qilinadi:

DECELERATE verb de·cel·er·ate (,)dē-'se-lə-, rāt decelerated; decelerating **1 :** to reduce the speed of : slow down decelerate a car **2 :** to decrease the rate of progress of decelerate growth decelerate soil erosion¹⁸.

Kuchaymoq so'ziga qarama-qarshi “kuchsizlashmoq”, “sekinlashmoq”, “sustlashmoq” semalari *tuproq chirishi, mashinani sekinlashtirish* iboralar bilan dalillangan, ushbu iboralar nafaqat lug'aviy harakat ma'nosidagi ziddiyat, balki jarayon semasidagi antonimiyani ham ochib bergan. YA'ni birinchi misolda fe'l tez, shitob bilan o'sish, kuchayish, ildamlash ma'nosini anglatgan bo'lsa ikkinchi fe'l sustlashish, orqaga qaytish jarayonining sekin, bosqichma-bosqich sur'atda amalga oshirishini dalillaydi. Bunda fe'l aspektual ma'nosini misol va izohdagi ravishlar to'liq ochib bergan.

¹⁷ <https://www.merriam-webster.com/>

¹⁸ <https://www.merriam-webster.com/>

Xulosa. Aspektual maydon elementlarining leksikografik talqini o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham sinonimik va tavsifiy yo‘nalishda amalga oshirilgan. Bunda sinonimik yondashuv bir lug‘at maqolani boshqasiga bog‘ab qo‘yganligi bilan noqulaylik tug‘diradi. Shu sababdan aspektual ma’noga ega leksemalarning izohiga tavsifiy nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy aspektual ma’nolar – “boshlanish”, “davomiylik” va “tugallanganlik” leksikografik talqinning ma’no izohi qismidan o‘rin olishi, xususiyl aspektual ma’nolar esa misollar vositasida namoyon bo‘lishi mumkin. SHuningdek, fe‘l ma’nosidan yaqqol anglashilgan “jarayon”, “soniyaviylik” va hokazo xususiyl aspektual ma’nolar ham uning izohida aks eta oladi. Harakat va holatdan tashqari semik tarkibda yaqqol ko‘zga tashlanuvchi jarayon semasini izohlash uchun tavsifiy usuldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tavsifiy izoh xatti-harakat va holat yuzaga kelgan vaziyat, sabab va natijalarni o‘z ichiga olishi, misollarda turli kontekstual semalar dalillanishi shart. SHu asnoda fe‘l va ravishlarning asosiy lug‘aviy ma’nosi bilan birga eng kichik aspektual semalari ochib beriladi. Bu esa lug‘atni til o‘rganish, tarjima jarayonlarida fundamental tayanch manbaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arnold I. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka – M.: Literatura na inostrannykh yazykax, 1959
2. Craft W. Verbs aspect and causal structure – Oxford Universty Press; 2012, 33p.
3. Dahl Ö. – Tense and aspect systems – Oxford: 1985.
4. Bybee J., Perkins R., Paqliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect a. modality in the lang. of the world. – Chicago: Univ. of Chicago press, 1994. – XXII, 398 p.
5. Allan K. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell Publishers, 2006. – 154 p.
6. Madrahimov I. O‘zbek tilida leksemalarning [IM] asosidagi tasnifi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. № 6. – B. 22-24.
7. Mengliev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. dokt... diss. – Toshkent, 2001. – 248 b.
8. Hamraeva Y. O‘zbek tilining ideografik lug‘atini tuzish tamoyillari (harakat va holat tushunchasini ifodalovchi so‘zlar misolida): Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2010. – 48 b.
9. <https://dictionary.cambridge.org/>
10. <https://www.merriam-webster.com/>
<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>



NEYROLINGVISTIKANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TIL FUNKSIYALARINING MIYADAGI LOKALIZATSIYASI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI



ZARIPOV Rafiqjon,
Filologiya fanlari doktori (DSc)., dotsent v.b.
Renessans ta'lim universiteti

Annotatsiya: maqolada neyrolingvistika fanining shakllanishida muhim o'rin tutgan XIX asr olimlarining miya va til munosabatlariga doir ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda aqliy faoliyat va til funksiyalarining bosh miya po'stlog'ida lokalizatsiyalanishi masalasi yuzasidan ilgari surilgan nazariyalar, jumladan, funksional lokalizatsiya, assotsiativ bog'lanishlar, til markazlari va afaziya haqidagi konsepsiyalarning rivojlanish jarayoni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Neyrolingvistika, miya lokalizatsiyasi, afaziya, til markazi, bosh miya po'stlog'i, frontal lob, assotsiatsion nazariya, Broka markazi, Vernike markazi, Lichtheim modeli, kognitiv faoliyat, neyropsixologiya, til va miya, funksional tizim.

Annotation:

The article analyzes the scientific views of the 19th century scientists who played an important role in the formation of the science of neurolinguistics on the relationship between the brain and language. The study covers the development of theories on the localization of mental activity and language functions in the cerebral cortex, including the concepts of functional localization, associative connections, language centers and aphasia.

Keywords: Neurolinguistics, brain localization, aphasia, language center, cerebral cortex, frontal lobe, association theory, Broca's center, Wernicke's center, Lichtheim model, cognitive activity, neuropsychology, language and brain, functional system.

Аннотация:

В статье анализируются научные взгляды ученых XIX века, сыгравших важную роль в формировании нейролингвистики, на взаимосвязь между головным мозгом и языком. Исследование охватывает развитие теорий локализации умственной деятельности и языковых функций в коре головного мозга, включая концепции функциональной локализации, ассоциативных связей, языковых центров и афазии.

Ключевые слова: нейролингвистика, локализация в головном мозге, афазия, языковой центр, кора головного мозга, лобная доля, теория ассоциаций, центр Брока, центр Вернике, модель Лихтхайма, когнитивная активность, нейropsихология, язык и мозг, функциональная система.

Kirish. Til va tafakkur munosabatlari insoniyat ilmiy tafakkurining eng murakkab va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, til faoliyatining bosh miya tuzilmalari bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar zamonaviy neyrolingvistika fanining shakllanishiga asos bo'ldi. XIX asrga kelib tibbiyot, nevrologiya va psixologiya sohalarida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida nutq

faoliyati miyaning muayyan qismlari bilan bog‘liq ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar shakllana boshladi. Bu davrda miya faoliyatining lokalizatsiyasi, ya’ni muayyan psixik va lisoniy funksiyalarning bosh miya po‘stlog‘idagi alohida markazlar bilan bog‘liqligi masalasi ilmiy bahslarning markazida turdi.

Miya va til o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish jarayonida ayrim olimlar nutq funksiyalarining qat’iy lokalizatsiyasini e’tirof etgan bo‘lsalar, boshqalari esa miya faoliyatining yaxlit tizim sifatida ishlashini asoslashga harakat qildilar. Mazkur qarama-qarshi yondashuvlar natijasida keyinchalik zamonaviy neyrolingvistika, neyropsixologiya va kognitiv fanlarning metodologik asoslari shakllandi [1]. Shu sababli til funksiyalarining miya tuzilmalari bilan bog‘liqligini tadqiq etgan dastlabki nazariyalarni o‘rganish neyrolingvistika taraqqiyoti qonuniyatlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Til faoliyatining miya bilan bog‘liqligini o‘rganishga oid dastlabki ilmiy qarashlar XVIII–XIX asrlarda shakllana boshladi. Bu borada Gallning miya po‘stlog‘ida aqliy qobiliyatlarni lokalizatsiya qilganligi haqidagi nazariyasi, Per Flourensning miyada funktsiyalarning ma’lum bir bo‘linishi mavjud, ammo korteks yagona bir butun sifatida ishlashi kerakligi haqidagi qarashlari, Bouillaudning frontal loblardagi shikastlanishlar nutqning yo‘qolishiga olib kelishi yuzasidagi fikrlari, Pol Brokaning nazariyasi, Teodor Meynertning assotsiatizm nazariyasi, Karl Vernik nazariyasi, Lyudvig Lichzaymning “kontseptsiya(tushuncha) markazi”, Armand Troussonning “afaziyada aql har doim buziladi” degan xulosasi, Jeksonning stimullar kuzatuvi yuzasidagi xulosalari ahamiyatli.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, konseptual tahlil hamda ilmiy manbalarni retrospektiv o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Avvalo, neyrolingvistika fanining shakllanishiga oid klassik ilmiy manbalar tahlil qilinib, til funksiyalarining miya lokalizatsiyasi haqidagi nazariyalar evolyutsiyasi aniqlandi. Shuningdek, turli olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar o‘zaro qiyoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari belgilandi. Tadqiqot jarayonida lokalizatsion va holistik yondashuvlarning ilmiy asoslari, afaziya hodisasiga oid qarashlar hamda til markazlari haqidagi nazariy konsepsiyalar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Anatomist Franz Joseph Gall miya po‘stlog‘ida aqliy qobiliyatlarni lokalizatsiya qilgan birinchi olim edi. Ilgari korteks miyani oziqlantirish funktsiyasi bilan miya membranalarining kengayishi deb hisoblangan. Odamlarda (hayvonlardagidan farqli o‘laroq) miya giruslari (tizmalari yoki konvolyutsiyalari) o‘zgarib turadi va miyaning ikki yarim shari farq qiladi deb taxmin qilingan. Gall shuningdek, korteksni morfologik

jihtadan bir xil, uzluksiz qatlam sifatida ko'rdi. U bu nuqtai nazarni ikkita kuzatish natijalari bilan asosladi:

a) gidrotsefaliya holatlari, bunda ko'p suyuqlik tufayli korteks cho'zilib ketgan va shu bilan o'zining konvolyutsiyasini yo'qotgan, ammo miya funktsiyalari o'zgarmagan bo'ladi;

b) korteksqa tashqi ta'sir ko'rsatish orqali konvolyutsiyalarning tuzilishini o'zgartirish imkoniyati.

Gall miyaning sirtini o'rganish va xaritasini tuzishga qaror qildi. U korteks miyaning eng yuqori tashkiloti ekanligini va korteks, kulrang moddalarning boshqa joylari oq moddaning tolalari bilan bog'langanligini tushuntirdi.

Gall o'z nazariyasi uchun asos sifatida bir nechta taxminlarni ilgari surdi:

- bir qator tug'ma qobiliyatlarning mavjudligi;
- bu qobiliyatlarni bir butun holda qisqartirish mumkin emasligi va ular bir-biridan mustaqil ekanligi;
- qobiliyatlarning haqiqiy mohiyatini tekshirish mumkin emas, faqat ularning organizmdagi moddiy sharoitlarini tekshirish mumkin ekanligi;
- bu moddiy sharoitlar korteksda bo'lishi kerakligi.

Ushbu taxminlarning mohiyati empirik edi. Gall xulq-atvorni kuzatishdan boshladi, lekin (barcha qobiliyatlarni hissiy taassurotlarga qisqartirish mumkin deb fikr yuritgan sof sensatsiyachilardan farqli o'laroq) ma'lum qobiliyatlar tug'ma bo'lishi kerakligini aniqladi, chunki ularni boshqa yo'l bilan izohlab bo'lmaydi. U tushlar bilan aqliy qobiliyatlarning ko'pligi haqidagi qarashni misol qilib keltirdi. Bu erda ma'lum qobiliyatlar dam oladi, boshqalari esa faoldir. Qobiliyatlar ko'p bo'lishi kerak va ular umumiy bo'lishi mumkin emas. Korteksning roli uning hissiy va vositachilik funktsiyalari, phantom(xayoliy) og'rig'i (amputatsiya qilingan oyoq-qo'llarda), uning o'lchami va miya lezyoni hajmi, simptomlarning og'irligi o'rtasidagi bog'liqlik kabi hodisalar uchun ahamiyatli ekani bilan dolzarb edi. Bu taxminlarning barchasi 150 yil davomida katta ta'sirga ega bo'ldi.

Ruhning xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini bilish uchun Gall tilga murojaat qildi va uni chuqur o'rganishni boshladi. Bunda birinchi navbatda, taniqli shaxslarning tarjimai holiga e'tibor qaratdi. Shu tariqa u insonning 27 ta qobiliyatini aniqladi. Ushbu qobiliyatlarni xaritalashda Gall bosh suyagining rivojlanishi uning ostidagi korteks hajmiga bog'liq deb taxmin qildi. Shunday qilib, bosh suyagini kuzatish orqali korteksni tekshirish mumkin bo'ladi. Bu protsedura kranioskopiya deb nomlandi va aynan kranioskopiyadan frenologiya rivojlandi; frenologiya keyinchalik obro'sizlantirildi. Gall bir qator odamlarning turli qobiliyatlarini o'rganib chiqdi va ularning bosh suyagini tekshirdi. Natijada, 27 ta qobiliyatning har biri ikki tomonlama, bitta kortikal soha bilan bog'liq ekanligini aniqladi. Ikkala frontal lobda joylashgan til

neyronlarining biri nutq artikulyatsiyasi, ikkinchisi esa xotira uchun javobgar deb qaraldi. Ushbu lokalizatsiya Gallning frontal lob lezyonlari va nutq buzilishlari bo'lgan odamlarda olib borgan kuzatishlariga asoslangan edi.

Gallning asosiy antagonisti frantsuz fiziologi Per Flourens edi. Uning ta'kidlashicha, miyada funktsiyalarning ma'lum bir bo'linishi mavjud, ammo korteks yagona bir butun sifatida ishlashi kerak. U hayvonlar, asosan qushlar ustida tajribalar o'tkazdi va korteksning katta qismlarini hech qanday funktsiyalar paydo bo'lmasdan olib tashlash mumkinligini aniqladi. Bu g'oyalar keyinchalik "ekvipotentsiallik" nomi ostida paydo bo'ldi. Bu davrda korteks anatomiyasini xaritalash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Masalan, Luiji Rolando va Lui-Per Gratiolet (ajablanarlisi, ular Gallga qarshi Flourens tarafdori edi) tomonidan bu borada izlanishlar olib borildi va korteksning strukturaviy qatlamlari, gistologlar tomonidan tekshirildi.

Jan-Batist Bouillaud Gall va Broka o'rtasidagi bog'liqlikni belgilovchi olim sifatida qaralishi mumkin. U Gallning shogirdi edi va uni qo'llab-quvvatladi. Bouillaud frontal loblardagi shikastlanishlar nutqning yo'qolishiga olib kelishini isbotlashga qaror qildi. U Flourensqa qarshi, cheklangan kortikal lezyonlar qisman mushaklar falajiga olib keladi, deb fikr bildirdi. Bu esa korteksda o'ziga xos markazlar mavjudligini ko'rsatdi. U nutq buzilishlarining frontal lobning shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarini va nutq buzilishini shakllantirmaydigan boshqa loblarning shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarini taqdim etdi. Bouillaud miya shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki turdagi nutq buzilishlarini topdi: "nutq harakati" va "so'z xotirasi(so'zni xotirada saqlash muammolari)" buzilishi; bu Gall tomonidan qabul qilingan qobiliyatlarga muvofiq edi. Unitaristlar qarshi fikrlarni bildirdilar. Ular frontal loblarda shikastlangan, ammo nutqni yo'qotmagan bemorlarni va boshqa loblardagi lezyonlardan keyin nutqni yo'qotgan bemorlarni asos qilib oldilar. Galldan so'ng ikki jihatdan oldinga siljish kuzatildi:

a) boshqa narsalar qatori, til yo'qolishining klinik kuzatuvlaridan so'ng, nimani lokalizatsiya qilish haqidagi qarashlar shakllangan edi;

b) korteks xaritasi shakllantirilganligi tufayli lokalizatsiya qilish haqida aniq yondoshuvlar bor edi.

Buyoning kuyovi bo'lgan Ernest Auburtin o'z g'oyalarini 1861 yilda Parijdagi Tropologik jamiyatga taqdim etdi. U o'z joniga qasd qilishga uringan bemorni topdi va uning bosh suyag frontal loblaridan foydalandi. Frontal loblar buzilmagan, "foydalanish mumkin" edi. Auburtin, agar siz spatula bilan frontal loblarni bossangiz, bemor gapirishni to'xtatib qo'yishini aniqladi va u buni frontal loblarda nutqning lokalizatsiyasining isboti sifatida ko'rdi. Yig'ilishda ishtirok etgan jarroh va antropolog Pol Broka ko'p o'tmay o'layotgan va og'ir nutq buzilishi bo'lgan bemorni topdi. U o'sha bemorning miyasi misolida qo'shimcha dalillarni taqdim etishga qaror qildi.

Odatda neyrolingvistikaning vujudga kelishi, 1861 yilda Pol Brokaning bemorda shikastlanish alomatlari va uning miyasi tekshiruvlari xulosalariga ko'ra keltirgan nazariyasi tug'ilishi bilan bog'lanadi [3. Bemor, Leborgne, nutq ishlab chiqarishda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Uni "Tan" deb atashgan, chunki bu uning yagona nutqi edi. Otopsiyada, ehtimol uning nutqining buzilishiga olib kelgan eng avvalgi miya shikastlanishi (boshqa alomatlar keyinroq qo'shilgan) miyaning Broka maydoni deb nomlanuvchi ma'lum bir hududga ta'sir ko'rsatdi, uchinchi frontal konvolyutsiya (girus) (pars triangularis va pars opercularis) chap yarim sharda [4].

Ushbu bemorni va shunga o'xshash alomatlari bo'lgan bir nechta boshqa bemorlarni o'rganib chiqqandan so'ng Broka 1865 yilda ikkita muhim farazni ilgari surdi:

1. miya konvolyutsiyalarida psixologik funktsiyalarni lokalizatsiya qilish mumkinligi;

2. lingvistik alomatlar chap yarim shardagi lezyonlardan kelib chiqqanligi va natijada tilning lateralizatsiya qilinganligi.

O'sha davrda bu mutlaqo kutilmagan hodisa edi.

Broka til buzilishini afemi (gapira olmaslik) deb atagan.

Broka nazariyasi unitaristlar (asosan konservativ) va lokalistlar (asosan liberal respublikachilar) o'rtasida yangi ziddiyatlarning yuzaga chiqishiga olib keldi.

Teodor Meynert o'zining assotsiatizm nazariyasi tufayli juda kuchli ta'sirga ega bo'lgan anatomist edi. U hayvonlarning oq moddasidagi nerv tolalarini tekshirib, ularning ikki xil ekanligini aniqladi:

a) korteks va orqa miya orasidagi proyeksiya tolalari

b) har bir yarim sharda yoki ikki yarim sharlar orasida joylashgan turli konvolyutsiyalar orasidagi assotsiatsiya tolalari.

Meynertning ta'kidlashicha, ong, aql va xotira kortikal, ammo lokal emas. Idrok, induktiv fikrlash va deduktiv fikrlash o'rtasidagi bog'lanish natijasi bo'lib, induksiyaning tashqi ko'rinishi edi. Shuningdek u, primatlar va odamlarning korteksini taqqosladi va inson korteksi Silvan yorig'i atrofida kuchli rivojlanganligini aniqladi. Shuning uchun Meynert bu soha til funktsiyasi bilan bog'liq bo'lishi kerak deb hisobladi.

Boshqa tadqiqotchilar korteksni elektr stimulyatsiyasi yordamida tekshirdilar va itda vosita, eshitish, ko'rish va hissiy markazlarni topdilar. Bunday tadqiqotchilar sirasida qaraluvchi Eduard Xitsig va Devid Ferrier (1886) aqliy faoliyat frontal loblarda joylashganligini ta'kidlashdi.

1874 yilda nevrolog Karl Vernik Brokaning topilmalari va tilni tushunishda muammolari bo'lgan bemorlarning miyasini o'z xulosalariga ko'ra tavsifladi va shu asosda o'z nazariyasini taqdim etdi.

Til sohalarini lokalizatsiyalash. Vernik maydoni, pastki parietal lob, burchakli girus, Broka maydoni.

Vernikga ko'ra lingvistik "oqim sxemasi". (Akustik = eshitish, Optik = ko'rish, Taktil = teginish, Mot = so'z, Audition des mots = so'z eshitish, Articulation des mots = so'z artikulyatsiyasi).

U funktsiyalarning miya konvolyutsiyalarida(burilishlarida) joylashtirilganligi haqidagi g'oyani yanada rivojlantirdi.

Tilni tushunish qobiliyati past bo'lgan bemorlarda Vernik zonasi, birinchi yoki yuqori temporal(vaqtinchalik) girusning orqa qismi va qo'shni hududlarda (burchak girusining qismlari, supramarginal girus va ikkinchi temporal girus deb nomlanuvchi sohada lezyonlar bor edi).

Vernik, Vernik hududidan (reseptiv(qabul qiluvchi) funktsiya uchun mas'ul) Broka hududigacha (ekspressiv(ifodalash) funktsiya uchun mas'ul) o'ziga xos "til girusi" borligini tasvirladi. Ushbu sohalarining birida yoki ular orasidagi bog'liqlikdagi shikastlanishlar afaziyaga olib keladi.

Vernik nazariyasi lingvistik funktsiyalar va miya tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarning har qachongidan ham rivojlangan modeli edi [2: 37]. Shuni ta'kidlash kerakki, Vernik hududida yoki Vernik va Broka hududlari o'rtasidagi bog'liqlikdagi shikastlanishlar ham til ishlab chiqarishda symptomlar(alomat)ni keltirib chiqaradi. Chunki Broka hududiga kirish buzilgan bo'ladi.

Vernik nazariyasining muhim qismlari:

- simptom komplekslarini aniqlash (kasallik alomatlari murakkablik darajasi);
- axborot oqimi g'oyasi (yuqori darajadagi "reflektor(mulohaza) yoy"ning bir turi);
- vakillik g'oyasi. Broka maydonida nutqning "vosita tasviri" bor, Vernik hududida esa "eshituvchi tovush tasviri" borligi aytiladi.

Umuman ushbu davrlarda Anatomist Franz Joseph Gall miya po'stlog'ida aqliy qobiliyatlarni lokalizatsiya qilgan. Per Flourensning miyada funktsiyalarning ma'lum bir bo'linishi mavjud, ammo korteks yagona bir butun sifatida ishlashi kerakligi haqidagi qarashlari yuzaga kelgan. Bouillaud frontal loblardagi shikastlanishlar nutqning yo'qolishiga olib kelishini isbotlashga qaror qildi va u cheklangan kortikal lezyonlar qisman mushaklar falajiga olib keladi, deb fikr bildirdi. Bu esa korteksda o'ziga xos markazlar mavjudligini ko'rsatdi. U nutq buzilishlarining frontal lobning shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarini va nutq buzilishini shakllantirmaydigan boshqa loblarning shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator holatlarini taqdim etdi. Pol Brokaning bemorda shikastlanish alomatlari va uning miyasi tekshiruvlari xulosalariga ko'ra keltirgan nazariyasi vujudga keldi. Teodor Meynert o'zining assotsiatizm nazariyasini shakllantirdi va ushbu nazariya tufayli juda kuchli ta'sirga ega

bo'ldi. U hayvonlarning oq moddasidagi nerv tolalarini tekshirib, ularning ikki xil ekanligini aniqladi. Nevrolog Karl Vernik Brokaning topilmalari va tilni tushunishda muammolari bo'lgan bemorlarning miyasini o'z xulosalariga ko'ra tavsifladi va shu asosda o'z nazariyasini taqdim etdi. Lyudvig Lichzaym Vernik modeli asosida nazariy jihatdan tuzilgan til funksiyasi modelida aniqlanmagan lokalizatsiyaga ega uchinchi til markazini, ya'ni "kontsepsiya(tushuncha) markazi"ni qoydalashtirishni zarur deb topdi. Armand Trouso klinik asoslarga ko'ra, "afaziyada aql har doim buziladi" degan xulosaga keldi. Jekson stimullarning(rag'batlantirilishlarning) qanday javob berishini va bu javoblarning qanchalik murakkabligini o'rgandi.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, neyrolingvistika fanining shakllanishi til faoliyatining bosh miya tuzilmalari bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Franz Joseph Gall tomonidan boshlangan funksional lokalizatsiya g'oyasi keyinchalik Bouillaud, Broka va Vernike tadqiqotlari orqali ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, Flourens, Meynert va Jekson kabi olimlarning qarashlari miya faoliyatini yaxlit va murakkab tizim sifatida tushunishga xizmat qildi. Natijada til faoliyati alohida markazlarning izolyatsiyalangan mahsuli emas, balki bosh miya po'stlog'ining o'zaro bog'langan funksional tizimlari faoliyati natijasi ekanligi haqidagi zamonaviy neyrolingvistik yondashuv shakllandi. Ushbu nazariyalar bugungi kunda afaziyani diagnostika qilish, nutq buzilishlarini reabilitatsiya qilish hamda til va tafakkur munosabatlarini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brain and Language // <https://www.sciencedirect.com/journal/brain-and-language>
2. Zaripov R.E. Neyrolingvistika. Uslubiy qo'llanma. Toshkent – "Ilm ziyo zakovat" – 2025 119-bet.
3. Whitaker, H., & coeditors (1976–1979). Studies in neurolinguistics. New York: Academic Press. P. 6.
4. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М.: Либроком, 2009. – 3 с.



ASPEKTUAL MA'NO IFODALOVCHI LEKSEMALARNING INGLIZ IZOHLI LUG'ATLARIDAGI TALQININI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



Mengliyeva Munira,
*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti
Filologiya fanlari doktori*

ANNOTATSIYA

Aspektuallik funksional-semantik maydoni periferiyasidan ravish va fe'l so'z turkumiga oid so'zlar izohli lug'atda sinonimik yoki deskriptiv sinonimiya vositasida izohlanadi. Bu talqinni mukammallashtirish uchun izoh tarkibiga aspektuallik semalarini kiritish, harakat va holat jarayonini tasvirlash kerak. Aynan shunday talqinda o'zaro sinonim leksemalarni farqlash imkoni paydo bo'ladi. So'zlarning leksikografik talqinidagi bir tamoyil va shakl ham ayni shu jarayon semalarini berilganligida aks etadi. Maqolada fe'l va ravishlar izohiga kiritilishi kerak bo'lgan leksik elementlar zarurati dalillangan.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, fe'l, aspektuallik, tavsifiy izoh

АННОТАЦИЯ

С периферии функционально-семантического поля аспектуальности слова, относящиеся к словесной группе слов и глаголов, объясняются в толковом словаре посредством синонимии или описательной синонимии. Для совершенствования этой интерпретации необходимо ввести в описание схемы аспектуальности, описать процесс действия и состояния. Именно в такой интерпретации становится возможным выделить взаимно синонимичные лексемы. Принцип и форма лексикографического толкования слов отражаются и в изложении этого же процесса. В статье доказывается необходимость лексических элементов, которые следует включать в объяснение глаголов и наречий.

Ключевые слова: толковый словарь, глагол, видовое значение, описательное определение

ANNOTATION

From the periphery of the functional-semantic field of aspectuality, words belonging to the verbal group of words and verbs are explained in the explanatory dictionary through synonymy or descriptive synonymy. To improve this interpretation, it is necessary to introduce aspectuality schemes into the description and describe the process of action and state. It is in this interpretation that it becomes possible to identify mutually synonymous lexemes. The principle and form of lexicographic interpretation of words are reflected in the presentation of the same process. The article proves the need for lexical elements that should be included in the explanation of verbs and adverbs.

Definition dictionary: definition dictionary, verb, aspectual meaning, descriptive definition

Kirish. Ravishlar aspektual ma'no ifodalovchilar sifatida funksional-semantik maydon periferiyasidan o'rin oladi – ularning leksikografik talqinini o'rganish aspekt ma'nolaridagi farqlar, aspekt semalari voqelanishini tushunish imkonini beradi. Shu sababdan ravishlarning izohini shakllantirishda tavsifiy, sinonimik va ziddiyatli talqinlardan o'rinli foydalanish zarurati yuzaga keladi. Aspekt ma'nosining ilova qilinishi ma'nodoshlarni farqlash bilan birga matn tahriri va tarjimada aspekt ma'nosiga yondashuv tamoyillarini shakllantiradi.

Metodlar. Ingliz tilida izohli lug'atlarga o'quv manbasi sifatida yondashish keng ommalashgan. Ushbu tilni o'rganishga bo'lgan global qiziqish sababli mualliflar turli yondashuvlarga asoslangan lug'atlar taqdim etiladi. Ushbu maqolada Oxford Learners' Dictionary, Cambridge dictionary hamda Meriam Webster lug'atlaridagi aspektual ma'nolar talqini muhokama qilinadi. Lug'atlar qiyosi vositasida ravishlarning aspektual ma'nosi ochib beriladi. Ushbu ma'nolar talqiniga tavsifiy, ziddiyatli va sinonimik izoh turlaridan qaysi biri eng optimal variant bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Natijalar. Lug'atlardagi asosiy farq shundaki, me'yoriy yoki tavsifiy yondashuv barcha so'zlar, xususan, aspekt semasiga ega leksemalar talqiniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Birinchi tur lug'atlarda aspekt ma'nosiga ega leksemalar qisqa-lo'nda, sinonimlar vositasida va kamdan-kam hollarda sinonim va tavsif uyg'unligida izohlangan. Ikkinchi tur lug'atlarda so'zning semantik ko'lamini kalykalash, turli semalarini tavsifiy izohlash va har bir semani misol kontekstida dalillashga ahamiyat beriladi.

Izohli lug'atlardagi barcha talqinlarning muvaffaqiyatli jihatlarini umumlashtirib aspektual ma'no ifodalovchi so'zlar izoh maqolasini takomillashtirish mumkin. Masalan, izohning bayon uslubi Oksford izohli lug'atiga xos rasmiy nutqiy doirada shakllantirilishi lozim. Misollar rangba-rangligi, ualrning turli funksional jihatlarini qamrashi Kembridj lug'ati andozasiga muvofiq bo'lishi kerak. So'zni ma'nolarga ajratishda faqat lug'aviy semalarga tayanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, so'z etimologiyasi, qo'llanish chastotasi, uslubi doirasi va sinonimlari kabi qo'shimcha ma'lumotlar lug'atni qomusiy lingvistik manbaga aylantiradi. Masalan, ingliz izohli lug'atlarida aspektual ma'noni ifodalovchi ravish va fe'llar ayni semaga tayangan holda deskriptiv tamoyilda talqin qilinishi joiz.

Munozara. Normativ lug'at deb ta'riflangan Oksford izohli lug'atida aspekt ma'nosiga ega ravishlar quyidagicha talqin qilinadi:

GRADUALLY adverb /'grædʒuəli/ /'grædʒuəli/ slowly, over a long period of time to gradually increase/decrease *The weather gradually improved. Gradually, the children began to understand. Women have gradually become more involved in the decision-making process.*¹⁹

So'z izohi ma'nodosh va qisman tavsifga asoslanadi. Uzoq vaqt mobaynida jumlasini so'zdagi aspektual tarzning davomiyligiga ishora qiladi hamda misollar

¹⁹ <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

harakat-holatdagi ushbu sur'atni tasdiqlaydi. Ushbu ravishning antonimi izohi esa quyidagicha:

SUDDENLY adverb /'sʌdənli/ /'sʌdənli/ quickly and unexpectedly *I suddenly realized what I had to do. I suddenly became aware of just how late it was. She took ill and died suddenly at her home. You might suddenly find yourself in dire need of cash. A pedestrian suddenly appeared in front of the taxi. I tried to sit up but I suddenly felt dizzy.*²⁰

Soʻz izohi faqat sinonimlar bilan berilgan. Natijada bu soʻz maʼnosini ochib berish vazifasi misollarga yuklatilgan. Misollar uning ogʻzaki va yozma norasmiy nutqiy doiraga tegishlilikini ochib beradi. Bu oʻrinda soʻz maʼnosi izohiga tavsifiy yondashib *in a short period*– qisqa muddat ichida yoxud *within a bling of eye*– koʻz ochib yumguncha jumllalarini qoʻshib jarayonning jadal aspektual surʼatini batafsil yoritish talab etiladi. Maslan, xuddi shu Oksford izohli lugʻatida soʻz izohiga tavsifiy yondashish samarali natija bergan:

EXPONENTIALLY adverb /,ekspə'nenʃəli/ /,ekspə'nenʃəli/ (mathematics) in a way that is connected with or shown by an exponent These time lags are exponentially distributed. Questions about grammar and vocabulary? Find the answers with Practical English Usage online, your indispensable guide to problems in English. (formal) in a way that becomes faster and faster to increase exponentially²¹

Izoh soʻngida harakatning tezlashish surʼati haqida soʻz boradi va ushbu aspektual maʼnoning nutqiy voqelanishini koʻrsatuvchi misol etishmaydi. Ushbu lugʻat tilning qoʻllanish meʼyoriga urgʻu bergani bois soʻzlarning qaysi kontekstda qoʻllanishi mumkinligini alohida taʼkidlaydi.

Kembridj izohli lugʻatida esa aspektual maʼno kasb etuvchi ravishlar izohiga tavsifiy yondashiladi va ushbu yoʻnalishda soʻzlar maʼnosi batafsil qamrab olingan:

IMMEDIATELY adverb UK /ɪ'miːdi.ət.li/ US /ɪ'miːdi.ət.li/ A2 now or without waiting or thinking: *We really ought to leave immediately. The purpose of the meeting wasn't immediately obvious. Please report to the office immediately. now I need you to get me that report now. right now:* You put that back right now. **right away:** If you're going to call the doctor, you'd better do it right away – the office is closing in two minutes. **straight away:** I called them back straight away²².

Lugʻatda *darhol* ravishining izohi “kutmasdan, “oʻylamasdan (harakatlanish)” deb shakllantirilgan. Ilova sifatida keltirilgan soʻz sinonimlari ularning nutqda qoʻllanishini aks ettiruvchi misollar bilan mustahkamlangan. Bu esa Kembridj izohli lugʻatini deskriptiv leksikografiya namunasi oʻlaroq eʼtirof etishga asos boʻladi.

ALREADY adverb UK /ɔ:l'red.i/ US /ɑ:l'red.i/ before the present time: *I asked him to come to the exhibition but he'd already seen it. The concert had already begun by the time we arrived. I've already told him. As I have already mentioned, I doubt that*

²⁰ <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

²¹ <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

²² <https://dictionary.cambridge.org/>

*we will be able to raise all the money we need. earlier than the time expected: Are you buying Christmas cards already? It's only September! I've only eaten one course and I'm already full*²³.

Kembrij lugʻatida allaqachon ravishi izohi maʼnoni ikkiga ajratgan holda tavsifiy yoʻnalishda shakllantirilgan. Birinchi semada harakat yoki holatning hozirgi zamonga qadar tugallangani (sof aspektual maʼnosi) izohlanadi. Ikkinchi sema esa harakat yoki holatning kutilganidan oldin yuz berib tugallanganini anglatadi. Bu semadan bilvosita muayyan harakatning soniyaviy surʼati, yaʼni bir onda sodir boʻlib tugallangani ham tegishli kontekstdan tushunilishi mumkin. Ingliz tilining izohli lugʻatlari juda koʻp. Ular sirasida eng yirik va ommaboplari internet platformasida joylashgan.

FALL verb UK /fɔ:l/ US /fɑ:l/ fell | fallen

1. a) **A1 to drop down onto horizontal surface without intention** *The rain was **falling** steadily; They were injured by falling rocks; **fall** + adv./prep. Several of the books had fallen onto the floor.*

b) **A1 to decrease in quality, rate, amount, number or strength** *The temperature **fell sharply** in the night. **Falling birth rates** could have an impact on future economic growth. **Fall+by** The car sales rate have **fallen by** 30 per cent.*

c) **A1 to change slowly state of being – to pass into a particular state steadily** *She **fell asleep** during long-lasting staff meeting; The room had **fallen silent**.*

d) **C1 to be finally after a battle** *The party **fell** after loosing majority of voices during election. Temurid dynasty **fell to** Shaibonikhon's new dynasty.*

e) **C1 to hang down loosely and remain in that position** *The white curtain **fell down** to floor.*

2. **A1 a name of a season between hot summer and cold winter.** In Central Asia temperatures decrease typically from the 15th day of fall season.

Yuqoridagi namunaviy lugʻat maqolada soʻz maʼnolari toʻgʻri ajratilganiga guvoh boʻlamiz. Odatiy ravishda soʻzning har bir kontekstual semasi atash maʼnosidek ajratilmagan. Ikki mustaqil atash maʼnosi ostida turli kontekstual maʼnoalrni umumlashtirish tamoyilidan foydalanilgan. Shu bilan birga har bir kontekstual semada feʼlining kechish surʼati, yaʼni aspektual maʼnosi farqlanishi ochib berilgan. Birinchi maʼnoda harakatning kutilmaganda sodir boʻlishiga urgʻu beriladi. Misollar hay ayni kutilmaganlik maʼnosini tasvirlaydi. Ikkinchi kontekstual maʼnoda harakatning bajarilish surʼati haqida maʼlumot berilmaydi – raqamlar va koʻrsatkichlarga nisbatan to fall harakatining suʼrat maʼnosi neytrallashib jarayon tarzini **sharply** kabi ravishlar dalillashi ochib berilgan. Uchinchi kontekstual semada to fall feʼlining ohistalik, bosqichma-bosqich yuz berish surʼati ravishlar koʻmagida izohlangan. Toʻrtinchi kontekstual semada harakatning uzoq kutilganligi va tugallanganligi semasiga izohdagi “finally” soʻzi bilan ishora qilinadi. Soʻngi kontekstual semada jarayon surʼati maʼnosi

²³ <https://dictionary.cambridge.org/>

yaqqol koʻzga tashlanmaydi. Izoh soʻngidagi shu koʻrinishda muallaq qolish jumlasidan jarayonning davomiylik aspekt maʼnosi anglashiladi. Ikki raqami bilan ajratilgan izoh esa soʻzning mustaqil atash maʼnosini talqin qiladi. Lugʻat maqolada boshqa manbalardan farqli oʻlaroq soʻzning umumiy qoʻllanish chastotasiga bitta koʻrsatkich qoʻyilmasdan, har bir alohida kontekstual sema qoʻllanish darajasiga ishora qilinadi. Bu tamoyil Kembridj izohli lugʻatida kuzatiladi. Izohlarning barchasi tavsifiy xarakterga ega – jarayon surʼati semasi izoh yoki misollarda, yoxud har ikkisida birdan aks etadi. Surʼat semasiga koʻra neytral boʻlgan maʼno turlari izohida tarz maʼnosiga ega ravishlar qoʻllanilmasligi shu neytrallikka ishora qiladi.

Lugʻatda soʻz talqiniga standart yondashish ushbu manbaning tizmiyligi va struktur yaxlitligini taʼminlaydi. Yondashuvdagi tizmiylik ikki maʼnosi oʻxshash leksemalar izohida ularning oʻzaro farqini ham ochib berishi lozim. Masalan, yuqoridagi feʼlga qisman maʼnodish boʻlgan *to collapse* feʼlini quyidagicha talqin qilish mumkin.

COLLAPSE verb UK /kəˈlæps/ US /kəˈlæ/

1) **B1 to ruin suddenly due to external pressure or lacking a support strength:** *The table **collapsed** under eight giant watermelons; Many historical buildings **had collapsed** under World War bombs.*

a) **To fall down because of weakness or unexpected shock.** *His aunt **collapsed** from sudden pain in chest.*

2) **C1 noun an unexpected break down and failure of machine, system or a process.** *Many small businesses are facing **a collapse** after pandemic crisis; Development of artificial industry caused **collapse** of many IT companies.*

Ushbu soʻz talqinida uning maʼnodoshidan yaqqol farqlari ajratib koʻrsatilgan. Masalan soʻzning ilk atash maʼnosi tarkibi ikki kontekstual semaga ajratiladi. Birinchi turda soʻzning obyektga nisbatan qoʻllanishini koʻramiz. Izohda *qulamoq* harakatining tez surʼatda roʻy berishiga ravish *suddenly (qoʻqqisdan)* leksemasi vositasida ochib berilgan. Ikkinchi sema izohida soʻzning insonga nisbatan qoʻllanishini koʻramiz. Bu harakatning kutilmaganlik, oniylik kabi aspektual maʼnolariga izoh tarkibidagi unexpectedly (kutilmaganda) ravishi vositasida ishora qilinadi. Soʻzning ot shaklidagi izohida ham ayni aspektual maʼno ifodalovchisi hamrohlik qiladi. Misollar va izohlar yiqilmoq hamda qulamoq feʼlining semantik farqini yaqqol ochib beradi. Misollardan qulamoq feʼlining tugallanganlik semasi yiqilmoqdan koʻra aniq anglashiladi. *To collapse* harakatning shitob bilan yakulanishi va koʻtarilishning deyarli imkonsizligiga ishora qiladi. *To fall* soʻzida esa bunday emotiv-uslubiy tasvir semasi yaqqol koʻzga tashlanmaydi. Shu sababdan *to fall* soʻzining qoʻllanish doirasi maʼnodoshidan koʻra kengroq koʻlamda.

Bu ikki soʻzning aspektual maʼnosi bevosita semik tarkib elementi. Biroq bir qarashda aspekt maʼnosi yaqqol koʻzga tashlanmaydigan leksemalar mavjud. Ularning leksikografik talqinida harakat-holatning surʼatiga ishora qilib leksema haqidagi

tasavvurni kengaytirish mumkin. Masalan, to dance fe'lining aspektual semasini izohli lug'at maqolada quyidagicha ochib beramiz:

DANCE verb UK /da:ns/ US /dæns/

- 1) **B1 to move the body and feet continuously under a certain rhythm:** *We danced all the evening to Spanish songs; I saw you dancing with your cousin in the wedding party; The leaves were dancing in the wind breeze.*
- 2) **B1 Noun systematic series of movements performed under musical background.** *I have always dreamt about a dance with the most gorgeous lady in the world. A slow dance is typical for evening ceremonies.*

So'zning barcha ma'nolari izohi davomiylik, uzluksizlik semalariga ravishlar vositasida ishora qiladi. Misollardagi all evening va davomiy zamon shaklining qo'llanishi ushbu aspektual ma'noni yanada kuchaytirdi.

Fe'ning aspektual semalari turli predloglar bilan birikuvda namoyon bo'lishi holatlari ham mavjud. Bunday holatda imkon qadar barcha predlog birikmalarni qamrab ularning farqini aynan aspekt ma'nosi vositasida ochib berish shart. Masalan:

LOOK verb UK /lʊk/ US /lʊk/

- 1) **to direct your eyes in order to see:** *Look! Such a beautiful garden! They looked at the photo and recognized the place.*
- 2) **Look+for to try to find something, to search.** *Sorry could you help me, I am looking for my purse.*
- 3) **Look+after to take care of or be in charge of someone or something.** *If you look after your clothes they last a lot longer.*
- 4) **Look+forward to expect and be pleased and excited about something that is going to happen:** *She was looking forward to seeing the grandchildren again*

Izohlarda so'zning qaramoq, qidirmoq, parvarishlamoq va kutmoq kabi bir-biridan tubdan farq qiluvchi semalari talqin qilinadi. Ularda davomiylik, kutilganlik, uzluksizlik kabi ma'nolar misollardan anglashiladi. Umuman olganda ingliz tilidagi izohli lug'atlarda fe'l talqinini aynan aspekt ma'nosiga tayanib tizimlashtirish imkoni mavjud. Bunda aspekt ma'nolari aniq belgilanib uning izohdagi talqini uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan ravishlar ko'lamini aniqlashtirish lozim. Izohlarda imkon qadar shu aniq belgilangan leksemalardan chekinmaslik natijasida fe'l talqini bir tizim sifatida shakllanib, o'zaro sinonim va variantdosh bo'lgan leksemalarni aynan jarayon ma'nosidagi farqlanishga ko'ra ajratish imkoni tug'iladi.

Xulosa. Ingliz tili izohli lug'atlarida fe'l tarkibidagi aspekt ma'nosini quyidagi so'zlar bilan tizimli talqin qilishni tavsiya etish mumkin:

1-jadval. Fe'l aspektini izohlashda qo'llanadigan standart vositalar

Continuousness	For a while, during, for certain period of time
Momentousness	Quickly, fast, speedily, rapidly, swiftly, briskly, at speed
Repeatedness	Over and over, repeatedly, frequently, time after time, often
Constantness:	Constantly, all the time, persistently, without a break
Completeness	Finally, by the end, eventually, ultimately, completely, fully
Uncompleteness	Intermittently, incomplete, uncompleted, unexecuted
Expectation	Long awaited, awaited, expected for a while

Anglashilganidek, fe'l va ravishlarni xatti-harakatning jarayon ma'nosiga tayanib izohlash mumkin. Bunda so'zlarning davomiyligi, tugallanganligi, muntazamligi izoh va misollarda aks etadi. Bunday yondashuv tavsifiy izoh bo'lib uni ba'zi o'rinlarda so'z ma'nodoshi bilan to'ldirish mumkin. Jarayon ma'no turlarini ifodalash maqsadida miqdor-daraja, payt ravishlaridan foydalanish o'rinli yechim bo'ladi.

Aspektual maydonning ma'no tizimi quyi pog'onada, ya'ni harakatning bajarilish sur'ati semasini ifodalovchi xususiy grammatik ma'nolar borasida ochiq tizim ekanligi yuqoridagi fasllarda asoslandi. Demak, bu guruhda ma'no turlari cheksiz, matn kontekstiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun xususiy aspektual grammatik ma'nolarni ochib beradigan izoh vositalarini qat'iy tizimlashtirish imkonsiz. Yuqoridagi jadvalda asosiy, ko'p uchraydigan aspekt ma'nolari tanlab olindi. Ularni izohlash uchun uslubiy jihatdan neytral birliklar namuna qilib berildi. Leksemalar ifodalaydigan ma'nolarni misollarda zamon, modal fe'l, fe'l+predlog birikuvi hamda so'z birikmalari vositasida yanada kuchaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allan K. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell Publishers, 2006. – 154 p.
2. Arnold I. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka – M.: Literatura na inostrannykh yazykakh, 1959
3. Bybee J., Perkins R., Paoliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect a. modality in the lang. of the world. – Chicago: Univ. of Chicago press, 1994. – XXII, 398 p.
4. Craft W. Verbs aspect and causal structure – Oxford Universty Press; 2012, 33p.
5. Dahl Ö. – Tense and aspect systems – Oxford: 1985.
6. Hamraeva Y. O'zbek tilining ideografik lug'atini tuzish tamoyillari (harakat va holat tushunchasini ifodalovchi so'zlar misolida): Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2010. – 48 b.
7. <https://dictionary.cambridge.org/>
8. <https://www.merriam-webster.com/>
9. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>
10. Madrahimov I. O'zbek tilida leksemalarning [IM] asosidagi tasnifi // O'zbek tili va adabiyoti. 2002. № 6. – B. 22-24.
11. Mengliev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. dokt... diss. – Toshkent, 2001. – 248 b.

MICROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINOLOGIYASINING LINGVOMADANIY TALQINI

Maxammadov Bobir,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Microsoft Windows operatsion tizimi terminologiyasi lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilidagi dasturiy atamalarining o'zbek tiliga o'zlashtirilishi, kalkalanishi va moslashuvi jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayonlarning til egasi madaniyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada Windows interfeysidagi atamalar (oyna, ish stoli, papka, savatcha, boshqaruv paneli kabi) misolida terminologik birliklarning lingvomadaniy mazmuni, metaforik asoslari va lokalizatsiya muammolari yoritiladi. Tadqiqot natijalari terminlarni standartlashtirish va milliy terminologiyani rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyat, terminologiya, operatsion tizim, Microsoft Windows, lokalizatsiya, kalka, o'zlashma, metafora, til va madaniyat.*

Abstract. This article analyses the terminology of the Microsoft Windows operating system from a linguocultural perspective. The study examines the processes of borrowing, calquing and adaptation of English software terms into the Uzbek language, as well as the influence of these processes on the culture of the native speaker. Using examples of interface terms (such as window, desktop, folder, recycle bin and control panel), the article reveals the linguocultural content of terminological units, their metaphorical foundations and localization problems. The findings conclude with practical recommendations for standardizing terms and developing national terminology.

Keywords: *linguoculture, terminology, operating system, Microsoft Windows, localization, calque, borrowing, metaphor, language and culture.*

Аннотация. В данной статье терминология операционной системы Microsoft Windows анализируется с позиций лингвокультурологического подхода. В исследовании рассматриваются процессы заимствования, калькирования и адаптации англоязычных программных терминов в узбекском языке, а также влияние этих процессов на культуру носителя языка. На примере терминов интерфейса (таких как окно, рабочий стол, папка, корзина, панель управления) раскрываются лингвокультурное содержание терминологических единиц, их метафорические основы и проблемы локализации. Результаты исследования завершаются практическими рекомендациями по стандартизации терминов и развитию национальной терминологии.

Ключевые слова: *лингвокультурология, терминология, операционная система, Microsoft Windows, локализация, калька, заимствование, метафора, язык и культура.*

KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalar tilning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kompyuter terminologiyasi tilning eng tez o'zgaruvchan va eng

faol to'ldiriluvchi qatlamlaridan biriga aylandi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi lingvomadaniyat fani aynan shunday qatlamlarni tahlil qilishda samarali metodologik asos beradi²⁴. V. A. Maslovaning ta'kidlashicha, til madaniyatning oynasi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab turgan reallik, balki xalqning mentaliteti, turmush tarzi va qadriyatlari ham aks etadi.

Microsoft Windows operatsion tizimi dunyodagi eng keng tarqalgan shaxsiy kompyuter platformasi sifatida²⁵ o'zbek foydalanuvchisining kundalik raqamli muhitini shakllantiradi. Uning interfeysidagi atamalar — «oyna» (window), «ish stoli» (desktop), «papka» (folder), «savatcha» (recycle bin) — millionlab foydalanuvchilar ongiga singib bormoqda. Shu sababli ushbu atamalarning lingvomadaniy talqini nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, til va madaniyatlararo muloqot sharoitida²⁶ texnik atamalarning o'zlashtirilishi va moslashtirilishi milliy tilning leksik tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Lingvomadaniyat (linguoculturology) fanining asoschilaridan biri V. V. Vorobyovning fikricha²⁷, lingvomadaniy birlik (lingvokulturema) til belgisi va undagi madaniy ma'noning birligi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu nuqtai nazar kompyuter atamalarini nafaqat texnik belgilar, balki muayyan madaniy tasavvurlarning ifodachisi sifatida o'rganishga imkon beradi.

D. Crystal raqamli muhitda tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib²⁸, internet va dasturiy ta'minot tili (Netspeak, software language) zamonaviy tilning alohida funksional uslubiga aylanganini ta'kidlaydi. Shu ma'noda Windows interfeysi tili — milliy tilning yangi, faol shakllanayotgan qatlamidir.

Ushbu maqolaning **maqsadi** — Microsoft Windows terminologiyasini lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat. Bunga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: (1) Windows atamalarining o'zbek tilida hosil bo'lish usullarini aniqlash; (2) atamalarning metaforik va madaniy asoslarini ochib berish; (3) lokalizatsiya va terminologik variantlilik muammolarini tahlil qilish; (4) milliy IT-terminologiyani standartlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida Microsoft Windows operatsion tizimining (Windows 10 va Windows 11 versiyalari) ingliz, o'zbek va rus tilidagi rasmiy interfeyslaridan to'plangan 120 ga yaqin terminologik birlik tanlab olindi. Manbalar sifatida Microsoft

²⁴Маслова В. А. Лингвокультурология : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М. : Издательский центр «Академия», 2001. — С. 28.

²⁵Worldwide Desktop Operating System Market Share [Электронный ресурс] // StatCounter Global Stats. — Режим доступа: <https://gs.statcounter.com> (дата обращения: 10.06.2026).

²⁶Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М. : Слово/Slovo, 2000. — С. 47–52.

²⁷Воробьев В. В. Лингвокультурология : монография. — М. : РУДН, 2008. — С. 36–37.

²⁸Crystal D. Language and the Internet. — 2nd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2006. — P. 70–78.

kompaniyasining rasmiy lokalizatsiya resurslari, atamalar lugʻatlari va foydalanuvchi qoʻllanmalaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanildi: **tavsifiy metod** — atamalarni tasniflash va ularning maʼnolarini izohlash uchun; **qiyosiy-chogʻishtirma metod** — ingliz, oʻzbek va rus tilidagi terminologik birliklarni qiyoslash uchun; **komponent tahlili** — atamalar semantik tuzilishini ochib berish uchun; va **lingvomadaniy tahlil** — terminologik birliklarning madaniy konnotatsiyalarini aniqlash uchun²⁹.

Termin tushunchasi V. M. Leychik va H. Bussmannning terminologik konsepsiyalariga³⁰ tayanib, muayyan kasbiy soha tushunchasini ifodalovchi maxsus leksik birlik sifatida talqin qilindi. Atamalar uch guruhga ajratildi: toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashmalar, kalkalar (soʻzma-soʻz tarjima) va milliy tilning oʻz resurslari asosida yaratilgan ekvivalentlar.

Atamalarning metaforik tabiatini tahlil qilishda J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga³¹ tayanildi. Ushbu nazariyaga koʻra, metafora shunchaki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi boʻlib, mavhum tushunchalarni konkret tajriba orqali idrok etishga xizmat qiladi. Kompyuter interfeysidagi «ish stoli» yoki «papka» kabi atamalar aynan shu konseptual metafora namunalaridir.

Tahlil bosqichlari quyidagicha tashkil etildi: birinchi bosqichda atamalar uch tilning rasmiy manbalaridan yigʻildi va dastlabki roʻyxat tuzildi; ikkinchi bosqichda ular hosil boʻlish usuli boʻyicha tasniflandi; uchinchi bosqichda har bir atamaning semantik va madaniy tarkibiy qismlari komponent tahlili orqali ajratildi³²; toʻrtinchi bosqichda esa terminologik variantlilik va lokalizatsiya muammolari aniqlandi. Bunday koʻp bosqichli yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini taʼminlaydi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida Windows terminologiyasi oʻzbek tiliga uch asosiy yoʻl bilan oʻtishi aniqlandi³³. Birinchidan, **toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashmalar**: «fayl» (file), «kursor» (cursor), «brauzer» (browser), «drayver» (driver). Bu atamalar fonetik moslashuv orqali tilga kirgan va xalqaro xususiyatga ega. Ikkinchidan, **kalkalar**: «ish stoli» (desktop ← desk + top), «boshqaruv paneli» (control panel), «qattiq disk» (hard disk). Uchinchidan, **semantik oʻzlashtirish**, yaʼni mavjud oʻzbekcha soʻzga yangi texnik maʼno berish: «oyna», «papka», «savatcha», «sichqoncha» (mouse).

²⁹Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — 4-е изд. — М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. — С. 31–34.

³⁰Hadumod Bussmann. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. — London ; New York : Routledge, 1996. — P. 480.

³¹Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — P. 14–21.

³²Esperli (Begmatov) E. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. — Toshkent : Fan, 1985. — B. 88–94.

³³Микробиохисоблаш ва ахборот технологиялари соҳасида русча-ўзбекча атамалар луғати / тузувчилар жамоаси. — Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. — Б. 12–15.

To'plangan 120 ta terminologik birlik tahlil qilinganda, ularning taxminan 45 foizi to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar, 35 foizi kalkalar va 20 foizi semantik o'zlashtirish (milliy tilning o'z resurslari) asosida hosil bo'lganligi aniqlandi. Bu nisbat o'zbek IT-terminologiyasida xalqaro o'zlashmalarning ustunligini, ayni paytda milliy ekvivalentlar yaratishga bo'lgan intilishni ham ko'rsatadi. Ayniqsa, dasturning markaziy, ko'p ishlatiladigan tushunchalari (oyna, ish stoli, papka) uchun milliy yoki yarim-milliy ekvivalentlar tanlangani diqqatga sazovordir, chunki bu atamalar foydalanuvchining kundalik tajribasiga eng yaqin turadi.

TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING METAFORIK ASOSLARI

Windows interfeysi metaforaga asoslangan: butun tizim «ish stoli» (desktop) metaforasi atrofida qurilgan, bunda kompyuter ekrani haqiqiy ish stolining raqamli aksi sifatida tasvirlanadi. «Papka» (folder), «hujjat» (document), «savatcha» (recycle bin) kabi atamalar ofis muhitidan olingan. Bu metaforik tizim foydalanuvchining oldindan mavjud bilimlariga tayanib, yangi texnologiyani o'zlashtirishni osonlashtiradi³⁴. O'zbek tiliga o'tishda bu metaforalar asosan saqlanib qoladi, biroq ba'zan madaniy farqlar yuzaga keladi: masalan, ingliz tilidagi «recycle bin» (qayta ishlash idishi) o'zbek tilida «savatcha» (kichik savat) sifatida moslashtirilgan, bu esa boshqa madaniy obrazga tayanadi.

Konseptual metafora nazariyasi nuqtai nazaridan, Windows interfeysida bir nechta asosiy metaforik modellarni ajratish mumkin. «KOMPYUTER — bu ISH JOYI» modeli «ish stoli», «papka», «hujjat» atamalarini birlashtiradi. «MA'LUMOT — bu JISMONIY OBYEKT» modeli «faylni ko'chirish», «papkaga solish», «savatga tashlash» kabi iboralarda namoyon bo'ladi. «EKTRAN — bu DERAZA» metaforasi esa «oina» (window) atamasining markaziy o'rnini belgilaydi: foydalanuvchi go'yo har bir oyna orqali alohida vazifaga «qaraydi». Bu metaforalar nafaqat atamalarni, balki butun foydalanuvchi tajribasini tashkil etadi.

LOKALIZATSIYA VA VARIANTLILIK MUAMMOLARI

Tadqiqot terminologik variantlilikning yuqori darajasini ko'rsatdi. Bir tushuncha bir nechta ekvivalent bilan ifodalanishi mumkin: «download» — «yuklab olish» / «ko'chirib olish» / «yuklash»; «settings» — «sozlamalar» / «moslamalar» / «parametrlar». Microsoft kompaniyasining lokalizatsiya qo'llanmalariga³⁵ muvofiq, atamalar izchilligi (consistency) muhim talab hisoblanadi, biroq o'zbek tilidagi me'yorlashtirish jarayoni hali yakunlanmagan. Quyidagi jadvalda ba'zi tipik atamalarning uch tildagi muqobillari keltirilgan.

³⁴Кронгауз М. А. Русский язык на грани нервного срыва. — М. : Знак ; Языки славянских культур, 2008. — С. 64–70.

³⁵Microsoft Language Portal: Terminology and Localization Guidelines [Electronic resource] // Microsoft. — URL: <https://www.microsoft.com/en-us/language> (date of access: 12.06.2026).

English	O'zbekcha	Русский	Usul / Method
Window	Oyna	Окно	Kalka / semantik
Desktop	Ish stoli	Рабочий стол	Kalka
Folder	Papka	Папка	O'zlashma
Recycle Bin	Savatcha	Корзина	Semantik moslashuv
File	Fayl	Файл	O'zlashma
Settings	Sozlamalar	Параметры	Milliy ekvivalent
Control Panel	Boshqaruv paneli	Панель управления	Kalka

1-jadval. Windows atamalarining uch tildagi muqobillari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'pgina hollarda o'zbek va rus tilidagi atamalar bir xil hosil bo'lish usuliga ega, bu esa o'zbek IT-terminologiyasi shakllanishida rus tilining vositachilik roli muhim bo'lganini tasdiqlaydi³⁶. Masalan, «control panel → панель управления → boshqaruv paneli» zanjirida ikki bosqichli kalkalanish kuzatiladi. Ayni paytda «settings» tushunchasi uchun o'zbek tilida «sozlamalar» so'zining tanlanishi (rus tilidagi «параметры»dan farqli) milliy so'z yasash imkoniyatlaridan foydalanishga intilishni ko'rsatadi.

ATAMALARNING LINGVOMADANIY KONNOTATSIYALARI

Terminologik birliklarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, hatto texnik atamalar ham muayyan madaniy konnotatsiyalarni saqlaydi. Masalan, «oina» atamasi o'zbek madaniyatida nafaqat «window» ekvivalenti, balki an'anaviy uy-ro'zg'or, yorug'lik va ochiqlik tasavvurlari bilan bog'liq. «Sichqoncha» (mouse) atamasi esa hayvon nomining texnik qurilmaga ko'chirilishi natijasida hosil bo'lib, foydalanuvchida yengil, ijobiy va kulgili assotsiatsiya uyg'otadi. Bunday konnotatsiyalar atamaning tilga singishini osonlashtiradi va uni «o'ziniki»ga aylantiradi.

Shu bilan birga, ba'zi atamalar madaniy jihatdan «shaffof» bo'lmasligi mumkin. «Drayver», «brauzer», «interfeys» kabi to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar o'zbek foydalanuvchisi uchun ichki ma'noga ega emas — ular faqat shartli belgilar sifatida o'zlashtiriladi. Bu hol terminologik o'zlashmalarning ikki turini ajratishga imkon beradi: madaniy jihatdan «motivlangan» (oina, papka, savatcha) va «motivlanmagan»

³⁶Цвиллинг М. Я. Локализация программного обеспечения как переводческая проблема // Мосты. Журнал переводчиков. — 2012. — № 2 (34). — С. 18–23.

(drayver, brauzer) atamalar. Birinchi tur foydalanuvchi tomonidan tezroq va chuqurroq o'zlashtiriladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Microsoft Windows terminologiyasining o'zbek tiliga o'tishi shunchaki leksik o'zlashtirish emas, balki chuqur lingvomadaniy jarayondir. A. A. Reformatskiy ta'kidlaganidek, termin tilning maxsus tizimida yashaydi va shu tizimning qonuniyatlariga bo'ysunadi³⁷. O'zbek tilida texnik atamalarning o'zlashtirilishi ko'pincha rus tili orqali vositachilik qilingan, bu esa «download → загрузка → yuklash» kabi ikki bosqichli kalkalanishga olib kelgan.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan eng qiziqarli holat — metaforik atamalarning madaniy moslashuvidir. «Savatcha» misoli S. V. Grinyov-Grinevich ta'kidlagan terminologik moslashuvning³⁸ yorqin namunasi: chet tilidagi tushuncha o'zbek madaniyatiga yaqin obraz orqali ifodalangan. Bu hol terminning faqat belgi emas, balki madaniy kod tashuvchisi ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, terminologik variantlilik (masalan, «sozlamalar» va «parametrlar») me'yorlashtirish jarayonining tugallanmaganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari o'zbek tilidagi IT-terminologiyasini standartlashtirish, lokalizatsiya sifatini oshirish va texnik tarjima bo'yicha o'quv materiallarini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovi sifatida tahlil faqat Windows operatsion tizimi interfeysi bilan chegaralanganini, kelajakda boshqa platformalar (macOS, Linux, mobil tizimlar) terminologiyasini ham qamrab oluvchi kengroq tadqiqotlar zarurligini qayd etish lozim.

Olingan natijalar lingvomadaniyat va terminologiya fanlari uchun ham nazariy ahamiyatga ega. Ular texnik terminologiyani sof texnik hodisa sifatida emas, balki til va madaniyatning o'zaro ta'siri kontekstida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Atamalarni «motivlangan» va «motivlanmagan» turlarga ajratish esa milliy ekvivalentlar yaratishda qaysi tushunchalar uchun o'z resurslardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuv kelgusida boshqa sohalar — tibbiyot, iqtisodiyot, huquq terminologiyasini o'rganishda ham qo'llanilishi mumkin.

XULOSA.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi. Birinchidan, Microsoft Windows operatsion tizimi terminologiyasi o'zbek tiliga uch asosiy usulda — to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, kalkalash va semantik o'zlashtirish orqali o'tadi. Ikkinchidan, atamalarning ko'pchiligi metaforik asosga ega bo'lib, ular foydalanuvchining madaniy tajribasiga tayanadi va tilga o'tishda muayyan madaniy moslashuvga uchraydi.

³⁷Реформатский А. А. Введение в языковедение / под ред. В. А. Виноградова. — М. : Аспект Пресс, 1996. — С. 115.

³⁸Гринёв-Гриневич С. В. Терминоведение : учеб. пособие. — М. : Академия, 2008. — С. 105–108.

Uchinchidan, o'zbek tilidagi IT-terminologiya hozircha yuqori darajadagi variantlilik bilan ajralib turadi, bu esa me'yorlashtirish va standartlashtirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. To'rtinchidan, terminologik birliklar nafaqat texnik tushunchalarni ifodalovchi belgilar, balki til va madaniyatning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu yondashuvni boshqa raqamli platformalar terminologiyasiga ham tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В. А. Лингвокультурология : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М. : Издательский центр «Академия», 2001. — 208 с.
2. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М. : Слово/Slovo, 2000. — 624 с.
3. Воробьёв В. В. Лингвокультурология : монография. — М. : РУДН, 2008. — 336 с.
4. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — 4-е изд. — М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. — 256 с.
5. Гринёв-Гриневиц С. В. Терминоведение : учеб. пособие. — М. : Академия, 2008. — 304 с.
6. Реформатский А. А. Введение в языковедение / под ред. В. А. Виноградова. — М. : Аспект Пресс, 1996. — 536 с.
7. Кронгауз М. А. Русский язык на грани нервного срыва. — М. : Знак ; Языки славянских культур, 2008. — 232 с.
8. Цвиллинг М. Я. Локализация программного обеспечения как переводческая проблема // Мосты. Журнал переводчиков. — 2012. — № 2 (34). — С. 18–23.
9. Бегматов Э. А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. — Тошкент : Фан, 1985. — 200 б.
10. Микробιοхисоблаш ва ахборот технологиялари соҳасида русча-ўзбекча атамалар луғати / тузувчилар жамоаси. — Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. — 240 б.
11. Bussmann H. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. — London ; New York : Routledge, 1996. — 530 p.
12. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
13. Crystal D. Language and the Internet. — 2nd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2006. — 304 p.

14. Microsoft Language Portal: Terminology and Localization Guidelines [Electronic resource] // Microsoft. — URL: <https://www.microsoft.com/en-us/language> (date of access: 12.06.2026).

15. Worldwide Desktop Operating System Market Share [Электронный ресурс] // StatCounter Global Stats. — Режим доступа: <https://gs.statcounter.com> (дата обращения: 10.06.2026).



MANSAB-LAVOZIM NOMI ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI ASOSLARI



Bobojonova Dilnoza

*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarida uchraydigan mansab-lavozim nomlarining lingvistik asoslari tadqiq etiladi. Xalq maqollari tarkibida qo'llangan podsho, sulton, amir, bek, vazir, qozi, hakim kabi mansab nomlarining semantik mazmuni, ularning xalq tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarni aks ettirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mansab-lavozim nomlari asosida shakllangan maqollarning xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlar tizimini ifodalovchi muhim lingvokulturologik birliklar ekanligi yoritiladi. Shuningdek, mazkur maqollarda hokimiyat, boshqaruv, adolat, mas'uliyat va ijtimoiy mavqe kabi tushunchalarning aks etish usullari aniqlanadi. Natijada mansab-lavozim nomlari ishtirokidagi maqollar o'zbek xalqining milliy dunyoqarashi va madaniy tafakkurini o'rganishda muhim manba ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: xalq maqollari, podsho, sulton, amir, bek, semantik tahlil, milliy qadriyatlar, xalq tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, maqol semantikasi, tarixiy-madaniy meros.

Аннотация. В данной статье исследуются лингвистические основы названий должностей и титулов, встречающихся в узбекских народных пословицах. Анализируются семантическое содержание таких наименований, как подшах, султан, эмир, бек, визирь, казий, хахим, а также их роль в отражении народного мировоззрения и общественных отношений. В ходе исследования показано, что пословицы, сформированные на основе названий должностей и титулов, являются важными лингвокультурологическими единицами, отражающими историческую память народа, его социальный опыт и систему ценностей. Кроме того, выявляются способы репрезентации в данных пословицах таких понятий, как власть, управление, справедливость, ответственность и социальный статус. В результате обосновывается, что пословицы с компонентами, обозначающими должности и титулы, представляют собой важный источник для изучения национального мировоззрения и культурного мышления узбекского народа.

Ключевые слова: народные пословицы, подшах, султан, эмир, бек, семантический анализ, национальные ценности, народное мышление, общественные отношения, семантика пословиц, историко-культурное наследие.

Abstract. This article examines the linguistic foundations of titles and official position names occurring in Uzbek folk proverbs. The semantic meanings of such titles as podshah, sultan, amir, bek, vizier, qazi, and hakim, as well as their role in reflecting folk wisdom and social relations, are analyzed. The study demonstrates that proverbs formed on the basis of titles and official position names serve as important linguocultural units that embody the historical memory, social experience, and value system of the Uzbek people. Furthermore, the article identifies the ways in which concepts such as power, governance, justice, responsibility, and social status are represented in these proverbs. The findings confirm that proverbs containing titles and official position names constitute a significant source for exploring the national worldview and cultural consciousness of the Uzbek people.

Keywords: folk proverbs, podshah, sultan, amir, bek, semantic analysis, national values, folk wisdom, social relations, proverb semantics, historical and cultural heritage.

KIRISH. Shaxs nomlarini ifodalovchi leksemalar o‘zbek tili leksikasidan “shaxs” umumiy belgisi asosida ajratiladi va bu belgi shaxs nomlari guruhiga mansub bo‘lgan so‘zlarni birlashtiruvchi sema vazifasini bajaradi. ShNG til sistemasining bir bo‘lagi sifatida shu sistemaning asosiy xususiyatlariga ega bo‘ladi. Butun til sistemasiga nisbatan bo‘lak sanalgani holda, o‘z navbatida, uning o‘zi ham o‘zaro munosabatda bo‘lgan bir qancha uzvlar bir butunligidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Shunday qilib, ma’lum belgi asosida birlashgan shaxs nomlari guruhi o‘zidan kattaroq bo‘lgan LSGning a’zosi sifatida uning tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, butunlik sifatida farqlovchi belgi asosida qismlarga bo‘linadi. [9]

MANSAB I [a. منصب – ish, amal, ahvol, holat] 1 Mas’ul vazifa; amal, lavozim.

MANSABDOR Biror mansabga, lavozimga ega bo‘lgan; amaldor. Mansabdor shaxs. [6, 99]

Mansab va lavozim (ar.) – tashkilot, muassasa, idora, korxonalarda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan doimiy vazifa. Mansab va lavozimga buyruq yo‘li bilan tayinlanadi. [10, 137]

LAVOZIM [a. ل و ا ز م – kerakli, zaruriy narsalar] kt. Muassasa, idora, tashkilot va sh.k. da biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin, vazifa o‘rni; amal, mansab... [6, 21]

Ko‘rinadiki, *mansab* va *lavozim* so‘zlarining ikkalasi ham arabcha bo‘lib, bir-biriga sinonim tarzida qo‘llanishi mumkin va ularga xos umumiy xususiyat – buyruq yo‘li bilan tayinlanishdir.

O‘zbek xalq maqollarida *xoqon*, *sulton*, *podshoh*, *amir*, *xon*, *shoh*, *bek* kabi lavozim nomlari faol ishtirok etgan, ularning shakllanish asoslari esa quyidagichadir:

Xoqon leksemasi bilan shakllangan maqol. XOQON (t.) – turk, xitoy, mug‘ul hukmdorlari unvoni. Xoqon atamasi ilk bor 312-yilga oid bo‘lgan Xitoy yilnomalarida uchraydi. Dastlab jujan qabilalari boshliqlari xoqon deb atalgan. VI asr o‘rtalaridan Turk xoqonligi hukmdorlari ham xoqon nomini olgan, keyinchalik boshqa turk qabilalari hukmdorlari ham o‘zlarini xoqon deb atay boshlagan. [10, 250]

O‘zbek xalq maqollari tarkibida *xoqon* leksemasi ishtirok etgan bittagina hikmat borligi aniqlandi, u ham bo‘lsa ushbu mansabning nihoyatda yuksak martaba ekanligi jihatiga asoslangan:

“Davlat bitsa yomonga, O‘zin sanar *xoqonga*” (*xoqon* – buyuk podsho, shahanshoh).

Sulton leksemasi bilan shakllangan maqollar. SULTON [a. سلطان – oliy hukmdor, podsho] 1 Musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni. [7, 757] Sulton (arabcha: سلطان – hukmdor, podshoh) – 1) musulmon davlatlari boshliqlarining unvoni. X asrda islom mamlakatlarida hukmdor sulton deb yuritilgan. [11]

ADABIYOTLAR TAHLILI. *Sulton* lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko'ra vujudga kelgan:

1. Yuksak martaba egasi: "Yaxshi erga bersang qizni, silay-silay *sulton* qilur, yomon erga bersang qizni, ura-ura *ulton* qilur" (*ulton* – oyoq kiyimlariga tagcham qilinadigan, kovushning ichiga solinadigan charm); "Qiz chog'im – *sulton*, Kelin chog'im – *ulton*"; "Suygan ko'zga *sulton* ko'rinmas"; "O'zga elning *sultoni* bo'lguncha, o'z elingni cho'poni bo'l"; "Sevganga – *sultonsan*, sevmaganga – *ultonsan*"; "Yaxshi xotin terini *ulton*, erini *sulton* qiladi"; "Xon yaxshi bo'lsa – el yaxshi", "Har kim o'ziga xon, o'ziga *sulton*"; "Suv – *sultonniki*, Yer – *xudoniki*, Osmoningni o'zing ol"; "Xom terini iylasang, *ulton* bo'lur, Nafsini tiygan kishi *sulton* bo'lur"; "Har kim o'z uyida *sulton*"; "Dehdon – yer *sultoni*, Cho'pon – yaylov *sultoni*"; "Yer og'asi – xudo, Suv og'asi – *sulton*".

2. Xarakter-xususiyatiga ko'ra:

1) yaqinlariga mehr-muhabbatli: "Sulton suyagin xo'rlatmas".

2) qizg'anchiq: "Tangrining molini *sulton* qizg'anar".

3. Imkoniyati cheklanganlik: "Ber" der edi subhon, Berar edi *sulton*. "Ber" demasa subhon, Nechuk bersin *sulton*?!"

Kuzatishlar *sulton* lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko'pchiligi ushbu lavozimning yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilganligini ko'rsatdi.

Podshoh leksemasi bilan shakllangan maqollar. **PODSHOH** [f. پادشاه > qad. f. پاد – hukmdor + شاه – ulug', buyuk] Ba'zi sharq mamlakatlarida mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh. Eron podshohi (tar)...

PODSHOHLIK 1 Podsho(h)ga xos xislat, xatti-harakat; podsho unvoni. [6,762]

POSHSHO (aslida podshoh) – 1. Qar. Podshoh; 2. Usmonli turk imperiyasida fuqaro va harbiy amaldorga berilgan faxriy unvon. Dastlab vazir, beklarbegi va boshqa yuqori mansabdor shaxslar unga sazovor bo'lgan. XIX asrdagi islohotdan keyin muntazam armiya tuzilgach, poshsho faxriy unvoni general va vazirlarga ham berilgan. [10, 186]

METODOLOGIYA. *Podsho* lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko'ra vujudga kelgan:

1. O'zaro xunrezliklarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi hukmdor: "Podsholik – qonxo'rlik".

2. Yuksak martaba egasi ekanlik: "Da'vogarining *podsho* bo'lsa, arzingni Alloh eshitsin"; "Arpa yemagan otlarim, ajriqqa zor bo'ldi, *Podshoh* minmagan otlarim gado tagida xor bo'ldi"; "Podshoning amri vojib"; "Podsho bolasini bosib o'tma"; *Podshoning* qo'ltig'i keng, kuragi uzun"; "Podshoning moli dengiz, Yemagan – to'ng'iz"; "Zamonaning zayli bilan tezakfurush *podsho* bo'libdi"; "Yigit ko'ngli *podsho*"; "Ko'ngilga kelgan qo'ldan kelganda, gado *podsho* bo'lardi"; "Podshoning

holi tang bo'lsa, Gadoni axtarur"; "*Podsho* – fuqaro bilan podsho"; "*Podsho* zolim bo'lsa, yurt to'zar, Podsho odil bo'lsa, yurt o'zar"; "Bola beshikdan yiqilguncha, *podshoh* taxtidan yiqilsin" ("Beshikdan yiqilguncha degani – "o'lguncha" degan ma'noda); "Ko'nglim – *podshohdan* ortiq"; "Bolalaik – podsholik".

3. Lavozimning o'tkinchiligi: "*Podsho* kelar ketar, Omma qolar".

4. Xarakter-xususiyatiga ko'ra:

1) yaqinlarini qo'llab-quvvatlovchi: "*Podsho* taxtidan toysa, Vaziri bo'lgay gado".

2) adolatsiz: «Zamonning zindoni – *podshoning* "adolati"».

3) lavozimga o'chlik: "Ikki darvesh bir palosga sig'adi, Ikki *podsho* bir mamlakatga sig'maydi"; "*Podshoning* ahmog'i yer talashadi, Xotinning ahmog'i er talashadi"; "*Podsho* gado bo'lsa, podsholigini qo'ymas".

5. Ta'lim darajasiga ko'ra: ilmsiz, noshud, nodon: "Qorong'u qolgan yurtga qorashaqshaq *podsho* bo'ladi".

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, xon lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko'pchiligi ushbu unvonning yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Amir leksemasi bilan shakllangan maqollar.

AMIR [a. امير – hokim, hukmdor; boshliq] **1 tar.** Buxoroda va ba'zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi... **AMIRLIK tar. 1** Amir lavozimi.

[5, 103]

AMIR (ar.) – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda *amir* so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib, o'z dinlariga o'tkazgandan so'ng Arab xalifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Oltin o'rdada, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul hamda turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Sohibqiron Temurning unvoni ham amir bo'lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr oxiridan boshlab, Buxoroda mang'it sulolasiga mansub bo'lgan hukmdorlar ham o'zlarini amirlar deb yuritishgan. [1, 14]

Amir (arab. – amr qiluvchi, boshliq, hokim) – lashkarboshi, hokim, bek. XI asr boshida amir deb turli tabaqaga mansub hokimlar va lashkarboshilar (ayyubiylar, mamluklar davlatlari va b.da) atalgan. O'rta asrlarda Movarounnahr xonliklarida Amir ul-umaro, Amiri shikor mansablari mavjud bo'lgan. Oltin O'rdada, so'ngra Movarounnahr va Eronda mo'g'ullar istilosidan so'ng amir deb uluslar boshliqlari atalgan (bek yoki no'yon ma'nosida)..; temuriylar sulolasiga mansub shahzodalar Amirzoda (amir o'g'li) deb atalib, mirzo uning qisqartirilgan shaklidir... Safaviylar Eronida amir – viloyat hokimlari (odatda qabila boshluqlari, xonlar va sultonlar), Afg'onistonda amir unvonini barakzoilar sulolasi hukmdorlari Do'stmuhammadxonidan

boshlabolganlar. XX asrda monarxik arab davlatlarida (masalan, Saudiya Arabistonida) amir – hukmron sulolaning valiahd shahzodalari. [2, 418]

O‘zbek xalq maqollarida ishtirok etgan “amir” leksemasi davlat rahbari, bek ma’nolarida qo‘llangan bo‘lib; ushbu lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko‘ra vujudga kelgan:

1. Yuksak martaba egasi: “*Amirning* oti oltin qoziqda, Faqirning oti doim yoziqda”, “O‘ynashmagin amir bilan, Amir urar temir bilan”, “*Amir* bo‘lsa ta‘magir, na tovuq qolur, na kulonkir”.

2. Xarakter-xususiyatiga ko‘ra:

1) qahrli hukmdor: “*Amirning* g‘azabi – og‘uning lazzati”.

2) minnatli rahbar: “*Amirning* oshidan faqirning mushti yaxshi”.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, *amir* lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko‘pchiligi ushbu lavozimning yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilgan.

Tarix fanlari nomzodi Rahbar Xoliqovanning qayd etishicha, amirlikda eng yuqori hokimiyat qushbegi qo‘lida bo‘lgan. Qushbegi oliy mansab bo‘lib, amirdan keyingi birinchi amaldor hisoblangan, ayni vaqtda amir o‘rinbosari sanalgan. Mang‘itlar sulolasi davrida barcha viloyat hokim va beklari qushbegiga bo‘ysungan, amir poytaxtda bo‘lmagan vaqtda u amirlikning barcha ishlarini boshqargan. [1, 14] Garchi qushbegi oliy mansablardan sanalsa-da, ushbu lavozim nomi asosida bitta ham maqol shakllanmagan. Faqatgina “qushbegi bilan shovla yemaydi” iborasigina tilda uchraydi, xolos.

Xon leksemasi bilan shakllangan maqollar. **XON 1 tar.** Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdorlari unvoni... Xon ko‘tarmoq Xon qilib belgilamoq... **2 tar.** Xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo‘shilib, unvon ifodalaydi... [8, 70]

XON – dastlab qabila sardori, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshohlar davrida xon viloyat, Shahar hokimi yoxud darajasiga ko‘ra amir yoki malik lavozimlariga nisbatan yuqori hisoblangan, ayni paytda, mamlakat boshlig‘i sultonga tobe bo‘lgan turkiy boshliqni bildirgan...

Mo‘g‘ul imperiyasiga asos slogan Temuchin “Cnigizxon” unvonini qabul qilgan. Imperiya hududida tashkil topgan ulus hukmdorlari ham xon deb nomlangan... Mo‘g‘ul hukmronligi davrida Eronda nomusulmon hukmdorlar xon, musulmon hukmdorlar esa sulton deb atalgan. [3, 180]

Xon lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko‘ra vujudga kelgan:

1. O‘zaro xunrezliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi hukmdor: “*Xon-xonlik* – xunrezlik”, “*Xon* yo‘li – qon yo‘li”, “Qor boshiga qor yetadi, *Xon* boshiga *xon* yetadi”, “*Xon* bor yerda – qon bor”, “Asfandiyor *xon* bo‘ldi – og‘zi burni qon bo‘ldi”.

2. Yuksak martaba egasi: “*Xon xondan qo‘rqadi, Xon – xotinidan*”, “*Xotini er orqasidan xotin, Xonim – xon orqasidan xonim*”, “*Xoningga yetguncha holim quriydi, Bekingga yetguncha belim sinadi*”, “*Xalqni xon ham yengolmas*”, “*Xon kiyimi ham o‘lchab bichiladi*”, “*Xalq unasa, xon tuyasin so‘yar*”, “*Xalqqa xonning ham kuchi yetmaydi*”, “*Xon yaxshi bo‘lsa – el yaxshi*”, “*Har kim o‘ziga xon, o‘ziga sulton*”.

3. Lavozimga o‘chlik: “*Xon taxtiga to‘ymas, Xonim – baxtiga*”.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, *xon* lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko‘pchiligi ushbu lavozimning o‘zaro xunrezliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi hamda yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilgan.

Shoh leksemasi bilan shakllangan maqollar. SHOH [f. شاه – podshoh] 1 ayn. **podsho(h)**. Eron shohi... [8, 659]

SHOH (fors) – Yaqin va O‘rta Sharqdagi ayrim musulmon mamlakatlari va Hindistonda (Dehli sultonligi) hukmdor (podshoh, qirol) unvoni. Shoh unvoni dastlab Sosoniylar davlatida qo‘llanilgan. Eronda shahanshoh ko‘rinishida saqlangan. [4, 210]

Shoh lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko‘ra vujudga kelgan:

1. Yuksak martaba egasi: “*Da‘vogarining shoh bo‘lsa, kimlar tinglar arzingni?!*”, “*Ishq yo‘lida shoh ham bir, gado ham bir*”, “*Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l*”, “*Oqibati yomon shohlikdan – oqibati yaxshi gadolik yaxshi*”, “*O‘zga yurtga shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l*”, “*Yoy egriligi tufayli shoh yonidan joy olar, O‘q to‘g‘riligi tufayli uzoqqa borib tushar*”; “*O‘lim shoh-u gadoga barobar*”, “*Shirin so‘zli shoh kosasida suv ichar*”, “*Qizlik uyni shoh ham so‘ratadi, Gado ham*”, “*Gadoning dushmani – gado, Shohning dushmani – shoh*”, “*Yolg‘onchilar shahrida shoh bo‘lguncha, Rostgo‘ylar chorvog‘ida giyoh bo‘l*”, “*Shoh-gadoning farqi yo‘q, Inson – ulug‘, narxi yo‘q*”.

2. Noshukurlik: “*Shohlar yurtning qadri bilmas, yurtidan yurtga oshmaguncha*”.

3. Illatga chalinuvchanlik: “*Shoh shoxida yursa, bek bargida yuradi*”.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Kuzatishlar *shoh* lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko‘pchiligi ushbu lavozimning yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilganligini ko‘rsatadi.

Bek leksemasi bilan shakllangan maqollar. BEK I 1 tar. Turkiy xalqlarning ba‘zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs... [5, 375]

Bek lavozim nomi bilan shakllangan xalq maqollari quyidagi asoslarga ko‘ra vujudga kelgan:

1. Manfaatdorlik, ochko‘zlik: “*Bek bekorga non bermaydi*”, “*Bek qursin, bek qo‘ngan uyning sho‘ri qursin!*”, “*Bergan bekka yoqar, Bermagan kimga yoqar?!*”.

2. Zo‘ravonlik, mug‘ombirlik: “Bekcham go‘sht bilan siylaydi, *Begim* – musht bilan”, “Be kelib, *bek* bo‘ldi, *bek* bo‘lib, quv bo‘ldi”.

3. Yuksak martaba egasi: “Xoningga yetguncha holim quriydi, *Begingga* yetguncha belim sinadi”, “Beshik bolasi – *bek* bolasi”, “Yozda quldek ishla, Qishda *bekdek* ye”, “Yoshlik – beboshlik, yigitlik – *beklik*, qarilik – bolalik”, “Quldan *bek* bo‘lmas”, “Davring kepti – sur *begim*, Davroning kepti – ur *begim!*”, “Beshikdagi bolaning *bek* bo‘larin kim bilar?”, “Xon gapirsa – xonniki ma‘qul, *Bek* gapirsa – bekniki”, “*Bek* berganning tishiga boqma”.

4. Urush, janjallarga sabab bo‘luvchi: “Xon ko‘p bo‘lsa – yov ko‘p bo‘ladi, *Bek* ko‘p bo‘lsa – dov ko‘p bo‘ladi” (**DOV IV folk.** Urush, janjal; kurashuv, olishuv. *Er tovsiz bo‘lmas, El – dovsiz.* Maqol. *Yomon xotin olganning dovi uyida.* Maqol). [5, 909]

5. So‘zining ustidan chiqmaslik: “Oltin boshim bir kesakcha bo‘lmadi, *Bek* gapiga mening ko‘nglim to‘lmadi”.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, *bek* lavozim nomi asosida shakllangan xalq maqollarining ko‘pchiligi ushbu lavozimning yuksak martaba ekanlik jihatiga qurilgan.

Ko‘rinadiki, mansab-lavozim nomlari asosida shakllangan xalq maqollarining asosini, odatda, har bir lavozim egasining o‘sha lavozim doirasida kechadigan hayot tarzi, kundalik turmushi tashkil etadi. Asta-sekinlik bilan ayrim lavozim doirasida paydo bo‘lgan maqol falsafiylikka ega bo‘lib, umumlashma holatlarga nisbatan qo‘llanadigan bo‘lib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Fan va turmush*: ilmiy-ommabop jurnal. – 2000. – № 4.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. A harfi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 418.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. X harfi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 180-b
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Sh harfi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 210
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL). I jild. – Toshkent, 2023. 103, 375, 909-b
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL). III jild. – Toshkent, 2023. 21, 99, 762 -b,
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL). IV jild. – Toshkent, 2023. 757-b
O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL). VI jild. – Toshkent, 2023. 70, 659-b

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA LUG'AT BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Qurbonova Xolbib

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,

pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida chet tilini o'rgatishda, xususan, lug'at boyligini shakllantirish va rivojlantirishda qo'llanilayotgan yangi texnologik vositalar, interaktiv metodlar, onlayn resurslar hamda ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli vositalar o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini oshirish, so'z boyligini mustahkamlash, mustaqil o'rganish madaniyatini rivojlantirish borasida an'anaviy metodlarga nisbatan muhim afzalliklar beradi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim muhiti, lug'at bilan ishlash, interaktiv metodlar, mobil ilovalar, vazifa-asosidagi ta'lim, lingvistik kompetensiya, so'z boyligi, til o'rganish, sun'iy intellekt, o'quvchi monitoring

Abstract: This article analyzes new technological tools, interactive methods, and online resources used in digital learning environments for teaching foreign languages, particularly for developing and enhancing vocabulary. Digital tools provide significant advantages over traditional methods in improving students' linguistic competence, strengthening vocabulary, and fostering a culture of independent learning.

Keywords: digital learning environment, working with vocabulary, interactive methods, mobile applications, task-based learning, linguistic competence, vocabulary, language learning, artificial intelligence, student monitoring

Аннотация: В данной статье анализируются новые технологические инструменты, интерактивные методы и онлайн-ресурсы, применяемые в цифровой образовательной среде при преподавании иностранных языков, в частности для формирования и развития словарного запаса. Цифровые инструменты обеспечивают значительные преимущества по сравнению с традиционными методами в повышении лингвистической компетенции учащихся, укреплении словарного запаса и развитии культуры самостоятельного обучения.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, работа со словарем, интерактивные методы, мобильные приложения, проблемно-ориентированное обучение, лингвистическая компетенция, словарный запас, изучение языка, искусственный интеллект, мониторинг учащихся

Kirish: Global raqamli transformatsiya ta'lim tizimining barcha bosqichlariga chuqur va tizimli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat o'qitish shakllari va vositalarini, balki o'quv mazmuni hamda metodologiyasini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Chet tilini o'rgatish esa ushbu o'zgarishlar markazida turib, eng dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, lug'at boyligini

shakllantirish, mustahkamlash va kengaytirish masalasi raqamli texnologiyalar yordamida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

An'anaviy lug'at darslarini raqamli interaktiv mashqlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar hamda ko'p funktsiyali onlayn resurslar bilan boyitish o'quvchilarning til kompetensiyasini yanada tezroq, samaraliroq va barqaror rivojlantirish imkonini beradi. Bunday vositalar orqali o'rganuvchilar nafaqat yangi so'zlarni yodlab oladi, balki ularni turli kontekstlarda qo'llash, real hayotga yaqin vaziyatlarda ishlatish hamda nutq faoliyatining barcha turlarida integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli muhitda lug'at bilan ishlashning yangi shakllari — masalan, gamifikatsiya elementlari, multimodal kontent (audio, video, vizual materiallar), adaptiv o'quv tizimlari — til o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, ularni mos kontekstlarda ongli ravishda qo'llash, kasbiy va muloqotga oid vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonda individual yondashuvni ta'minlash, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos topshiriqlarni taklif etish, avtomatlashtirilgan tezkor qayta aloqa berish hamda hamkorlikka asoslangan faol ta'lim muhitini shakllantirish imkonini kengaytiradi. Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat samaraliroq, balki moslashuvchan, shaffof va o'quvchi markazli tizimga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili:

O'tgan asrda B.V. Belyaev [1965], L.V. Shcherba [1974], Z.N. Ievleva [1981], I.L. Bim [1988], I.B. Ignatova [1997], A.A. Leontyev [2004], I.P. Lysakova [2004], E.I. Passov [2005], A.L. Berdichevsky [2011] va boshqa olimlar boshlang'ich bosqichda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining ahamiyatini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, ushbu bosqich tilni muloqot vositasi sifatida to'liq egallash va til shaxsini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

I.B. Ignatova [1997] amaliy tajribaga tayangan holda, boshlang'ich bosqich o'quvchilarning til shaxsini shakllantirishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga, I.P. Lysakova [2004] va A.L. Berdichevsky [2011] grammatikani o'rganish nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki o'quvchining tilni muloqot vositasi sifatida ishlata olishini ta'minlash sharti ekanligini ta'kidlashadi.

Ilmiy grammatik tadqiqotlarda tilni tahlil qilish, uning tuzilishi va funktsiyalarini o'rganish markaziy o'rinni egallaydi. Z.N. Ievleva [1981] grammatik materialni o'quvchilarga faqat nazariy jihatdan emas, balki muloqot kontekstida qo'llashni o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarning tilni amaliy ravishda egallashini ta'minlaydi va kommunikativ mahoratni rivojlantirishga xizmat qiladi. A.A.

Leontyev [2004] esa grammatikani o'rgatishda lingvodidaktika, pedagogika, psixologiya va sotsiologiyaning integratsiyalangan yondashuvini qo'llash lozimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, til o'rganish jarayonini samarali tashkil etish faqat lingvistik bilimlar bilan chegaralanmasligi, balki psixologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. E.I. Passov [1989] va B.V. Belyaev [1965] grammatik bilimlar samarali bo'lishi uchun ularni avvalo o'quvchilar tomonidan tushunilishi, so'ngra amaliy mashqlar orqali mustahkamlanishi lozimligini ta'kidlashadi. Bu jarayon o'quvchilarning grammatik nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, I.L. Bim [1988] grammatik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni uch bosqichdan iboratligini qayd etadi: orientatsiya, ya'ni yangi grammatik material bilan tanishish va uning funksiyalarini tushunish; ijro, ya'ni o'rganilgan materialni amaliy mashqlarda qo'llash; va nazorat, ya'ni olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va tekshirish. Bu bosqichli yondashuv o'quvchilarning grammatik kompetensiyasini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Global raqamli transformatsiya ta'lim tizimining barcha bosqichlariga chuqur va tizimli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat o'qitish shakllari va vositalarini, balki o'quv mazmuni hamda metodologiyasini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Chet tilini o'rgatish esa ushbu o'zgarishlar markazida turib, eng dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, lug'at boyligini shakllantirish, mustahkamlash va kengaytirish masalasi raqamli texnologiyalar yordamida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

An'anaviy lug'at darslarini raqamli interaktiv mashqlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar hamda ko'p funksiyali onlayn resurslar bilan boyitish o'quvchilarning til kompetensiyasini yanada tezroq, samaraliroq va barqaror rivojlantirish imkonini beradi. Bunday vositalar orqali o'rganuvchilar nafaqat yangi so'zlarni yodlab oladi, balki ularni turli kontekstlarda qo'llash, real hayotga yaqin vaziyatlarda ishlatish hamda nutq faoliyatining barcha turlarida integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli muhitda lug'at bilan ishlashning yangi shakllari — masalan, gamifikatsiya elementlari, multimodal kontent (audio, video, vizual materiallar), adaptiv o'quv tizimlari — til o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, ularni mos kontekstlarda ongli ravishda qo'llash, kasbiy va muloqotga oid vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonda individual yondashuvni ta'minlash, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos topshiriqlarni

taklif etish, avtomatlashtirilgan tezkor qayta aloqa berish hamda hamkorlikka asoslangan faol ta'lim muhitini shakllantirish imkonini kengaytiradi. Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat samaraliroq, balki moslashuvchan, shaffof va o'quvchi markazli tizimga aylanadi.

XXI asr ta'lim paradigmalarini keskin o'zgartirdi — ta'lim jarayoni interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va texnologik vositalar orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Raqamli ta'lim vositalari yordamida lug'at bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarda samarali natija beryapti:

Interaktiv mashqlar va o'yinlashtirish: Raqamli platformalar (masalan, Quizlet, Kahoot!, Duolingo, Memrise) o'quvchilarga so'zlarni o'rganish, ularni kontekstda qo'llash va mustahkamlash bo'yicha interaktiv mashqlarni taqdim etadi. O'yinlashtirilgan metodlar lug'atning to'g'ri va samarali o'zlashtirilishini ta'minlab, motivatsiyani oshiradi.

Mobil ilovalar: Mobil ilovalar o'quvchining xohlagan joyda va vaqtda lug'at bilan ishlash imkonini beradi. Ular fonetik talaffuz, sinonim-antonimlarni aniqlash, ko'p ma'noli so'zlar bo'yicha amaliy mashqlarni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarda o'z til kompetensiyasini mustaqil ravishda rivojlantirishni osonlashtiradi. matnni yanada mukammal tarzda boyit

XXI asr ta'lim paradigmalarini tubdan o'zgartirdi — bugungi kunda ta'lim jarayoni interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan hamda zamonaviy texnologik vositalar bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida o'quv jarayoni yanada moslashuvchan, ochiq va samaradorlikka yo'naltirilgan tizimga aylandi. Ayniqsa, chet tilini o'rganishda lug'at bilan ishlash metodikasi sezilarli darajada yangilanib, innovatsion yondashuvlar bilan boyitilmoqda.

Raqamli ta'lim vositalari yordamida lug'at bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda:

Interaktiv mashqlar va o'yinlashtirish (gamifikatsiya): Zamonaviy raqamli platformalar, xususan Quizlet, Kahoot!, Duolingo va Memrise o'quvchilarga lug'at boyligini oshirish uchun turli interaktiv mashqlarni taklif etadi. Ushbu platformalarda so'zlarni yodlash jarayoni oddiy takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki ularni kontekstual vaziyatlarda qo'llash, tezkor testlar orqali tekshirish va bosqichma-bosqich mustahkamlash imkonini beradi. O'yinlashtirilgan metodlar (ball to'plash, reytinglar, mukofot tizimi) o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, o'rganish jarayonini qiziqarli va raqobatbardosh muhitga aylantiradi.

Mobil ilovalar orqali o'rganish: Mobil texnologiyalar o'quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda lug'at ustida ishlash imkonini yaratadi. Zamonaviy ilovalar nafaqat yangi so'zlarni o'rgatadi, balki ularning to'g'ri talaffuzi (audio yozuvlar orqali), sinonim va antonimlarini aniqlash, ko'p ma'noli birliklarni farqlash hamda real nutqiy

vaziyatlarda qo'llashga oid mashqlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, ayrim ilovalarda sun'iy intellekt elementlari qo'llanilib, o'quvchining bilim darajasiga mos individual topshiriqlar shakllantiriladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirib, ularning til kompetensiyasini izchil ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, raqamli vositalar asosida tashkil etilgan lug'at bilan ishlash jarayoni an'anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha samarali, moslashuvchan va o'quvchi ehtiyojlariga yo'naltirilgan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Multimedia integratsiyasi: So'zlarni film, audio materiallar, rasmlar va video kontekstda o'rganish ularni amaliy qo'llashga olib keladi. Masalan, interaktiv lug'at portalida so'zning talaffuzi bilan birga kontekstli misollar, videolar va real nutq materiallari bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodik integratsiya:

Raqamli vositalar xolos lug'atni eslab qolishdan ko'ra kengroq yondashuvni talab qiladi. Til kompetensiyasi tinqis tasodif emas, balki tizimli yondashuv orqali shakllanadi. Shu bois quyidagi pedagogik tamoyillar muhimdir:

Kommunikativ yondashuv: Bu yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatadi. Lug'at o'rganish faqat so'zlarning ma'nosini yodlash emas, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llashdir. Raqamli vositalar bu yo'nalishda kontekstli mashqlar, rolli o'yinlar va vazifa-yo'nalishli mashqlar bilan yordam beradi.

Task-based Learning (vazifa asosidagi ta'lim): O'quvchilarga real hayotga oid vazifalar berilib, lug'at shu vazifalar orqali o'rganiladi. Masalan, resept tuzish, yo'l-harita ta'riflash, muloqotlar yozish va tahlil qilish orqali yangi leksika mustahkamlanadi.

Differensiyal yondashuv: Raqamli platformalar o'quvchining darajasiga mos mashqlar beradi. Bu yondashuv individual o'quv yo'lini yaratadi, shaxsiy ehtiyojga mos lug'at boyitish mashqlarini taqdim etadi.

Raqamli vositalarda lug'atni baholash va monitoring: Lug'at boyligini shakllantirishda samaradorlikni o'lchash zarur. Raqamli platformalar real vaqt rejimida monitoring, tahlil va baholash imkonini beradi:

Avtomatlashtirilgan testlar: So'z boyligini baholash uchun vaqtga asoslangan testlar, adaptiv baholash tizimlari mavjud bo'lib, o'quvchining darajasini aniqlaydi va keyingi mashqlarni shunga moslashtiradi.

Progres-treking: Platformalar o'quvchining faolligi, muvaffaqiyatlari va xatolarini saqlaydi, bu o'qituvchiga individual tahlil imkonini beradi. O'quvchi esa o'z o'sishini vizual tarzda kuzatadi.

Analytics va sun'iy intellekt: Sun'iy intellekt bazasiga ega sistemalar o'quvchining nutqdagi xatolarini tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlaydi va shaxsga mos mashqlar taklif etadi.

Raqamli muhitda lugʻat bilan ishlashning asosiy afzalliklari oʻquvchilarga taʼlim jarayonini yanada samarali va qulay qilishi bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu vositalar moslashuvchanlikni taʼminlaydi: oʻquvchilar har qachon va har joyda soʻzlarni oʻrganish, ularni kontekstda qoʻllash imkoniga ega boʻladilar. Ikkinchidan, vizual va audio materiallar yordamida soʻz maʼnosi, talaffuzi va ishlatilish konteksti tushunarli boʻlib, lugʻatni tezroq va mustahkam egallashga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv mashqlar orqali oʻquvchilar tajriba asosida oʻrganadilar va darhol qayta aloqa olish imkoniyatiga ega boʻlishadi, bu esa motivatsiyani oshiradi, oʻquv jarayonini oʻyinlashtirish va ball tizimi bilan qoʻllab-quvvatlash esa oʻrganishga qoʻshimcha ragʻbat yaratadi.

Biroq, raqamli taʼlimning ayrim cheklovlari ham mavjud. Avvalo, texnik imkoniyatlar chegaralangan auditoriya uchun platformalardan toʻliq foydalanishni cheklashi mumkin, masalan, internet sifati yoki qurilmalar yetishmasligi. Shuningdek, oʻqituvchining roli faqat texnologiyaga tayanib qolmasligi, balki metodik yondashuv bilan mustahkamlash zarur. Bundan tashqari, baʼzi raqamli loyihalar kultural kontekstni yetarli darajada taqdim etmaydi, natijada oʻquvchilar soʻzlarni real muloqot vaziyatida toʻliq tushunmasligi yoki noaniq qoʻllashi mumkin. Shu bilan birga, bu cheklovlar zamonaviy taʼlim strategiyalari va oʻqituvchining metodik yondashuvi orqali qisman bartaraf etilishi mumkin.

Soʻnggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli vositalarning lugʻat boyitishdagi samaradorligini tasdiqlamoqda. Masalan, N. Jones (2020) oʻz tadqiqotida raqamli lugʻat mashqlari anʼanaviy darsliklarga nisbatan oʻquvchilar natijalarini taxminan 30% yuqoriga koʻtarishini aniqlagan. Shu bilan birga, K. Smith (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, Duolingo va Memrise kabi interaktiv platformalarda muntazam ishlagan oʻquvchilarning kontekst asosida soʻz qoʻllash koʻnikmalari ancha yaxshilanganini koʻrsatadi. Bundan tashqari, raqamli analytics vositalari oʻquvchilarning xatolarini tezda aniqlash va individual mashqlarni taklif etish orqali oʻquv jarayonini yanada optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu empirik dalillar raqamli muhitning nafaqat lugʻat boyitishda, balki oʻquvchilar individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali oʻqitishda ham ahamiyatini koʻrsatadi.

Amaliy jihatdan, raqamli lugʻat resurslaridan maksimal foyda olish uchun bir qator tavsiyalarni amalga oshirish muhimdir. Avvalo, oʻqituvchilar interaktiv lugʻat platformalarini dars rejalariga tizimli ravishda integratsiya qilishi lozim. Shu bilan birga, oʻquvchilarning yutuqlari va qiyinchiliklarini muntazam kuzatish uchun interaktiv testlar va progress-tracking vositalari qoʻllanilishi tavsiya etiladi. Vazifa-asosidagi mashqlar (chatbot, forum, muhokama) yordamida soʻzlarni real muloqot kontekstida ishlatish koʻnikmalari mustahkamlanadi, shuningdek, sunʼiy intellekt yordamida tinglov mashqlari orqali individual xatolarni aniqlash va tahlil qilish

imkoniyati mavjud. Nihoyat, vizual va audio materiallarni qo'llash, so'z boyitishni kontekst bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilar lug'atni mustahkam egallashlari va uni muloqot jarayonida erkin ishlatishlari ta'minlanadi.

Xulosa: Raqamli ta'lim muhitida lug'at bilan ishlash nafaqat so'zlarni yodlashning zamonaviy shakli, balki o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi samarali va ko'p qirrali vosita hisoblanadi. Bunday muhitda o'quvchi so'zlarning ma'nosini oddiy yodlash bilan cheklanib qolmay, balki ularni turli kontekstlarda qo'llash, sinonim va antonimlarini tahlil qilish, nutq jarayonida mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar, xususan interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar yordamida o'quvchilar kommunikativ vazifalarni mustaqil bajarish, real hayotga yaqin vaziyatlarda tilni qo'llash va o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi asosiy til kompetensiyalarining uyg'un shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli vositalar orqali taqdim etiladigan multimediya materiallari — audio, video, animatsiyalar va interaktiv mashqlar — o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchi yangi so'zlarni eshitish, ko'rish va amalda qo'llash orqali ularni chuqurroq o'zlashtiradi. Moslashuvchan (adaptiv) ta'lim tizimlari esa har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va bilim darajasini inobatga olib, shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyasini yaratadi.

Natijada, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi til o'rganishni tezlashtiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshonjonov B.Z. "Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalari" 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2025. B:- 55
2. Eshonjonov B.Z. Migrant oila farzandlarida qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 2025-yil №5 B.1138-1140.
3. Шатилов, С.Ф. Актуальные проблемы методики обучения русскому языку иностранных учащихся. – Л., 1985. – 55 с.
4. Шатилов, С.Ф. Методика обучения немецкого языка в средней школе. – М., 1986. – 212 с.

5. Шмелев, Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). - М.: Наука, 1973. - 280 с.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONLARI UZVIYLIGINI TA'MINLOVCHI PEDAGOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Turg'unova Gulnoza,

*University of Business and Science universiteti
Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va sport faoliyati kafedrasida
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash muammolari tadqiq etilgan. Pedagogik ta'lim bosqichlari (klaster yondashuvi, oliy ta'lim va amaliyot integratsiyasi) o'rtasidagi funktsional aloqalarni takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda bosqichma-bosqich uzviylikni ta'minlovchi pedagogik model taklif etilgan va uni amaliyotga joriy etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, boshlang'ich sinflar o'qituvchisi, uzviylik, pedagogik mexanizm, klaster yondashuvi, kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik, pedagogik transformatsiya.

Abstract. The problems of ensuring the continuity and consistency of the processes of training future primary school teachers at different stages of the continuous education system are studied. The pedagogical mechanisms for improving the functional connections between the stages of pedagogical education (cluster approach, integration of higher education and practice) are analyzed. The author proposes a pedagogical model that ensures a gradual continuity in the formation of professional competencies of future teachers and shows ways to implement it in practice.

Keywords: continuous education, primary school teacher, continuity, pedagogical mechanism, cluster approach, professional competence, methodological training, pedagogical transformation.

Аннотация. Исследованы проблемы обеспечения преемственности и последовательности процессов подготовки будущих учителей начальных классов на разных этапах системы непрерывного образования. Проанализированы педагогические механизмы совершенствования функциональных связей между этапами педагогического образования (кластерный подход, интеграция высшего образования и практики). Автором предложена педагогическая модель, обеспечивающая поэтапную преемственность в формировании профессиональных компетенций будущих педагогов, и показаны пути ее внедрения в практику.

Ключевые слова: непрерывное образование, учитель начальных классов, преемственность, педагогический механизм, кластерный подход, профессиональная компетентность, методическая подготовка, педагогическая трансформация.

Kirish

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim sohasini chuqur yangilash va uning sifat darajasini jahon andozalariga yaqinlashtirish jamiyat taraqqiyotining ustuvor strategik vazifalaridan biriga aylangan. Biroq istalgan ta'lim tizimining qanchalik natijali ishlashi, eng avvalo, uning zaminini tashkil etuvchi boshlang'ich bo'g'inining saviyasiga, shuningdek ushbu pog'onada ishlovchi pedagoglarning kasbiy salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisidan esa tor metodik tayyorgarlikkagina ega bo'lish emas, balki uzluksiz yangilanib turuvchi axborot makoniga moslasha oladigan, ijodkor va innovatsion tafakkurli mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Shu darajadagi malakali kadrlarni shakllantirish alohida-alohida, tarqoq holdagi sa'y-harakatlar bilan emas, balki yaxlit va uzluksiz ta'lim tizimi ichida tashkil etilgandagina kutilgan natijani beradi. Afsuski, hozirgi kunda o'qituvchilarni tayyorlash amaliyotida turli bosqichlar — pedagogik kollej va texnikumlar, oliy o'quv yurtlari hamda xalqaro malaka oshirish markazlari — orasida mazmuniy va funksional jihatdan yetarlicha bog'lanish kuzatilmayapti. Dasturlardagi takror mavzular, nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmaning bir-biridan ajralib qolishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kamol topishini orqaga suradi.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun professional pedagogik ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi pedagogik mexanizmlarni yangilash zarur bo'ladi. Mazkur ishning maqsadi shundan iboratki, uzluksiz ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining uzviyligi hamda izchilligini kafolatlovchi pedagogik mexanizmlarni nazariy asoslash va ularni rivojlantirishga qaratilgan modellarni shakllantirishdir.

Metodlar

Tadqiqotda muammoning tub mohiyatini ochish va ilmiy yechimlarni aniqlash maqsadida qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik loyihalash hamda kontent-tahlil usullaridan keng foydalanildi. Bunda uzluksiz pedagogik ta'limning me'yoriy-huquqiy negizi, oliy ta'limdagi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishining o'quv rejalari va malaka talablari o'zaro qiyoslab tahlil qilindi.

Tadqiqotning tayanch nuqtasi sifatida pedagogik jarayonlar uzviyligini ta'minlashning quyidagi konseptual mezonlari belgilab olindi:

- Mazmuniy-konseptual mezon — pedagogik ta'lim dasturlarining "kollej — universitet — maktab" o'tish chiziqlarida bir-birini mantiqan to'ldirishi va ortiqcha takrorlardan holi bo'lishi.
- Tashkiliy-texnologik mezon — bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalar, raqamli resurslar va dual ta'lim (ya'ni nazariya bilan amaliyotning uyg'unligi) imkoniyatlaridan tizimli tarzda foydalanish.
- Shaxsiy-kasbiy mezon — talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash ehtiyojini uyg'otish va kasbiy refleksiyaning o'stirish.

Aynan shu mezonlardan kelib chiqib, zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradigan pedagogik integratsiya mexanizmlari o'rganib chiqildi.

Natijalar

Olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar samarasi o'laroq, uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining uzviyligini ta'minlovchi "Integrativ-klasterli pedagogik mexanizmlar modeli" ishlab chiqildi. Mazkur model kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshiruvchi to'rtta yetakchi mexanizmni qamrab oladi.

1. Kontent-metodik mexanizm (dasturlar uzviyligi). Bu mexanizm o'quv dasturlarini "vertikal uzviylik" tamoyili asosida qaytadan ko'rib chiqishga asoslanadi. Talaba pedagogik kollejda egallagan bazaviy metodik bilimlar oliy ta'limda yana takrorlanmasligi, aksincha, ilmiy-tadqiqot elementlari va muammoli pedagogik vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari bilan to'ldirilishi lozim. Bunday yo'l talabaning vaqtini tejaydi va diqqatini faqat yangi, fundamental bilimlarga jamlash imkonini yaratadi.

2. "Oliy ta'lim va maktab" dual hamkorlik mexanizmi. Uzviylikni ta'minlashning eng ta'sirchan jihati — pedagogik amaliyotning uzilmasligidir. An'anaviy tartibda talabalar amaliyotni faqat ayrim haftalarda o'tagan bo'lsa, takomillashtirilgan mexanizmda oliy ta'limdagi har haftalik nazariy bilim to'g'ridan-to'g'ri tayanch maktabdagi amaliyot bilan bog'lanadi: haftaning ma'lum kunlari bevosita maktab sharoitida o'tkaziladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchining maktabdagi psixologik muhitga tezroq ko'nikishiga yordam beradi.

3. Klasterli innovatsion mexanizm. Pedagogik oliy ta'lim muassasasi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda malaka oshirish institutlari yagona klaster (tarmoq) doirasida birlashtiriladi. Klaster ichida maktablarda yuzaga keladigan real metodik muammolar — masalan, darsliklardagi qiyinchiliklar yoki o'quvchilar o'rtasidagi psixologik vaziyatlar — talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va loyihalariga mavzu sifatida beriladi. Natijada ilmiy ishlar shunchaki qog'ozda qolib ketmaydi, balki bevosita maktab amaliyotiga amaliy foyda keltiradi.

4. Raqamli va monitoring mexanizmi. Bo'lajak o'qituvchining talabalik yillaridan to maktabda mehnat faoliyatini boshlaguniga qadar kechadigan kasbiy o'sish yo'lini aks ettiruvchi "Raqamli portfoliomodel" joriy etiladi. Ushbu tizim o'qituvchining qaysi metodik tomonlari mustahkam, qaysilari (chunonchi, raqamli savodxonlik yoki inklyuziv ta'lim) yana mehnat talab qilishini ko'rsatib boradi va malaka oshirishni har bir shaxs uchun alohida loyihalash imkonini yaratadi.

Muhokama

Uzluksiz pedagogik ta'limdagi uzviylik va izchillik masalalari ko'plab mahalliy hamda xorijiy ishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, aksariyat hollarda bu yondashuv faqat me'yoriy hujjatlar doirasidagi muvofiqlik sifatida talqin qilingan. Biz ilgari surayotgan mexanizmlarning o'ziga xosligi shundaki, ularda uzviylik dars soatlari yoki fan nomlarining mosligida emas, balki shaxsning kasbiy kompetensiyalari qanchalik tez o'sayotganida o'z ifodasini topadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etishda hamon ayrim byurokratik to'siqlar va tarqoqlik holatlari saqlanib qolmoqda. Kollej o'qituvchisi, universitet professori va maktab metodisti ko'pincha bir-biri bilan bog'lanmagan, ayri tizimlar sifatida harakat qiladi. Klasterli va dual mexanizmlar esa aynan shu

ishtirokchilarni yagona maqsad — “boshlang‘ich ta‘lim sifati” atrofida muloqotga keltiradi. Shu tariqa ta‘lim sohasidagi pedagogik o‘zgarishlar ichkaridan turib jadallashtiriladi.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar va konseptual loyihalash ishlari quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

Uzluksiz ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining uzviyligi — bu tizimning barcha bo‘g‘inlarini umumiy funksional va mazmuniy yo‘nalish atrofida jipslashtiruvchi strategik talabdir.

Takomillashtirilgan pedagogik mexanizmlar — kontent, klaster, dual amaliyot va raqamli monitoring — bo‘lajak o‘qituvchini quruq nazariyotchi sifatida emas, balki maktab hayotiga, o‘quvchilar ruhiyatiga va zamonaviy o‘quv dasturlari talablariga to‘la tayyor mutaxassis sifatida shakllantirishni kafolatlaydi.

Tizim samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

- pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida “Maktab laboratoriyalari” markazlarini tashkil qilish va talabalarni birinchi kursdanoq haftalik amaliyotga jalb etish;

- oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilarining maktab darsliklarini tahlil qilishda va amaliy darslarda bevosita qatnashishini rag‘batlantiruvchi tizimni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tayanchimiz va suyanchimizdir. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya. // Eksperiment i innovatsii v shkole. – M., 2014.
4. Mavlonova R., Hoshimov S. Pedagogika. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2011.
5. Taylor, P. Professional Development of Primary School Teachers in Continuous Education. // Journal of Educational Transformation, 2022.
6. Muxammadjanovna, O. D. (2025). Positive impact of interactive methods on the development of the students' communication skills. *American journal of education and learning*, 3(1), 720-723.

TASAVVUFIY ASARLAR TAHLILIDA ABDURAHMON GO‘ZAL MAHORATI

Xaqqulova Dilshoda

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy adabiyotda tasavvufiy qarashlarning shakllanishi, tasavvuf adabiyotining nazariy-estetik xususiyatlari hamda tasavvufshunos olimlar tadqiqotlarida qo‘llangan ilmiy mezonlar tahlil qilinadi. Xususan, Ibrohim Haqqul va Abdurahmon Go‘zalning tasavvuf adabiyoti, Ahmad Yassaviy ijodi, shariat, tariqat, ma‘rifat va haqiqat tushunchalari haqidagi qarashlari yoritiladi. Maqolada olimlarning tasavvufiy matnga yondashuv usuli, istilohlarni izohlashdagi aniqligi, badiiy matn tahlilidagi ilmiy mahorati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tasavvuf adabiyoti, tariqat, shariat, ma‘rifat, haqiqat, Ahmad Yassaviy, Ibrohim Haqqul, Abdurahmon Go‘zal, badiiy tahlil, ilmiy mezon.

Abstract. This article examines the formation of Sufi thought in Turkic literature, the theoretical and aesthetic characteristics of Sufi literature, and the scholarly criteria employed in the studies of Sufism scholars. In particular, it explores the views of Ibrahim Haqqul and Abdurahmon Gozal on Sufi literature, the works of Ahmad Yassawi, and the concepts of Sharia, Tariqa, Ma'rifa, and Haqiqa. The article also analyzes the scholars' approaches to interpreting Sufi texts, their precision in explaining Sufi terminology, and their academic expertise in the analysis of literary texts.

Keywords: Sufism, Sufi literature, Tariqa, Sharia, Ma'rifa, Haqiqa, Ahmad Yassawi, Ibrahim Haqqul, Abdurahmon Gozal, literary analysis, scholarly criteria.

Аннотация. В данной статье рассматриваются становление суфийских воззрений в тюркской литературе, теоретические и эстетические особенности суфийской литературы, а также научные критерии, применяемые в исследованиях учёных, занимающихся суфизмом. Особое внимание уделяется взглядам Ибрахима Хаккула и Абдурахмона Гозала на суфийскую литературу, творчество Ахмада Яссави, а также на понятия шариат, тарикат, маърифат и хакикат. В статье раскрываются подходы учёных к интерпретации суфийских текстов, точность толкования суфийской терминологии и их научное мастерство в анализе художественных произведений.

Ключевые слова: суфизм, суфийская литература, тарикат, шариат, маърифат, хакикат, Ахмад Яссави, Ибрахим Хаккул, Абдурахмон Гозал, литературоведческий анализ, научные критерии.

Turkiy adabiyot tarixida islom dini mazmun-mohiyati bilan bog‘liq mavzular alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti turkiy xalqlarning ma‘naviy tafakkuri, badiiy-estetik qarashlari va axloqiy-ma‘rifiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lgan. Tasavvuf adabiyoti inson ruhiyatini poklash, nafsni yengish, Haqqa yaqinlashish, komillik sari intilish kabi g‘oyalarni badiiy obrazlar vositasida ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu bois ajdodlarimiz tasavvufga alohida

e'tibor qaratganlar va uni nafaqat diniy-ma'rifiy, balki adabiy-estetik hodisa sifatida ham qadrlaganlar.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul tasavvufning mohiyatini insonning o'zligini anglash jarayoni bilan bog'laydi. Uning fikricha, "Tasavvuf, eng avvalo, insonning o'z mohiyatini teran idrok qilish va bilish yo'lidagi og'ir, qiynoqli intilishlarini ifodalaganidir. Odam farzandining zohiriy bahs-u munozaralari, moddiy manfaat yo'lidagi har turli tortishuv-talashuvlari, aslida, uning botinidan boshlanadi. ...tasavvuf va tariqatlar, tasavvuf maslagi zaminida shakllangan ma'naviy hayot bizning madaniyat tariximizda muhim mavqega ega bo'lgan. Biz nafaqat ilm-fan, adabiyot, san'at va musiqamizni, hatto tilimiz taraqqiyotini ham tasavvufdan butunlay ajratib tasavvur eta olmaymiz. Urf-odat, milliy qadriyat va muomala-munosabatlarimizning ildiziga yetib bormoq uchun ham tasavvufga murojaat qilishga to'g'ri keladi" [1].

Ushbu fikrlardan anglashiladiki, tasavvuf faqat diniy-irfoniy ta'limot emas, balki xalqning madaniy xotirasi, axloqiy mezonlari va badiiy tafakkuriga chuqur singib ketgan keng qamrovli hodisadir. Ibrohim Haqqul tasavvufni inson botini, ruhiy olami va ma'naviy kamoloti bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi. Olimning ilmiy yondashuvida tasavvuf adabiyoti matnlarini faqat tashqi mazmun bilan emas, balki ularning ichki ruhiy-ma'rifiy qatlamlari orqali tahlil qilish tamoyili yetakchilik qiladi.

Tasavvufning mustaqil ilm sifatida shakllanishi ham tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish usullari shakllandi. Tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu bosqichlariga oid qarashlar majmui shakllandi. Natijada tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. Dastlab so'fiylar tasavvufni sir-u asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni "iboraga kelmaydigan ishoratlar" sifatida talqin qilgan bo'lsalar, keyinchalik bu holatlar haqida nazariy fikrlar bayon qilina boshlandi. So'fiyni tarbiyalash, pir-muridlik odobi, tariqat qoidalarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Bu esa shariat va tariqat munosabati, olam, odam va Xudo o'rtasidagi aloqa, tavhid va vahdat masalalarining keng muhokama qilinishiga sabab bo'ldi [2].

Tasavvuf adabiyotining nazariy jihatlarini o'rganishda turk olimi Abdurahmon Go'zal tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim tasavvuf adabiyotiga maxsus to'xtalib, Rizo Tavfiq Bo'lukbashi bu adabiyotni "Tekke adabiyoti" deb nomlagani va uni xalq adabiyotidan farqlash zarurligiga e'tibor qaratganini qayd etadi. Abdurahmon Go'zal tasavvuf adabiyotini xalq adabiyoti va mumtoz adabiyot orasidagi ko'prik sifatida baholaydi. Uningcha, tasavvuf adabiyoti bu ikki adabiyotning bir-biridan uzoqlashib ketishiga to'sqinlik qiluvchi, o'ziga xos mazmun va shaklga ega original adabiyotdir.

Abdurahmon Go'zal tasavvuf adabiyoti tarixini uch asosiy davrga ajratadi: birinchisi — Muhammad alayhissalom davri, ikkinchisi — tobeinlar davri, uchinchisi — ilk so'fiylar davri. Bunday tasnif olimning tasavvuf adabiyotiga tarixiy-tadrijiy nuqtayi nazardan yondashganini ko'rsatadi. U tasavvufiy tafakkurning shakllanish jarayonini diniy, ijtimoiy va adabiy omillar bilan bog'liq holda izohlaydi. Olim XIII asr adabiyotini tasavvuf asri sifatida e'tirof etadi. Bu davrda islom dini keng yoyilib, Buxoro, Samarqand, Farg'ona kabi shaharlarda tasavvuf adabiyotining yirik vakillari

yetishib chiqqan. Ushbu shaharlar tasavvufiy tafakkur va irfoniy adabiyotning nufuzli markazlari bo'lgan. Abdurahmon Go'zal o'z tadqiqotlarida Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Qushayriy, G'azzoliy kabi buyuk allomalar nomini tilga oladi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiga alohida e'tibor qaratib, uni tasavvuf olamida keng ufq ochgan siymo sifatida baholaydi.

Abdurahmon Go'zalning ta'kidlashicha, "Ahmad Yassaviy, Mansur ota, Xorazmlik Sayid Ota, Sulaymon Hakim Ota, Luqmon Parranda, Mavlono Hoji Bektosh Valiylar kabi xalifalari va minglarcha muridlarni yetishtirib, Anado'lu va Bolqonlarga yubordilar. Yassaviy tariqati dastlab Turkistonda, so'ngra boshqa mintaqalarda tez fursatda keng yoyildi. O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Anado'li va Volga bo'yida yashovchi turkiy xalqlar orasida keng yoyilishiga sababchi bo'lgan tasavvufshunos Hoja Ahmad Yassaviydir" [3]. Bu fikrlar Ahmad Yassaviy ijodining nafaqat Turkiston, balki butun turkiy dunyo ma'naviy hayotidagi o'rnini ko'rsatadi. Olim Yassaviyni turkiy xalqlar orasidagi ilk so'fiy shoirlardan biri sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, u tasavvuf adabiyotining yirik vakillari Muhyiddin Arabiy va Jaloliddin Rumiy ijodiga ham to'xtaladi. Bundan tashqari, Abdurahmon Go'zal tadqiqotlarida Yunus Emro, Sulton Valad, Oshiq Poshsho, Qayg'usiz Abdol, Said Emro kabi so'fiy shoirlar nomi ham uchraydi.

Abdurahmon Go'zal Ahmad Yassaviy ijodida islomiy tushunchalar mutasavvifona fikrlar bilan uyg'unlashganini alohida ta'kidlaydi. Olim Yassaviy ijodini boshqa tasavvuf vakillari bilan muqoyasa qilib, boshqa mutasavviflarda ochiq ko'zga tashlanadigan bu dunyodan shikoyat holati Yassaviyda deyarli uchramasligiga e'tibor qaratadi. Yassaviy she'riyatida insonning asosiy vazifasi Allohga qullik burchini ado etish, nafsni yengish, Haq diydoriga vosil bo'lish kabi g'oyalar bilan belgilanadi. Olim Yassaviy ijodida nafs tushunchasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning talqinicha, Yassaviyga ko'ra insonni Alloh yo'lidan chalg'ituvchi asosiy kuch nafsdur. Shuning uchun inson nafs tog'idan oshishi, nafs tuzoqlaridan qutulishi lozim. Bu jihatlar Yassaviy hikmatlarida shariat va tariqatning mushtarakligi, ishq va sadoqatning ustuvorligi bilan izohlanadi. Abdurahmon Go'zal Yassaviy baytlarini tahlil qilar ekan, ayrim o'rinlarda tasavvufiy nuqtayi nazar ustunlik qilishini qayd etadi. Yassaviy ijodida haqiqiy ishq va undan ko'zlangan maqsad Haq diydorini ko'rishdir. Haq oshig'i zuhd va taqvo ahliga o'xshab jannat ilinjida yashamaydi. Chinakam oshiq bir lahza bo'lsa ham Haqdan g'ofil qolmaydi. Chunki g'ofillik bilan oshiqlik bir-biriga zid holatlardir. Oshiqlik kamoliga yetmasdan Haq diydorini mushohada etish imkonsiz. Shu ma'noda Yassaviy insonni ishq yo'lida Layli va Majnun, Farhod-u Shirin, Vomiq-u Uzro kabi sodiq bo'lishga da'vat etadi:

Qul Xoja Ahmad zohid bo'lma, oshiq bo'lg'il,
Bu yo'llarda bebok yurma, sodiq bo'lg'il,
Layli Majnun, Farhod Shirin, Vomiq bo'lg'il,
Oshiq bo'lmay Haq diydorin ko'rsa bo'lmas [4].

Abdurahmon Go'zal Yassaviyni shariat arbobi sifatida ham e'tirof etadi. Olim Yassaviyning shariat mohiyati va shakliga, Payg'ambar sunnatiga mutlaq ravishda sodiq bo'lganini ta'kidlaydi. Shariat va tariqat munosabati haqida so'z yuritir ekan, Yassaviyning quyidagi ikki fikriga e'tibor qaratadi: birinchidan, shariatga tayanmagan

tariqat botildir; ikkinchidan, imonning po'sti shariat bo'lsa, ichi va mag'zi tariqatdir. Ushbu fikrlar Yassaviy ta'limotida shariat va tariqat bir-birini inkor etmasligi, aksincha, bir-birini to'ldiruvchi bosqichlar ekanini ko'rsatadi.

Olim bu qarashlar Yassaviyning "Faqrnoma" asarida batafsil yoritilganini qayd etadi. "Faqrnoma"da tavsiflangan "to'rt eshik, qirq maqom" tushunchasi to'rt bino yoki to'rt qavatli ma'naviy tuzilma tarzida tasavvur qilinadi. Uning birinchi qavati — shariat, ikkinchi qavati — tariqat, uchinchi qavati — ma'rifat, to'rtinchi qavati esa haqiqatdir. Har bir qavat o'n maqomdan iborat bo'lib, bu o'n maqom, o'n nur, o'n yo'l va o'n makon kabi tushunchalar orqali izohlanadi. Bu tasnif tasavvufiy kamolot yo'lining bosqichma-bosqich kechishini ko'rsatadi.

Abdurahmon Go'zal tadqiqotlarida har bir fikr-mulohazaning keng qamrovli va batafsil tahlil qilinganini ko'rish mumkin. Olim har bir istilohning lug'aviy va istilohiy ma'nosini izohlashga alohida e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida tasavvufiy tushunchalar shunchaki diniy atama sifatida emas, balki badiiy matnning mazmuniy-estetik qatlamlarini ochuvchi kalit tushunchalar sifatida talqin qilinadi.

Jumladan, olim shariat tushunchasining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib, uni "zohiriy hukmlar, fiqh qoidalari, huquqiy qoidalar, inson vujudi va ruhi, Payg'ambar vositachiligida Alloh tomonidan yuborilgan ilohiy hukmlar, qonunlar" tarzida izohlaydi. Shariatning istilohiy ma'nosi esa "Qur'on va hadislarning umumiy hukmlarini ichiga olgan qonunlarning ta'lim muassasalarida o'qitilishi, ommani ilmiy, yetuk, fikrchan bir jamoa holiga yetkazish uchun ularga ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy, tibbiy, diniy va huquqiy ilmlarni o'rgatish" sifatida tushuntiriladi [5].

Shuningdek, olim tariqat tushunchasiga ham alohida to'xtaladi. Tariqat shariat qonun-qoidalari va hukmlarini amaliy hayotda yashash, shariat doirasida kitob va sunnatga suyanish, mashoyixlar naql qilgan robita, zikr, muroqaba va huzur singari usul hamda odoblarni amalda ko'rsatishdan iboratdir. Tariqat Alloh va Rasuliga yurakdan bog'lanish, ularning amr-farmoyishlariga haqiqiy ma'noda sadoqatli bo'lishni talab qiladi. Abdurahmon Go'zalning ilmiy mahorati shundaki, u tasavvufiy tushunchalarni izohlashda faqat nazariy ma'lumot bilan cheklanmaydi, balki ularni badiiy matn asosida tahlil qiladi. Olimning tahlilida tarixiylik, qiyosiylik, istilohiy aniqlik va badiiy matnga tayanish mezonlari yetakchi o'rin tutadi. U har bir tasavvufiy tushunchaning matndagi vazifasini, obrazlar tizimidagi o'rnini va shoir dunyoqarashini ochishdagi ahamiyatini ko'rsatishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufiy asarlar tahlilida olimning ilmiy mezonlari matn mazmunini chuqur anglash, istilohlarni to'g'ri izohlash, tarixiy-adabiy jarayon bilan bog'liq holda baholash, badiiy obraz va g'oya munosabatini aniqlash kabi jihatlarida namoyon bo'ladi. Ibrohim Haqqul tasavvufni insonning botiniy kamoloti, madaniyat va milliy tafakkur bilan bog'liq keng hodisa sifatida talqin qilsa, Abdurahmon Go'zal tasavvuf adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, yirik namoyandalari va asosiy istilohlarini badiiy matn asosida tahlil qiladi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy ijodiga oid mulohazalarda olimning tarixiylik, qiyosiylik va matniy tahlilga asoslangan ilmiy mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, tasavvufiy adabiyot tahlili olimdan nafaqat adabiyotshunoslik bilimini, balki diniy-irfoniy tushunchalarni chuqur anglash, matn ostidagi ramziy-ma'naviy qatlamlarni ochish salohiyatini ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Z.Rahmonova.Z.Ibrohim Haqqul haqiqati.Toshkent:Tirilish,2023.-B.95.
2. Komilov N. Tasavvuf. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud.www.kh-davron.uz
3. Abdurahmon Go'zal.Yassaviy. "Faqrnomasi Toshkent: "Navro'z",2014. B-180
4. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan .Ankara-2022. – B.10.
5. Abdurrahman Güzel. Alaeddin Gaybi Kaygusuz Abdal Gülistan .Ankara-2022. – S.22.



МОДЕЛИРОВАНИЕ И СТРУКТУРА СЛОВАРНОЙ СТАТЬИ ПРИ ФИКСАЦИИ МЕЖЧАСТЕРЕЧНОГО ПЕРЕХОДА СЛОВ



Жумаева Феруза

*доцент Навоийский государственный
университет*

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические и практические аспекты лексикографической фиксации частеречной транспозиции. Автор проводит сравнительный анализ принципов и структуры словарных статей в традиционных печатных изданиях и современных электронных ресурсах. Особое внимание уделяется способам отражения динамических процессов перехода слов из одной части речи в другую. В работе обосновывается необходимость совершенствования параметров описания переходных явлений в условиях цифровизации лексикографии, что позволяет более полно представить функциональный потенциал языка.

Ключевые слова: лексикография, частеречная транспозиция, традиционный словарь, электронный словарь, словарная статья, переходность.

Annotatsiya: ushbu maqolada soʻz turkumlari transpozitsiyasining leksikografik jihatlarining nazariy va amaliy jihatlarini koʻrib chiqiladi. Muallif anʼanaviy bosma nashrlar va zamonaviy elektron resurslardagi lugʻat yozuvlarining tamoyillari va tuzilishining qiyosiy tahlilini olib boradi. Soʻz turkumlarining bir turkumdan ikkinchisiga oʻtish dinamik jarayonlarini aks ettirish usullariga alohida eʼtibor beriladi. Maqolada raqamli leksikografiya kontekstida oʻtish hodisalarini tavsiflash parametrlarini takomillashtirish zarurati asoslanadi, bu tilning funksional imkoniyatlarini toʻliqroq tushunish imkonini beradi.

Kalit soʻzlar: leksikografiya, soʻz turkumlari transpozitsiyasi, anʼanaviy lugʻat, elektron lugʻat, lugʻat maqolasi, koʻchish.

Annotation: this article examines the theoretical and practical aspects of lexicographic recording of part-of-speech transposition. The author conducts a comparative analysis of the principles and structure of dictionary entries in traditional printed publications and modern electronic resources. Particular attention is paid to methods for reflecting the dynamic processes of word transition from one part of speech to another. The paper substantiates the need to improve the parameters for describing transitional phenomena in the context of digitalization of lexicography, which allows for a more complete understanding of the functional potential of language.

Keywords: lexicography, part-of-speech transposition, traditional dictionary, electronic dictionary, dictionary entry, transitivity.

Введение (Introduction). Частеречная транспозиция (переход слова из одной части речи в другую, например, субстантивация или адъективация) – один из самых продуктивных способов пополнения словарного состава. Однако её описание в словарях часто остается непоследовательным. Актуальность темы связана с необходимостью выработки единых стандартов описания таких единиц, особенно в условиях перехода лексикографии в цифровую среду.

Лексикографическая презентация частеречной транспозиции требует четкого понимания принципов и оптимальной структуры словарных статей. В данном параграфе мы рассмотрим основные принципы описания транспонированных слов в традиционных и электронных словарях, а также предложим рекомендуемую структуру словарных статей для каждого типа словарей. Анализ принципов позволит выделить ключевые аспекты, которые должны быть отражены при лексикографической фиксации явления частеречной транспозиции. Предлагаемые структуры словарных статей продемонстрируют оптимальный набор элементов и их последовательность для максимально эффективной подачи информации о транспонированных словах в зависимости от формата словаря.

Традиционная лексикография: возможности и ограничения

В бумажных словарях описание транспозиции обычно ограничено:

- Зона грамматических помет: использование помет *в знач. сущ.*, *в знач. прил.*
- Структура: транспозиты часто помещаются внутри одной словарной статьи в виде «за ромбом» (◇) или как отдельные подстатьи.
- Проблема: ограниченность места не позволяет подробно описать семантические сдвиги и сочетаемость, возникающие при переходе.

Электронная лексикография: новые горизонты

Современные электронные словари обладают значительным технологическим потенциалом, включая интерактивность, адаптивность, возможности контекстного поиска и визуализации данных. Эти преимущества, недоступные традиционным изданиям, обуславливают необходимость разработки специфических подходов к описанию частеречной транспозиции. В связи с этим в данной работе предлагается двухуровневая система лексикографических принципов, учитывающая особенности как печатных, так и цифровых ресурсов на материале русского и узбекского языков.

Электронные словари (и базы данных) меняют подход к структуре:

- Нелинейность: гиперссылки позволяют связать исходное слово и транспозит, сохраняя их этимологическую связь, но разделяя грамматически.
- Объём: возможность включения неограниченного количества примеров (корпусные данные) для иллюстрации того, как слово «начинает жить» в новой части речи.
- Динамичность: быстрая фиксация неологизмов-транспозитов, которые еще не закрепились в литературной норме.

Анализ литературы по теме (Literature review).

А.Ф. Гайнутдиновой были разработаны принципы представления транспозитов в словарях на примере субстантиватов³⁹. А.С. Цой исследовал принципы лексикографирования служебных слов⁴⁰.

Анализ и результаты (Analysis and results).

³⁹Гайнутдинова А.Ф. Частеречная транспозиция (субстантивация) в татарском языке в сопоставлении с русским языком: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Казань, 2011. – С. 14.

⁴⁰ Цой А.С. Лексикография русских служебных слов: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – М., 2008. – С. 9.

Подход А.С. Цоя к лексикографированию служебных слов представляет собой комплексный и многофакторный метод, который, на наш взгляд, заслуживает также внимания. Он учитывает не только лингвистические, но и психологические, технологические и даже социокультурные аспекты. Принцип равнозначности подчеркивает, что каждый тип служебных слов имеет свою значимость и не должен быть упущен или уменьшен в значении, что представляется особенно важным в контексте толковых словарей, где каждое слово имеет свою роль. Принцип учета особенностей и принцип учета потребностей являются ценными в том плане, что они делают словарь более «человеческим», адаптируя его под конкретные потребности и особенности пользователя. Принцип индуцирования каналов, который включает в себя использование визуальных и аудиальных методов, может существенно улучшить процесс усвоения информации, делая его более интерактивным и эффективным.

В целом, эти принципы могут сделать процесс лексикографирования более глубоким и многослойным, что, безусловно, положительно скажется на качестве отражения феномена частеречной транспозиции в словарях.

Признавая все достоинства вышеуказанных принципов, тем не менее мы считаем, что принципы составления словарных статей для презентации частеречной транспозиции должны учитывать специфику каждого типа словарей, чтобы максимально эффективно использовать их возможности.

Разработка отдельных принципов для традиционных и современных электронных словарей обусловлена рядом факторов [см. Рис. 1]:



Рис. 1. Различия традиционных и электронных словарей

Рис.1 наглядно демонстрирует факторы, обуславливающие необходимость разработки отдельных принципов для традиционных и электронных словарей. Сравним особенности каждого из указанных видов словарей:

1. Традиционные словари в печатном виде имеют ограниченный объем и линейную структуру, что накладывает определенные требования к компактности и системности подачи информации. Электронные словари не имеют таких жестких ограничений, в них можно реализовать более интуитивный и пользовательский интерфейс.

2. В электронных словарях возможно использование гипертекста, мультимедиа, интерактивных элементов, что позволяет структурировать информацию нелинейно и обеспечить более удобный доступ к ней.

3. В современных словарях можно использовать сложные алгоритмы для анализа семантики, что невозможно в традиционных печатных изданиях.

4. Электронные словари могут динамически обновляться и расширяться, что позволяет включать новые примеры и значения, отражающие текущие языковые тенденции. Традиционные словари статичны по своей природе.

5. Поиск информации в электронных словарях может осуществляться по разным параметрам. В печатных словарях поиск только последовательный.

6. Электронные словари могут предоставить больше контекстуальной информации, что особенно важно для понимания стилистических нюансов частеречной транспозиции.

7. Интерфейс электронных словарей позволяет учитывать удобство пользователя, включать подсказки, пояснения, что невозможно в традиционном словаре.

8. Традиционные словари часто ограничены тиражом и доступностью, в то время как электронные словари доступны гораздо широкому кругу пользователей.

Принципы формирования структуры словарной статьи

Для адекватного описания транспозиции структура статьи должна включать:

1. Грамматический блок: четкая фиксация исходной и производной категорий.

2. Семантический блок: описание приращения смысла (например, при субстантивации причастий – переход от действия к предмету).

3. Иллюстративный блок: примеры употребления, демонстрирующие синтаксическую роль слова.

Предлагаемая нами система принципов для лексикографического описания частеречной транспозиции в традиционных и электронных словарях учитывает несколько ключевых аспектов: формат подачи информации (статичный или динамический), структурную организацию словарной статьи и специфику пользовательского интерфейса при работе с грамматическими переходами.

Переход от традиционных словарей к электронным позволяет превратить описание транспозиции из краткой справки в многомерную модель. Основным принципом современной лексикографии становится системность: транспозиция должна рассматриваться не как ошибка или исключение, а как закономерный этап жизни лексемы.

Выводы и рекомендации (Conclusion/Recommendations).

Для практического применения предложенных нами принципов и структур словарных статей по лексикографическому описанию частеречной транспозиции лексикографам целесообразно учесть следующие наши рекомендации:

1. При составлении традиционных словарей уделить особое внимание принципам системности, дифференциации транспозиций, стилистической маркированности и др. Это позволит оптимально структурировать информацию в условиях ограниченного объема.
2. Использовать предложенную структуру словарной статьи как основу, варьируя элементы в зависимости от тематики словаря и особенностей описываемых единиц.
3. В электронных словарях максимально задействовать возможности мультимедиа, гипертекста, контекстного поиска для раскрытия разных аспектов транспозиции.
4. Следовать единой структуре электронной словарной статьи, при необходимости добавляя или убирая отдельные блоки.
5. Использовать оба типа словарей для взаимодополняющего описания транспозиции, ссылаясь при возможности из электронных статей на соответствующие традиционные и наоборот.
6. Проводить апробацию словарных статей с привлечением носителей языка, чтобы учесть восприятие пользователей.
7. Регулярно обновлять данные о транспозиции на основе анализа языковых корпусов и новых исследований.

Указанные рекомендации позволят лексикографам эффективно использовать изложенные в данной статье наши теоретические наработки по лексикографическому описанию частеречной транспозиции на практике для создания полноценных словарных статей.

Таким образом, в данной статье были рассмотрены принципы словарных статей для лексикографического описания частеречной транспозиции в традиционных и электронных словарях. Предложенные системы принципов и компонентов словарных статей позволят максимально полно и системно отразить феномен перехода слов из одной части речи в другую, используя сильные стороны каждого типа словарей. На наш взгляд, такая систематизация лексикографического описания частеречной транспозиции будет способствовать повышению качества ее презентации как в традиционных, так и электронных словарях.

Использованная литература

1. Гайнутдинова А.Ф. Частеречная транспозиция (субстантивация) в татарском языке в сопоставлении с русским языком: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Казань, 2011. – С. 14.
2. Жумаева Ф.Р., Мискинова Г.М. Транспозиция на уровне лексико-грамматических разрядов внутри частей речи. – Журнал: «Образование и

инновационные исследования», №3. – Бухара, 2021. – С. 15-20.
<https://interscience.uz/index.php/home/article/view/126/83>

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/13>

3. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. – Журнал: «Образование и инновационные исследования», №6. – Бухара, 2022. – С. 61-67.

<file:///C:/Users/Laser/Downloads/Extracted+pages+from+Beshimov+innovatsiya.pdf>

4. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2021. - №47 (389). - С. 468-472. - URL: <https://moluch.ru/archive/389/85522/>

5. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021. 12(90). - С. 15-20. URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/12760>

6. Jumaeva F. R., Mamurova F. N. Transposition of parts of speech as a non-morphological method of word formation //ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102). – 2021. – С. 566-572.

7. Назарова Ш.Б. Ўзбек ва корейс тилида адвербализация ҳодисасининг қиёсий таҳлили. – Ж.: Хорижий филология. <http://samxorfil.uz/maqola/ozbek-va-koreys-tilida-adverbalizatsiya-hodisasining-qiyosiy-tahlili>

8. Шамилова З.М. К вопросу об общем понятии транспозиции. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-obshchem-ponyatii-transpozitsii/viewer>

9. Цой А.С. Лексикография русских служебных слов: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – М., 2008. – С. 9.



METAFORIK TIZIMLARNI O'RGANISHDA KORPUS TILSHUNOSLIGINING O'RNI VA UNING ANALITIK IMKONIYATLARI



Mattiyev Abdulaziz

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada metaforik tizimlarni korpus tilshunosligi metodlari asosida tadqiq etishning dolzarbligi va metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda metaforaning an'anaviy periferik hodisadan fundamental kognitiv mexanizmga aylanishi, uning real diskursdagi leksik-sintaktik andazalari va tizimlilik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada korpus tilshunosligining "korpusga asoslangan" (corpus-based) va "korpusdan kelib chiqadigan" (corpus-driven) yondashuvlari, shuningdek, J. Stefanowitsch, D. Biber va J. Sinclair kabi olimlarning nazariy qarashlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Korpus tilshunosligi, metaforik tizim, kognitiv mexanizm, empirik tahlil, korpus metodlari, kollokatsiya, konkordans, MIP/MIPVU, leksik-sintaktik naqsh, o'zbek milliy korpusi.

Annotation: This article highlights the relevance and methodological foundations of researching metaphorical systems based on corpus linguistics methods. The study analyzes the transition of metaphor from a traditional peripheral phenomenon to a fundamental cognitive mechanism, exploring its lexical-syntactic patterns and systemic nature in real discourse. The paper examines "corpus-based" and "corpus-driven" approaches in corpus linguistics, along with the theoretical perspectives of scholars such as J. Stefanowitsch, D. Biber, and J. Sinclair. Particular attention is paid to modern metaphor identification methodologies, specifically MIP and MIPVU, their procedural stages, and empirical reliability.

Keywords. Corpus linguistics, metaphorical system, cognitive mechanism, empirical analysis, corpus methods, collocation, concordance, MIP/MIPVU, lexical-syntactic pattern, Uzbek national corpus.

Аннотация: В данной статье освещаются актуальность и методологические основы исследования метафорических систем на базе методов корпусной лингвистики. В исследовании анализируется трансформация метафоры из традиционного периферийного явления в фундаментальный когнитивный механизм, её лексико-синтаксические паттерны в реальном дискурсе и системные характеристики. В статье рассматриваются «корпусно-ориентированный» (corpus-based) и «корпусно-обусловленный» (corpus-driven) подходы в корпусной лингвистике, а также теоретические взгляды таких ученых, как А. Стефанович, Д. Байбер и Дж. Синклер.

Ключевые слова: Корпусная лингвистика, метафорическая система, когнитивный механизм, эмпирический анализ, корпусные методы, коллокация, конкорданс, MIP/MIPVU, лексико-синтаксический паттерн, узбекский национальный корпус.

Kirish. Metaforik tizimlarni korpus tilshunosligi asosida o'rganish dolzarbligi hozirgi tilshunoslikning uch yo'nalishdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Birinchi ehtiyoj, metaforaning til va tafakkur munosabatidagi o'rnini aniqroq empirik dalil bilan tushuntirishga borib taqaladi. Metaforaning kundalik tilda keng tarqalganligi va tushunish mexanizmlariga markaziy darajada ta'sir qilishi haqidagi qarashni asoslanishi, metaforani periferik uslubiy hodisa sifatidagi tasavvurni o'zgartirdi. Bu yondashuv metaforaning konseptual mexanizm sifatidagi maqomini mustahkamladi, biroq metaforaning real diskurslarda qanday leksik andazalarda va qanday ijtimoiy vazifalarda takrorlanishini izchil tekshirish masalasini ham kun tartibiga olib chiqdi. Ikkinchi ehtiyoj, metaforani yakkama yakkam obrazlar majmui sifatida ko'rmasdan, tizim holida tasvirlash zaruratidir. Tizimlilik biror metaforaning mavjudligini ko'rsatish bilangina tugamaydi; u manba sohaga daxldor leksik tarmoq, kollokatsion barqarorlik, sintaktik joylashuv, baholovchi modal birliklar bilan hamkorlik va janrlar bo'yicha taqsimlanish orqali namoyon bo'ladi. Uchinchi ehtiyoj, ilmiy xulosaning qayta tekshirilishidir. Metafora tahlilida faqat til sezgisi va tanlangan namunalar bilan ishlash tadqiqotchi zimmasiga ortiqcha interpretativ yuk yuklaydi; shu sababli xulosaning dalil bazasi kengaytirilmasa, umumlashtirishning ishonchliligi pasayadi. Korpus yondashuvi ana shu uch ehtiyojga bir vaqtning o'zida javob beradi: u real qo'llanishni ko'rsatadi, tizimlilikni ko'rinadigan qiladi, tekshiruvchanlikni ta'minlaydi

Korpus tilshunosligi — tilni haqiqiy foydalanish asosida o'rganuvchi, katta hajmdagi matnlar to'plami (korpus) orqali tilning leksik, grammatik va semantik qonuniyatlarini empirik usulda tahlil qiluvchi fandir. XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan, bu soha mustaqil ilmiy intizom sifatida shakllandi va tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida muhim metodologik vosita bo'lib qoldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metaforik tizimlarni o'rganishda korpus tilshunosligining roli alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy yondashuv metaforani asosan adabiy va badiiy nutqda ko'riladigan trep sifatida talqin qilgan bo'lsa, zamonaviy kognitiv tilshunoslik — ayniqsa Jorj Lakoff va Mark Jonsonning «Metaphors We Live By» asaridan so'ng — metaforani insonning voqelikni idrok etish tarzini aks ettiruvchi universal kognitiv mexanizm sifatida baholaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, korpus metodlari metaforik tizimlarning keng miqyosli empirik tahlilini amalga oshirishga imkon beradi.

Jorj Stefanowitsch va Stefan Gris tomonidan ishlab chiqilgan «metaforik kollokatsiya tahlili» (metaphorical collocation analysis) metodologiyasi korpus tilshunosligining metaforik tadqiqotlardagi eng muhim hissalaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali muayyan tushunchalar bilan birga qo'llaniladigan so'zlarning takrorlanish chastotasi va ularning metaforik ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik statistik

jihatdan aniqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi «argument is war» metaforasi korpus tahlili orqali «attack», «defend», «shoot down», «win», «lose» kabi so'zlarning «argument» bilan birga qo'llanilish naqshlari orqali empirik isbotini topadi.

Zamonaviy korpus tilshunosligida metaforik tahlil uchun quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo'llaniladi: birinchidan, korpus asosidagi metafor identifikatsiyasi (MIP/MIPVU — Metaphor Identification Procedure); ikkinchidan, kollokatsion tahlil va konkordans usuli; uchinchidan, chastotaviy tahlil va statistik modellashtirish; to'rtinchidan, kross-lingvistik (tillararo) qiyosiy tahlil. Ushbu metodlarning birgalikda qo'llanilishi metaforik tizimlarning tuzilishi, ishlash mexanizmi va madaniy-lingvistik xususiyatlari to'g'risida chuqur ma'lumot beradi.

O'zbek tilshunosligida korpus metodlariga murojaat qilish an'anasi hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, oxirgi yillarda milliy korpuslar yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek tilining milliy korpusi (uzcorpora.uz) va boshqa elektron resurslarning rivojlanishi bu sohada yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shunga qaramay, o'zbek tili metaforik tizimlarini korpus usulida o'rganish hali to'liq tadqiq etilmagan muhim ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Korpus tilshunosligi va korpus tahlili tushunchalari metaforik tizimlar tadqiqiga metodologik til — ya'ni nazariy konstruktlarni empirik tekshiruv vositalariga bog'laydigan amaliy til — beradi. T.McEnery va A.Hardie korpus tilshunosligini katta hajmdagi, mashinada o'qiladigan til ma'lumotlarini kompyuter yordamida tizimli tahlil qilishga tayangan yo'nalish sifatida tavsiflaydi va shu asosda ikki metodologik pozitsiyani farqlaydi : korpusga asoslangan (corpus-based) yondashuv, bunda oldindan shakllangan nazariy farazni empirik material orqali tekshirish ko'zda tutiladi; va korpusdan kelib chiqadigan (corpus-driven) yondashuv, bunda nazariy umumlashmalar bevosita korpus ma'lumotlaridan induktiv yo'l bilan hosil qilinadi. Metaforik tizimlar tadqiqida bu ikki yondashuv ko'pincha birga qo'llaniladi: kognitiv metafor nazariyasi doirasida shakllangan faraz korpusdan olingan dalil bilan sinalib, ayni vaqtda yangi metaforik naqshlar induktiv tarzda aniqlanadi.

D.Biber, S.Conrad va R.Reppen korpusning asosiy ilmiy qiymati uch jihatda namoyon bo'lishini ko'rsatadi: real til qo'llanishini tizimli kuzatish; registrlar va janrlar kesimida qiyosiy tahlil; chastota va tarqalish ma'lumotlariga tayangan izchil umumlashtirish . Ushbu uch jihat metaforik tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki metafora — xususan konventsional metafora — ko'pincha ong osti darajasida ishlaydi va uni izolyatsiyalangan misol orqali emas, balki katta hajmdagi matnlarda kuzatiladigan tizimli naqshlar orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

J.Sinclair konkordans va kollokatsiya vositalari orqali tilning yashirin naqshlarini yuzaga chiqarish mumkinligini, ko'p misolga tayangan generalizatsiya esa til tavsifini sifat jihatdan kuchaytirishi mumkinligini isbotlaydi . Uning «idiomatic principle»

tushunchasi — ya'ni til birliklari ko'pincha erkin emas, balki qat'iy leksik qurshovda, oldindan rejalashgan kombinatsiyalar shaklida namoyon bo'lishi haqidagi g'oya — metafora tadqiqotiga tatbiq etilganda ayniqsa samarali chiqadi: metaforik ma'no ko'p hollarda aynan mana shu qat'iy kollokatsion muhitda yashaydi.

Shu nazariy fonda «til birliklarini analitik kuzatish» deganda, ushbu tadqiqotda quyidagicha tushuniladi: muayyan til birligining mavjudligini oddiy qayd etish emas, balki uning korpusdagi miqdoriy tarqalishi, kontekstual muhitlari, kollokatsion sheriklari, sintaktik pozitsiyasi va diskursiv vazifalari bo'yicha dalil to'plash va o'sha dalilni metaforik tizim mantig'i doirasida izohlash. Bu farq metodologik jihatdan muhim: birinchi holda tahlil tasnifiy xarakter kasb etsa, ikkinchi holda u izohlovchi va nazariya-qurilishiga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi.

Korpus tahlilining uchta asosiy instrumenti — chastota, konkordans va kollokatsiya — metafor tadqiqotida o'zaro bog'liq zanjir sifatida ishlaydi. Chastota muayyan elementning korpusdagi umumiy faolligini belgilaydi va bu ko'rsatkich metaforik sxemaning tilshunoslik jihatidan qanchalik produktiv ekanini miqdoriy ifodalash imkonini beradi. Konkordans ushbu elementning konkret kontekstual ishlashini ko'rsatadi: KWIC (Key Word In Context) formati orqali tadqiqotchi so'zning yuzlab yoki minglab qo'llanilishini bir vaqtda kuzatishi, metaforik va metaforik bo'lmagan kontekstlarni ajratishi hamda semantik o'zgaruvchanlikning chegaralarini aniqlashi mumkin. Kollokatsiya esa elementning qaysi leksik muhitda muntazam barqarorlashishini, ya'ni qaysi so'zlar bilan statistik jihatdan sezilarli darajada tez-tez birga qo'llanilishini ochib beradi; bu ko'rsatkich metaforik sxemaning leksik «qobiqi»ni empirik asosda aniqlashga xizmat qiladi.

Metafora tadqiqotida bu uch instrumentning birgalikda qo'llanilishi sifat jihatdan muhim metodologik siljishni ta'minlaydi: «qaysi so'z metaforik ishlatilmoqda?» degan tasniflovchi savoldan «qaysi leksik-sintaktik naqsh metaforik tizimning faolligini ko'rsatadi?» degan tizimga yo'naltirilgan savolga o'tish imkoniyati vujudga keladi. Binobarin, korpus tahlili metaforik tizimlarni o'rganishda bir tomondan nazariy tushunchalarni (kognitiv metafor sxemalari, manba va maqsad sohalari) operatsion ko'rsatkichlar bilan (chastota, kollokatsion kuch, konkordans naqshlari) bog'laydigan, boshqa tomondan esa individual introspeksiya tayangan tahlildan intersubjektiv tekshiruvchanlikka asoslangan tahlilga o'tishni ta'minlaydigan metodologik vosita sifatida maydonga chiqadi.

Metaforik matnlarni korpusdan ajratib olish va tasniflashtirish jarayoni metodologik jihatdan puxta asoslanishni talab etadi, chunki metaforik ma'no ko'pincha leksik yuzada yashirin holda namoyon bo'ladi va uni aniqlash uchun tizimli, takrorlanadigan Jarayon zarur. Ushbu ehtiyojga bevosita javob sifatida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar orasida MIP (Metaphor Identification Procedure —

Metafora Identifikatsiya Jarayonsi) va uning rivojlangan versiyasi MIPVU (Metaphor Identification Procedure Vrije Universiteit Amsterdam) hozirgi kunda eng keng qo'llaniladigan standart sifatida e'tirof etilgan.

MIP metodologiyasini Pragglejaz Group ishlab chiqib, Metaphor and Symbol jurnalida e'lon qilgan bo'lib, uning maqsadi turli empirik tadqiqot kontekstlarida moslashuvchan tarzda qo'llanilishi mumkin bo'lgan, aniq va ishonchli metafora identifikatsiya vositasini yaratishdan iborat edi. Jarayon to'rt bosqichdan tashkil topadi: (1) matnni to'liq o'qib, uning umumiy mazmunini anglash; (2) matnning barcha leksik birliklarini aniqlash; (3) har bir leksik birlikning berilgan kontekstdagi ma'nosini belgilash; (4) ushbu kontekstual ma'noni leksik birlikning asosiy — ya'ni zamonaviy tilda eng konkret, jismoniy yoki aniq bo'lgan — ma'nosi bilan taqqoslash: agar kontekstual ma'no asosiy ma'nodan farq qilsa va shu bilan birga asosiy ma'no orqali qisman tushuntirilsa, mazkur birlik metaforik deb belgilanadi. MIP o'zining «maksimalist» yondashuvi bilan ajralib turadi: keng doiradagi so'zlar kontekstdagi qo'llanishiga asoslanib metaforik deb baholanishi mumkin, bu esa Jarayonning qamrovini kengaytiradi. Metodologik jihatdan MIPning asosiy kuchi uning intersubjektivligi — ya'ni turli tadqiqotchilar tomonidan mustaqil qo'llanilganda ham nisbatan barqaror natijalar berishi — sifatida qayd etiladi.

Xulosa. MIPVU metodologiyasi Steen va hammuallif tomonidan VU University Amsterdam'da ishlab chiqilgan bo'lib, MIP prosedurasida asosida qurilgan va uning rivojlangan, aniqroq versiyasini ifodalaydi; uning amaliy qo'llanilishi ingliz tilidagi yangilik matnlari, suhbatlar, badiiy va akademik matnlar, shuningdek niderlandcha matnlar bilan bog'liq beshta tadqiqot misolida namoyish etilgan. MIPdan farqli o'laroq, MIPVU tahlil birligini «so'z»dan «leksik birlik»ka kengaytiradi va bu orqali ko'p komponentli birliklar, frazeologik iboralar hamda xos nomlarni ham tahlil qamroviga kiritadi. MIPVU leksik metaforalarni uchta asosiy turga ajratadi: bilvosita metaforalar (indirect metaphors) — manba va maqsad soha o'rtasidagi akslantirish yashirin tarzda ifodalangan; to'g'ridan-to'g'ri metaforalar (direct metaphors) — metaforik akslantirish o'xshatma yoki figurativ markyor orqali ochiq belgilangan; yashirin metaforalar (implicit metaphors) — metaforik ma'no eksplikit ifodavsiz kontekstdan kelib chiqadi. MIPVU to'rt ingliz registri (yangilik matnlari, suhbat, badiiy adabiyot, akademik matn) va ikki niderlandcha registrda (yangilik, suhbat) empirik sinovdan o'tkazilgan bo'lib, ishonchlilik testlari muvaffaqiyatli natijalar bergan. Ushbu tasnif korpusdagi metaforik birliklarni yanada aniq va tizimli tavsiflash imkonini beradi hamda metafor annotatsiyali korpuslar yaratish va avtomatik metafora identifikatsiya tizimlarini o'rgatish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гофуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012. – 216 б.
2. Йўлдошев М. Ўзбек бадий матнида фразеологик бирликларнинг семантик-стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 184 б.
3. Йўлдошев М. Бадий матнда истиоранинг когнитив-семантик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. – № 4. – Б. 47–53.
4. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.
5. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 196 б.
6. Мирзаев С. Ўзбек тили лексикографияси тарихи: филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2010. – 142 б.
7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.



LINGVISTIK EKSPERTIZA VA UNING REKLAMALAR UCHUN AHAMIYATI



Sobirova Dilnoza Rasulovna
*Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy reklama matnlarining lingvistik ekspertizasi masalalari yoritilgan. Reklama matnlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishning nazariy asoslari, huquqiy-me'yoriy manbalari hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. O'zbek ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan tibbiy reklama namunalari asosida chalg'ituvchi ma'lumotlar, manipulyativ birliklar, axloqiy-me'yoriy cheklovlar, uslubiy va mantiqiy nuqsonlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, tibbiy reklama, reklama matni, lingvist-ekspert, manipulyatsiya, reklama qonunchiligi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы медицинских рекламных текстов. Освещены теоретические основы, нормативно-правовые источники и практические аспекты лингвистического анализа рекламных сообщений. На основе материалов медицинской рекламы, распространяемой в средствах массовой информации и социальных сетях Узбекистана, проанализированы случаи использования вводящей в заблуждение информации, манипулятивных языковых средств, этических ограничений, а также стилистических и логических недостатков.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, медицинская реклама, рекламный текст, лингвист-эксперт, манипуляция, рекламное законодательство.

Abstract. This article examines the issues of linguistic expertise of medical advertising texts. The study discusses the theoretical foundations, legal and regulatory sources, and practical aspects of linguistic analysis of advertisements. Based on samples of medical advertisements distributed through mass media and social networks in Uzbekistan, cases of misleading information, manipulative language units, ethical restrictions, as well as stylistic and logical shortcomings are analyzed.

Keywords: linguistic expertise, medical advertising, advertising text, linguistic expert, manipulation, advertising legislation.

Kirish. Ma'lumki, lingvistik ekspertiza – bu tilshunoslik sohasiga oid bilimlar asosida huquqiy yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun amalga oshiriladigan ilmiy-tahliliy jarayondir. Reklama matnlari keng auditoriyaga va kuchli ta'sirga ega matnlar bo'lib, ulardagi yolg'on yoki chalg'ituvchi ifodalar iste'molchini aldashi yoki raqobatchilarni nohaq ko'rsatishi mumkin. Shunday holatlarda reklamalar yuzasidan lingvistik ekspertizalarining o'tkazilishi talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. M.Ablin o'z tadqiqotida "Lingvistik ekspertiza – bu matnni germeneytik o'rganish, bu filologik, "sekin o'qish" [1: 12] degan iqtibosni keltiradi. Odatda lingvistik-ekspertiza huquq-tartibot organlari topshirig'i asosida olib borilib, bunda yozma yoki og'zaki matnlarning tilshunoslik

nuqtayi nazaridan o'rganilib, mazkur o'rganish yuzasidan xulosa berilishi talab etiladi. Y.Kara-Murzaning qaydicha: Lingvistik ekspertiza nutq jinoyatining dalil bazasini izlash tartibi sifatida davlat va mustaqil markazlarda amalga oshiriladi [2: 274]. Bu amaliyot tilshunoslik sohasida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ekspertlar, ya'ni lingvist-ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi. Muhim jihati shundaki, ma'lum masala yuzasidan huquq-tartibot idoralarining kelajakdagi qarorlari bevosita lingvist-ekspert tomonidan berilgan xulosaga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan lingvist-ekspertdan alohida bilim va mas'uliyat talab etiladi. Lingvistik ekspertiza quyidagi holatlarda talab etiladi:

a) tahdid, haqorat yoki tuhmat mavjudligini aniqlash (bu odatda ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan postlar, bildirilgan fikrlar, SMS, audio, videoyozuvlarga nisbatan qo'llaniladi);

b) muallifning kimligini aniqlash (anonim xatlarning muallifini aniqlash maqsadida lingvistik ekspertiza tayinlanadi, ya'ni muallifning kimligi, yoshi, jinsi kabilarni aniqlash nazarda tutiladi);

d) matn ma'nosini talqin qilish (bu sud yoki tergov jarayonida muhim bo'lishi mumkin);

e) tergovdagi audio yoki video yozuvlarni tahlil qilish zarurati;

f) etnik, diniy, irqiy nizolarga olib keluvchi ifodalarni qo'llash bilan bog'liq holatlar;

g) intellektual mulk yuzasidan mualliflar o'rtasida nizoli hollar yuzaga kelganda o'xshashlik, ko'chirmachilik (plagiat)ni aniqlash lozim bo'lganda.

K.Musulmonova lingvistik ekspertizaning quyidagi turlari mavjudligini qayd etadi:

1) qo'lyozma matnlar (shaxsiy yozishmalar, e-mail xabarlar, sms xabarnomalar);

2) hujjat matnlari;

3) konfliktli matnlar;

4) ekstremistik materiallar;

6) reklama matnlari;

7) tovar belgilari;

8) gazeta matnlari lingvistik ekspertizasi [3: 27].

Reklamaning lingvistik ekspertizasi – bu reklama matni (yoki video/audio ko'rinishi)ning tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, uning qonuniyligi, ma'nosi, ta'sir kuchi va ehtimoliy zararli jihatlari aniqlanadigan ekspertizadir.

Reklamalarning lingvistik ekspertizasida reklama matnining amalda bo'lgan mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq holda yozilgan yoki yozilmaganligi, reklama matnida iste'molchiga yolg'on, shubhali, chalg'ituvchi ma'lumotlarning bor yoki yo'qligi, reklama matnida bosim, qo'rqitish yoki manipulyatsiya unsurlarining mavjud yoki mavjud emasligi, reklamada irq, jins, til, yosh yoki boshqa asosda kamsitishlar bor yoki yo'qligi, matnda qo'llangan ibora, kinoya yoki so'z o'yinlarining o'zgalar manfaatiga zarar yetkazadigan darajada yashirin ma'noga ega yoki ega emasligi kabilar xolisona aniqlanib, shular yuzasidan xulosa berilishi lozim.

Tadqiqotchi Q.Rayimov o'zining "O'zbek tili reklama matnlarining lingvistik ekspertizasi" deb nomlangan dissertatsiyasida reklama matnlarining lingvistik

ekspertizasi uchun quyidagi huquqiy va me'yoriy manbalardan foydalanilishi lozimligini qayd etadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi kodekslari;
- 3) "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun;
- 4) "Reklama to'g'risida"gi Qonun;
- 5) "Raqobat to'g'risida"gi Qonun [5: 81-82].

Tibbiy reklamalarning lingvistik ekspertizasi orqali quyidagi jihatlar aniqlanib, oldi olinadi:

- 1) tibbiy terminlarning noto'g'ri va noo'rin qo'llanilishi;
- 2) ilmiy asosga ega bo'lmagan, chalg'ituvchi yoki yolg'on bayonotlar;
- 3) asossiz va psixologik jihatdan bosim o'tkazishga sabab bo'luvchi iboralar (100 % *davolaydi, mutlaqo nojo'ya ta'siri yo'q, eng yaxshi dori* kabi);
- 4) boshqa tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar yoki mahsulotlarni bilvosita kamsitish holatlari;
- 5) reklama matnida iste'molchiga noto'g'ri yoki yanglish anglashilishi mumkin bo'lgan ma'lumot berish;
- 6) axloqiy va madaniy me'yorlarga zid ifodalar.

Tahlil va natijalar. Mahsulotlar targ'ibotida tadbirkorlar xaridorlarni ko'paytirish, tovarlarni tezroq tugatish, umuman olganda, foyda olish maqsadida turli-tuman aksiyalar o'tkazadilar. Bunday aksiyalar doirasida chegirmalar, sovrinli o'yinlar, "birini olsangiz ikkinchisi bepul" kabi takliflarni o'z ichiga olgan reklamalar, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot kampaniyalari tashkil qilinadi. Shu yo'l bilan ular mijozlarda mahsulotga nisbatan qiziqish uyg'otadi, sotuv hajmini oshiradi va bozordagi raqobatda ustunlikka erishishga harakat qiladi.

Quyidagi tasvirlarda dori vositasi targ'ibotida to'g'ridan to'g'ri aksiyani kuzatish mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Dori vositalari targ'ibotida rag'batlantiruvchi aksiyalarning qo'llanilishi

Dastlabki reklama matnida: *Voltaren. Mushak va bo'g'im og'riqlaridan xalos bo'ling! Xohlagan qadoqdagi Voltaren Enlightni sotib oling va sovg'aga sochiq oling!* kabi jumllarini kuzatish mumkin. Ikkinchi tasvirda esa bevosita tibbiy mahsulotning

oʻzida “Aksiya” yozuvi mavjud boʻlib, bundan “*Teraflyu*”ni sotib olsangiz, **sovgʻaga termometr beriladi** degan xabar anglashiladi. Yangi tahrirdagi “Reklama toʻgʻrisida”gi Qonunning 34-moddasi “Dori vositalarini reklama qilish” deya nomlangan boʻlib, mazkur moddada dori vositalarining reklamasi sohasida ragʻbatlantiruvchi aksiyalar oʻtkazish taqiqlanishi belgilangan. Demak, yuqoridagi dori vositalari targʻibotidagi singari aksiya eʼlon qilish, xususan, dori vositasini sotib olish sharti bilan sovgʻaga sochiq, termometr kabi buyumlarni berishni “vaʼda qilish” qonunan javobgarlikka tortishga asos boʻladi.

Amaldagi qonunchilikka koʻra, dori vositalari reklamasida taniqli shaxslarning, tibbiyot xodimlarining yoki tashqi koʻrinishi shifokorlarning tashqi koʻrinishiga oʻxshash shaxslarning ishtirok etishi taqiqlangan. Mifon dori vositasi reklamasida qoʻshiqchi Rashid Xoliqovning targʻibotini kuzatishimiz mumkin. Dori vositalari reklamasiga nisbatan biologik faol qoʻshimchalar (BFQ) reklamasida mashhur shaxslarning targʻibotiga koʻp oʻrinlarda guvoh boʻlmoqdamiz: Kardiozan plyus (Erkin Komilov), GemoPro (Ubaydulla Omon, Rixsitilla Ibragimov). Fikrimizcha, BFQlar targʻibotida ham mashhur shaxslarning ishtirokini taqiqlash lozim.

Yangi tahrirdagi “Reklama toʻgʻrisida”gi Qonunning 35-moddasida BFQlarning qoʻllanilganligi munosabati bilan reklamada jismoniy shaxslar tomonidan bildirilgan minnatdorchilik izhorini oʻz ichiga olmasligi lozimligi belgilangan. 2022-2023-yillardagi tibbiy reklamalarda bunday holatlarga tez-tez guvohi boʻlar edik. Jismoniy shaxslarning minnatdorchiligi aks etgan reklamalarning aksariyati tibbiyot muassasalari (shifoxonalar) targʻibotiga qaratilgan edi:

Bemor ayol:

– *Oyogʻimni bosolmas edim. Oyogʻim yerga oʻrnamas edi. Mana bu yerga kelib oyogʻimning tagi oʻrnaydigʻon boʻldi. Uyda qiynalib yotmang! Albatta keeling! Albatta shifo bersin hammamizga.*

Bemor ayol:

– *Mana shu Guanjou shifoxonasiga koʻrindim. Birinchi kelganimda oyogʻim bilan belim ogʻrirdi. Hozirgi kunga kelib bulardi ignaterapiyalarini oldim. Dori-darmonlarini ichdim, 10 kun davolandim. Yaxshi boʻldim. Guanjou shifoxonasi xodimlariga kattakon rahmat aytaman! Meni davolashgani uchun ularga minnatdorchilik bildiraman.*

Erkak bemor:

– *Men insult kasali bilan tibbiyot markaziga keldim. Hozirga ignaterapiya bilan yaxshi davolashdi. Hozirgi holatlarim juda chiroyli. Guanjou tibbiyot markaziga katta rahmat! Yaxshi davolashdi. Guanjou zoʻr!*

Ayni kunlarda OAV orqali eʼlon qilinayotgan tibbiyotga oid reklamalarda jismoniy shaxslar tomonidan bildirilgan minnatdorchilik izhorini oʻz ichiga olgan reklamalar kuzatilmayapti. Ammo ijtimoiy tarmoqlar orqali eʼlon qilinayotgan reklamalarning salmoqli qismini mana shunday jismoniy shaxslar tajribasi, minnatdorligini oʻz ichiga olgan tibbiy reklamalar tashkil etadi.

Oʻzbek oilalarida erkak va ayol munosabatlari sir tutiladi. Ayniqsa, ibo, hayo, or-nomus singari tushunchalar farzandlarning bolaligidanoq singdirilib kelinadi. Ammo

ayrim tibbiy reklamalarda “parda” ko‘tarilib boryapti. Jinsiy hayot borasidagi ma’lumotlar tibbiy reklamalarda ochiq-oydin berib borilyapti:

*Bugungi kunda ahvol shundaki, o‘rta yoshli erkaklar, hatto ba’zi yoshlar ham jinsiy quvvat, ya’ni potentsiya bilan bog‘liq muammolarga duch kelishmoqda. Shifokor huzuriga borishdan qo‘rqib, erkaklar **jinsiy quvvatni** oshiruvchi dorilar, ya’ni sun’iy preparatlarga suyanib qolib tabiiy vositalar esdan chiqmoqda. Erkak organizmida testesteronning pasayishi potentsiya va **jinsiy imkoniyatlarning zaiflashuviga** sabab bo‘ladi. Bu, ayniqsa, o‘rta va katta yoshdagi erkaklarga taalluqlidir...*

Mahsulot tarkibida L-carnitin ham bor. Bu degani **spermatazoidlarning sifati hamda harakatchanligini** rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Ha, aytgancha, yaxshi niyatda **farzandli bo‘laman deyayotgan akalar**, umidingizni so‘ndirmang.

... semizlik nafaqat testeron darajasini pasaytiradi, balki **ayollarning jinsiy gormoni** – estrogen darajasini oshiradi. Bu esa erkakning umumiy salomatligini yomonlashtiradi.

... Androvert tarkibidagi selen esa tanaga aynan **erkak jinsiy gormoni** – testosteronni ishlab chiqarishga yordam beradi (“Androvert” reklama matnidan).

Garchi mazkur reklama roligida 18+ belgisi qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularni yosh o‘smirlar ko‘rmayapti deb ayta olmaymiz. “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida reklamalarda milliy va oilaviy an‘analarga, shuningdek, axloq va ma’naviyatning umum qabul qilingan normalariga zid bo‘lgan shakllar, iboralar va obrazlardan foydalanish [4] taqiqlanishi belgilangan.

Odatda, reklama matni tayyor bo‘lgandan so‘ng kopirayterlarning aksariyati uni zudlik bilan efirga uzatishga (bosib chiqarishga) harakat qiladi. Lekin har qanday matnni tayyor bo‘lishi bilan adresatga taqdim etish har doim ham yaxshi samara bermaydi. Boisi bunday matnlarda matn mazmunidagi mantiqiylik ta’minlanmay qolishi, matndagi so‘zlar imlosi va tinish belgilari bilan bog‘liq kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Reklama matni mahsulot muvaffaqiyati uchun ikki hissa ahamiyatlidir. Shunday holat “Karsil” preparati reklamasi matnida kuzatiladi: *Sog‘lom jigar – mukammal hayotning garovi. Ammo zararli odatlar, spirtli ichimliklar va **qabul qilingan dorilar** unga doim o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Karsil – jigarni toksinlardan himoya qiladi va uning qayta tiklanishini ta’minlaydi.* Mazkur reklama matni bilan tanishgan adresat dastlab zararli odatlar, spirtli ichimliklar, qabul qilingan dorilar jigarga salbiy ta’sir etishi xususidagi axborotni qabul qiladi. Buning davosi sifatida reklamada “Karsil”ni qo‘llash tavsiya etiladi. Shu o‘rinda adresat ongida paradoks hosil bo‘lishi tabiiy: *Qabul qilingan dorilar jigarga salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan, demak “Karsil” ham bundan mustasno emas. Axir u ham dori-ku!* Shu bois tayyor bo‘lgan reklama matnini bir necha bor sinchiklab o‘qish va tahrirlash juda muhim.

Lamifaren! Bepul shifokor maslahati. Mazkur reklama matni parchasidan “bepul shifokor” ifodasi anglashiladi. Aslida jumla *shifokorning bepul maslahati* tarzida ifodalanishi lozim edi.

Ayrim tibbiy reklama matnlarida esa varvarizmlar (asosan so‘zlashuv uslubiga xos, adabiy tilga to‘la o‘zlashmagan, yotligi bilinib turuvchi so‘zlar) qo‘llanganini kuzatish mumkin:

Kardiozan plus mahsulotini tavsiya etamiz. Mahsulot **davleniya** ko'tarilishining oldini oladi ("Kardiozan plus" vositasi reklama matnidan).

Eng muhimi, mahsulot **svecha** ko'rinishida bo'lib, ichki a'zolarga nojo'ya ta'sir qilmasdan to'g'ridan to'g'ri qo'llanilganligi uchun qisqa vaqt ichida natija beradi ("GemoPro" vositasi reklama matnidan).

Shu o'rinda tibbiyotga oid reklamalarda qo'llanilayotgan ayrim so'zlarni boshqa bir muqobiliga o'zgartirish maqsadga muvofiq (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Tibbiy reklamalarda qo'llanilayotgan ayrim birliklar va ularni almashtirish mumkin bo'lgan muqobillari

T./r.	Tibbiy reklamalarda faol qo'llanilayotgan so'z (so'z birikmasi)	Taklif etilayotgan muqobil so'z (so'z birikmasi)
1.	Shifokor retsepti	Shifokor dorinomasi
2.	Svecha	Shamdori
3.	Krem yoki maz	Malhamdori, surtma
4.	(dorini) qabul qilmoq	(dorini) iste'mol qilmoq, ichmoq
5.	Tabletka (kapsula)	Xapdori
6.	Sirop	Qiyom

Xulosa. Lingvist-ekspert yaratilgan reklama matnini tahlil qilganidan so'ng matn yuzasidan ijobiy xulosa bersagina, ushbu reklama OAVda e'lon qilinishi mumkin bo'ladi. Lingvistik ekspertiza reklamaning maqsadli auditoriyaga to'g'ri, tushunarli va neytral tarzda yetkazilishini ta'minlaydi, tibbiy reklamaning ixtisoslashganligi va unga mas'uliyat bilan yondashish lozimligi e'tiborga olinsa, reklamalarda faqat foyda olish maqsadida qo'llaniluvchi jumladan voz kechishga yordam beradi, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, aholining sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan munosabatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli tibbiyotga oid reklamalarda lingvist-ekspert xulosasi majburiy bo'lishi, nafaqat maqsadli auditoriyaning huquqlarini himoya qilishga, balki sog'lom raqobat va mas'uliyatli axborot muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida tibbiy axborotlar madaniyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аблин М.В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2016. – С. 12.
2. Кара-Мурза Е.С. Лингвистическая экспертиза как инструмент языковой политики // Труды Института русского языка им. В.В. Виноградова. – М., 2014. – Вып. 2. – С. 204.

3. Musulmonova K. Lingvistik ekspertizaning umumiy metodlari // Til va adabiyot ta'limi. – 2021. – № 8. – B. 27–31. – URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/2.musulmonova_kamola_km-8-son_compressed.pdf
4. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 7-iyun, O'RQ-776-son. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>
5. Rayimov Q. O'zbek tili reklama matnlarining lingvistik ekspertizasi: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2025. – B. 81–82.

**ГЛОБАЛЛАШУВ ВА ЛИНГВОЭКОЛОГИК
ПАРАДИГМА ШАРОИТИДА ЎЗБЕК ТИЛИ
ЛЕКСИКАСИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ФУНКЦИОНАЛ ТАБАҚАЛАНИШИ
ҲАМДА ДИНАМИК РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

Наралиева Шахло
*педагогика фанлари бўйича
фалсафа (PhD) доктори,
Қозоғистон Республикаси,
Жумабек Ташенев номи университети*

Аннотация: Ушбу мақолада замонавий глобаллашув, рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши ва лингвоэкологик парадигма шароитида ўзбек тили луғат таркибининг ижтимоий-функционал табақаланиши ҳамда динамик тараққиёт қонуниятлари комплекс равишда тадқиқ этилган. Ишда илк бор ўзбек тили лексикасига сўз ўзлаштириш жараёнига таъсир этувчи тарихий-маданий, ижтимоий-сиёсий, илмий-техник, иқтисодий, лингвистик, экологик-худудий ҳамда медиа муҳит омиллари 7 та тизимли гуруҳга таснифланган.

Калит сўзлар: лингвоэкология, глобаллашув, ижтимоий-функционал табақаланиши, ассимиляция, диссимиляция, жаргон, арго, вулгаризм, неологизм, окказионализм, экологик дискурс, семантик конверсия.

Аннотация: В данной статье комплексно исследуются социально-функциональная дифференциация и закономерности динамического развития словарного состава узбекского языка в условиях современной глобализации, стремительного развития цифровых технологий и лингвоэкологической парадигмы. В работе впервые классифицированы в 7 системных групп историко-культурные, социально-политические, научно-технические, экономические, лингвистические, экологическо-территориальные факторы и влияние медиасреды на процесс заимствования слов в лексику узбекского языка.

Ключевые слова: лингвоэкология, глобализация, социально-функциональная дифференциация, ассимиляция, диссимиляция, жаргон, арго, вулгаризм, неологизм, окказионализм, экологический дискурс, семантическая конверсия.

Abstract: This article comprehensively investigates the socio-functional differentiation and dynamic development patterns of the Uzbek vocabulary under the conditions of modern globalization, rapid digital advancement, and the lingua-ecological paradigm. For the first time, historical-cultural, socio-political, scientific-technical, economic, linguistic, eco-territorial, and digital media environment factors influencing the process of loanword adaptation into the Uzbek lexicon are classified into 7 systematic groups.

Keywords: lingua-ecology, globalization, socio-functional differentiation, assimilation, dissimilation, jargon, argot, vulgarism, neologism, occasionalism, ecological discourse, semantic conversion.

КИРИШ (INTRODUCTION)

Замонавий жаҳон тилшунослигида тил тизимининг ижтимоий воқелик билан алоқасини янги назарий парадигмалар — социолингвистика, лингвокультурология ва лингвоэкология (экотилшунослик) контекстида тадқиқ этиш устувор йўналишлардан бирига айланди. Ҳар қандай миллий тилнинг луғат фонди ижтимоий ҳаётнинг, маданий-иқтисодий трансформацияларнинг ва сиёсий эволюциянинг бевосита маҳсули сифатида доимий ҳаракатдаги динамик тизимдир. Ўзбек тили ўзининг кўп асрлик тарихий тараққиёти давомида луғат таркибини ҳам ички деривацион манбалар, ҳам ташқи лисоний таъсирларнинг мутаносиблиги асосида бойитиб, такомиллаштириб келди. Лингвистик қонуниятларга кўра, тилнинг ўз қатлам негизлари асосида янги лексемалар ясалиши, мавжуд сөз маноларининг кенгайиши ва ижтимоий-ҳудудий чегараланган бирликларнинг адабий тил меъёрларига интеграциялашуви изчил давом этувчи жараёндир.

Бироқ, бугунги глобаллашув ва рақамли технологиялар асрида тиллараро ва маданиятлараро мулоқотнинг беқийс даражада тезлашиши ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-функционал табақаланишида туб сифат ва миқдор ўзгаришларини юзага келтирмоқда. Ахборот маконининг кенгайиши, ижтимоий тармоқлар дискурсининг шаклланиши ва халқаро интеграция жараёнлари тилга янги оқимдаги неологизмлар, соҳавий атамалар ва чет эл ўзлашмаларининг кириб келишини фаоллаштирди. Бу эса, ўз навбатида, миллий тилнинг софлигини, унинг ички тизимли қонуниятларини ва “туркона табиати”ни сақлаш, тилга кириб келаётган янги лисоний бирликларни илмий асосда тартибга солиш заруратини туғдиради. Мақолада ўзбек тили лексикасида сўз ўзлаштиришнинг кўп омилли табиати, фонетик ассимиляция ва диссимиляция ҳодисаларининг лингвоэкологик жиҳатлари, луғат таркибининг ижтимоий-функционал қатламлари (диалект, жаргон, арго, вулгаризм) ва замонавий неологизмларнинг шаклланиш механизмлари комплекс равишда таҳлил қилинади.

Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади — замонавий ўзбек тили луғат таркибининг ижтимоий-функционал табақаланишини глобаллашув ва лингвоэкологик омиллар билан узвийликда очиқ бериш, тизимдаги динамик ўзгаришларнинг лисоний ва нолисоний табиатини аниқлашдан иборат. Қўйилган мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифаларни бажариш назарда тутилган:

- ўзбек тили лексикасининг бойиш манбаларини ички ва ташқи омиллар кесимида тизимлаштириш;

- сўз ўзлаштириш жараёнига таъсир этувчи тарихий, ижтимоий-сиёсий, илмий-техник, иқтисодий ва лингвоэкологик детерминантларни 7 та асосий гуруҳга таснифлаш;

- нутқ жараёнидаги фонетик ассимиляция ва диссимиляция ҳодисаларининг нафақат товуш даражасидаги, балки экологик ва ижтимоий дискурсдаги семантик-мослашув хусусиятларини аниқлаш;

- қўлланилиш доираси чегараланган лексик бирликларнинг (диалектлар, жаргонлар, арголар ва вулгаризмлар) бадиий матндаги экспрессив-услубий вазифаларини баҳолаш;

- неологизмлар ва окказионализмларнинг умумий ҳамда хусусий жиҳатларини белгилаш, экологик дискурс неологизмларининг шаклланиш йўллари тизимли ёритиш.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тил лексикасининг ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар билан детерминланиши ва тиллараро қонуниятлар асосида трансформацияга учраши классик ва замонавий тилшуносликда узоқ тарихга эга. Буюк мутафаккор Алишер Навоий ўзининг “*Muhokamat-ul lug‘atayn*” асарида тилларнинг луғат бойлиги, уларнинг ифода имкониятлари ва маданий-ижтимоий мақомини қиёсий таҳлил қилар экан, араб тилининг болоғат ва фасоҳат тизимига алоҳида баҳо беради: “*Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog‘at tazyini bila mo‘jizatirozdurkim, hech takallum ahlining munda da‘vosi yo‘qdur*” [1]. Навоийнинг бу эътирофи тиллараро таъсир ва сўз ўзлаштиришнинг маданий-эстетик эҳтиёж замирида юз беришини кўрсатувчи дастлабки илмий хулосалардандир.

Ўзбек тилшунослигида луғат таркибининг тараққиёт қонуниятлари, сўз ясалиши ва ўзлаштирилган қатлам муаммолари У.Турсунов, Ж. Мухторов, Ш.Раҳматуллаев [2], Х.Дониёров [3], Р.Дониёров [4] каби олимларнинг тадқиқотларида изчил ўрганилган. Ушбу классик ишларда тилнинг ички имкониятлари асосий пойдевор сифатида баҳоланиб, ташқи манбаларнинг кириб келиши тарихий-ижтимоий шароитлар (араб истилоси, форс-тожик қўшничилик алоқалари, Россия империяси ва Совет даври сиёсати) билан боғлаб тушунтирилган.

Замонавий парадигмалар доирасида бадий матннинг лингвопоэтик ва услубий жиҳатлари, индивидуал сўз яшаш маҳорати ва нутқнинг индивидуал хусусиятлари профессор М.Йўлдошев [5], М.Б.Қосимова [6] ва С. Умирова [7] томонидан тадқиқ этилган. Хусусан, С. Умирова ўзбек шеъриятидаги лингвистик воситалар ва поэтик индивидуалликни ўрганар экан, умумийлик сифатидаги адабий тил меъёрлари билан хусусийлик сифатидаги шеърий нутқ ўртасидаги диалектик зиддиятни ва ундаги окказионал бирликларнинг тутган ўрнини аниқлаб берган [7]. Шунингдек, тилнинг назарий масалалари ва ижтимоий табиати А.Нурмонов асарларида ҳам ўзининг чуқур ифодасини топган [8].

Методология. Ушбу мақолада тил бирликларини тизимли ва функционал-семантик жиҳатдан таҳлил қилиш мақсадида бир қатор методлар мажмуасидан фойдаланилди. Дастлаб, тил элементларининг ижтимоий муҳит билан алоқасини аниқлашда социолингвистик метод, сўзларнинг нутқий воқеланиши ва бадий мақсадларга хизмат қилиш даражасини баҳолашда контекстуал ва қиёсий-услубий таҳлил методлари қўлланилди. Янги кириб келаётган экологик ва технологик атамаларнинг тизимлашишини ўрганишда лингвоэкологик (экотилшунослик) ёндашув етакчилик қилди. Тадқиқотнинг материаллар базасини ҳозирги ўзбек адабий тили луғатлари, ОАВ матнлари, ижтимоий тармоқлар дискурси ва классик ҳамда замонавий ўзбек адабиёти (Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Тоғай Мурод ва б.) намуналари ташкил этади.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

1. Ўзбек тили лексикасида сўз ўзлаштиришнинг тизимли-динамик омиллари

Тил — ўз-ўзини бошқарувчи ва доимий равишда ривожланувчи мураккаб семиотик тизимдир. Унинг лексик сатҳи ижтимоий ҳаётдаги энг кичик ўзгаришларга ҳам тезкорлик билан муносабат билдиради. Ўзбек тили тарихи гувоҳлик беришича, луғат фондининг бойиши икки йирик манба: ички маҳсулдорлик ва ташқи деривация (ўзлаштириш) ҳисобига амалга оширилган. Ички манбалар тилнинг ўз морфемик ва семантик ресурсларига таянса-да, дунёдаги ҳеч бир тил мутлақ изоляцияда ривожлана олмаслиги боис, ташқи манбалардан сўз қабул қилиш тил тараққиётининг қонуний ва табиий ҳодисаси ҳисобланади.

Тилдан тилга сўз ўтиши шунчаки луғат бойлигининг механик кўчиши эмас, балки мураккаб лингвистик ва ижтимоий-тарихий жараёндир. Бунинг учун, энг аввало, икки ёки ундан ортиқ халқларнинг бевосита маданий, иқтисодий ва сиёсий ҳамкорлиги натижасида юзага келувчи билингвизм (иккитиллилик) шароити зарур бўлади. Тарихий ва замонавий муҳитни таҳлил қилган ҳолда, ўзбек тилида сўз ўзлаштиришни белгиловчи асосий омилларни 7 та тизимли гуруҳга ажратиб ўрганамиз:

1. Тарихий ва маданий омиллар. Ўзбек халқи ўзининг этник ва давлатчилик тарихи давомида Марказий Осиё ва жаҳон цивилизацияси марказлари билан фаол мулоқотда бўлган. Бунинг натижасида тилимизда бир нечта йирик ўзлашма қатламлар шаклланган:

Арабча қатлам: Араб истилоси ва ислом динининг қабул қилиниши натижасида тилимизга маънавий, диний, илмий ва фалсафий тушунчаларни ифодаловчи катта ҳажмдаги лексика кирди (*илм, китоб, мактаб, муаллим, адолат, ҳукм*).

Форс-тожикча қатлам: Асрлар давомида давом этган маданий-иқтисодий ва қўни-қоўшничилик алоқалари маиший, деҳқончилик, хунармандчилик ва бадий соҳага оид сўзларнинг ўтишини таъминлади (*дунё, бог, девор, сабзи, ҳафта, замин*).

Классик европа (юнон ва латин) қатлами: Илмий-академик ва таълим тизими орқали кириб келган халқаро терминлар (*философия, биология, демократия, театр, университет, факультет, директор, доктор, аудитория*).

Русча қатлам: Сиёсий ва маъмурий таъсирлар, техника ва саноатнинг кириб келиши даврида шаклланган қатлам (*завод, поезд, машина, вагон*).

Инглизча қатлам: Замонавий ахборот ва рақамли технологиялар, глобал бизнес муҳити маҳсули (*компьютер, интернет, маркетинг, менежер, бренд*).

2. Ижтимоий-сиёсий омиллар. Жамиятдаги сиёсий тузумнинг ўзгариши тил сиёсати ва демакки, лексикага тўғридан-тўғри таъсир қилади. Мустамлакачилик ва Иттифок даврида рус тилининг воситачилик роли ҳаддан ташқари кучли бўлган бўлса, Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг миллий терминологияни тиклаш ва софлаштириш (пуризм) жараёни бошланди.

Таъкидлаш жоизки, XX асрнинг 90-йиллари бошларида русча-интернационал сўзларни асоссиз равишда мажбурий ўзбекчалаштириш ёки

уларни эскирган араб-форс сўзлари билан алмаштириш тенденцияси кузатилди. Масалан: *радио* – *овознигор*; *телефон* – *дуровоз*; *газета* – *рўзнома*; *самолёт* – *тайёра/учоқ*; *аэропорт* – *тайёрагоҳ*; *журнал* – *ойнома*; *кафедра* – *минбаргоҳ*; *автобус* – *кўпкурси*; *республика* – *жумҳурият*; *директор* – *бошқон*. Аммо тилнинг ўзини ўзи тозалаш ва табиий мувозанатни сақлаш қонуниятига кўра, бу сунъий янгиликлар умумистеъмол тилидан жой ололмади ва амалиётда барбод бўлди. Бу эса тилни маъмурий йўл билан мажбуран ўзгартириб бўлмаслигини кўрсатади.

3. Илмий-техник тараққиёт. Фан ва техниканинг жадал ривожланиши янги буюм, қурилма ва тушунчаларни тезкорлик билан номлашни талаб қилади. Бугунги кунда янги технологиялар, рақамли воситалар билан боғланувчи атамалар тилимизга тайёр ҳолда тўғридан-тўғри кириб келмоқда (*электромобиль, қуёш панели, файл, сайт, радар*).

4. Иқтисодий омиллар. Глобал молиявий тизим ва бозор иқтисодиёти тамойилларининг кириб келиши натижасида замонавий тижорат, банк ва менежмент тизимида оид лексемалар фаоллашди (*бизнес, кредит, инвестиция, стартап, дедлайн, тренд*). Шунингдек, рақамли хизматлар ва ИТ соҳасига тегишли бўлган *One ID, Face ID, sun'iy intellekt, profil, Google account* каби бирликлар кундалик ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланди.

5. Лингвистик (лисоний) омиллар. Бу омил тил тежамкорлиги ва номинатив эҳтиёж билан изоҳланади. Агар қабул қилувчи (реципиент) тилда муайян янги тушунчани ифодаловчи хос сўз ёки тасвирий ифода мавжуд бўлмаса ёхуд у ҳаддан ташқари узун бўлса, чет тилидаги тайёр лисоний қолипдан фойдаланиш қулай ҳисобланади. Сўзлар тилимизга икки хил усулда киради:

1. *Тайёр ҳолда (механик ўзлаштириш)*: телефон, ракета.
2. *Муқобил (калкалаш) тарзида*: changyutgich (пылесос).

Баъзан эса тилда иккала шаклнинг параллель яшаш ҳолати ҳам кузатилади (*бизнесмен – тадбиркор*).

6. Экологик ва ҳудудий омиллар. Замонавий даврда инсоният олдида турган глобал экологик инқирозлар, иқлим ўзгаришлари ва табиатни муҳофаза қилиш муаммолари тилда махсус янги дискурсни шакллантирди. Бу маконда *аномал иссиқ, аномал совуқ, қуёш панели, глобал иссиқ, экстремал об-ҳаво, пластик ифлосланиш, экоактивизм, яшил энергия* каби табиат, иқлим ва экологик маданиятга оид терминлар фаоллашди.

7. Оммавий ахборот воситалари ва рақамли таълим таъсири. Ижтимоий тармоқлар (Telegram, Instagram, YouTube) ва замонавий таълим тизими (кредит-модуль тизими) янги сўзларнинг тарқалиш инкубаторига айланди. Қисқа муддат ичида нутқимизга *блок, лук, актив, директ, платформа, мониторинг, тьютор, сертификат, вебинар, Zoom, HEMIS* каби юзлаб сўзлар кириб келди ва оммалашди.

Ўзлашмаларнинг лисоний мослашуви: Фонетик ассимиляция ва диссимиляция жараёнлари. Чет тилдан қабул қилинган ҳар қандай лисоний бирлик қабул қилувчи тилнинг ички тизимида, унинг талаффуз, грамматик ва семантик қолипларига бўйсунishi лозим. Акс ҳолда у тил тизимида ёт унсур сифатида қолиб кетади. Бу мослашув жараёни, энг аввало, фонетика ва фонология

сатҳида — товушларнинг нутқ оқимидаги ўзаро таъсири сифатида намоён бўлади. Талаффузни енгиллаштириш, нутқ равонлигини таъминлаш ва артикуляцион қулайликка эришиш мақсадида икки асосий ҳодиса юз беради: ассимиляция ва диссимиляция.

Ассимиляция (Ўхшаш ҳолатга келиш, мослашиш)

Нутқ аъзоларининг ҳаракати жараёнида кетма-кет ёки ёнма-ён келган турли хусусиятли товушларнинг бир-бирига таъсир этиб, бир жиҳатдан (ёки бутунлай) ўхшаш бўлиб қолиши ассимиляция дейилади. Тилшуносликда унинг икки асосий йўналиши фарқланади:

1. Прогрессив ассимиляция: Олдинги товушнинг таъсири билан кейинги товушнинг ўзгариши.

Мисоллар: ket + di=ketti, ayt + di = aytti, ot + dan=ottan, yurak + ga = yurakka.

2. Регрессив ассимиляция: Кейинги товушнинг орқага, яъни ўзидан олдинги товушга таъсир этиб, уни ўзгартириши.

Мисоллар: yigit + cha = yigichcha, yoz + sin = yossin, uch + som = ussom, tuz + sin = tussin.

(Қиёс учун, рус тилидаги "отдать" соёзининг [оддать] тарзида талаффуз этилиши ҳам регрессив ассимиляциянинг ёрқин намунасидир).

Ассимиляция ҳодисаси фақат товушлар даражасида чекланиб қолмай, замонавий лингвоэкология (экотилшунослик) парадигмасида кенгрок мазмун касб этмоқда. Экологик ва ижтимоий дискурсада ассимиляция — бу хорижий тил элементларининг (янги қабул қилинган соҳалараро сўзларнинг) қабул қилувчи тилнинг ижтимоий-маданий муҳитига сингиши, лисон эгаларининг онги ва дунёқарашига интеграциялашуви сифатида ўрганилади. Янги экологик атамалар тилга кириб борар экан, улар ички тизимда мавжуд бўлган миллий синонимлари билан рақобатга киришади ва семантик ассимиляция натижасида тилнинг ўзига хос "лисоний экотизими" таркибий қисмига айланади.

Диссимиляция (Ўхшаш товушларнинг узоқлашиши, фарқланиши)

Ассимиляциянинг бутунлай акси ўлароқ, бир сўз таркибида иккита бир хил ёки бир-бирига жуда яқин артикуляцияли товуш келганда, талаффузни осонлаштириш ва сўзнинг эшитилиш аниқлигини (дистинктивлигини) сақлаш мақсадида улардан бирининг бошқа товушга айланиши диссимиляция дейилади. Ассимиляция каби у ҳам икки турга ажралади:

1. Прогрессив диссимиляция: Олдинги товуш сақланиб, кейинги ўхшаш товуш ўзгаради.

Мисоллар: \$zarar \rightarrow zaral\$, \$zarur \rightarrow zaril\$, \$birorta \rightarrow bironta\$, \$muyassar \rightarrow muyastar\$, \$kissa \rightarrow kista\$.

2. Регрессив диссимиляция: Кейинги товуш таъсирида олдинги товуш ўзгаради.

Мисоллар: \$malol \rightarrow malor\$, \$koridor \rightarrow kalidor\$, \$ittifoq \rightarrow intifoq\$.

Дискурсив ва эколингвистик аспектда диссимиляция. Экотилшунослик ва оммавий ахборот воситалари дискурсини тадқиқ этишда "диссимиляция" тушунчаси маноларни дифференциация қилиш (ажратиш) ва қарама-қарши қўйиш

жараёнини ифодалайди. Замонавий ОАВ маконида экологик муаммолар кўпинча муайян дихотомиялар, яъни занжирли зиддиятлар асосида қурилади: *"инсон табиатга қарши"*, *"саноат ривожланиши экологик мувозанатга қарши"*, *"эко-фаоллик корпоратив масъулиятсизликка қарши"*. Мана шу контекстда ОАВ тилида ҳақиқий экологик ҳолат билан унинг медиа оламидаги акси ўртасида "дискурсив диссимилияция" (маъновий узилиш, фарқланиш) юзага келади. Бу эса лингвистлар зиммасига тилдаги эвфемизмлар ва баҳоловчи лексикани тўғри тартибга солиш вазифасини юклайди.

3. Лексик тизимнинг ижтимоий-функционал табақаланиши

Тил — яхлит феномен бўлишига қарамай, ундан фойдаланувчи жамият аъзоларининг ижтимоий мавқеи, машғулоти, яшаш ҳудуди ва ёшига кўра ички қатламларга ажралади. Тилшуносликда лексик тизимни қўлланилиш доирасига кўра икки йirik умумкатегориал гуруҳга ажратиш қабул қилинган:

1. Умумхалқ лексикаси: Миллий тил эгаларининг барчаси учун бирдек тушунарли, ишлатилиши ҳеч қандай ижтимоий ёки ҳудудий чегарага эга бўлмаган, тилнинг барқарор ядросини ташкил этувчи сўзлар.

2. Ишлатилиш доираси чегараланган лексика: Фақат маълум бир ҳудуд, касб-ҳунар эгалари ёки ижтимоий гуруҳлар доирасидагина истеъмолда бўлган сўзлар қатлами [9].

Биз ишлатилиш доираси чегараланган лексиканинг ижтимоий-функционал табиатини ва уларнинг бадий матндаги стилистик имкониятларини алоҳида тармоқлар кесимида кўриб чиқамиз:

Диалектлар ва шева лексикаси. Диалект — умумхалқ тилининг муайян ҳудудий чегараланган тармоғи бўлиб, у адабий тилдан ўзининг фонетик, грамматик ва айниқса, лексик хусусиятлари билан ажралиб туради. Ўзбек тили ўзининг лаҳжавий бойлиги билан ажралиб туради (қарлуқ-чигил-уйғур, қипчоқ ва ўғуз лаҳжалари). Масалан, Хорразм шевасида умумадабий тилдаги *"нон"* сўзи ўрнида *"юпқа"* бирлигининг ишлатилиши ёки жанубий шевалардаги ўзига хос маиший лексика бунга мисолдир.

Бадий адабиётда диалектизмлардан фойдаланиш ёзувчидан юксак маҳорат талаб қилади. У персонажнинг туғилиб ўсган муҳитини, локал колоритини ва миллий психологиясини табиий ва ишончли акс эттиришнинг энг муҳим услубий воситасидир.

Жаргон ва арголар: Ижтимоий табиати ва фарқли жиҳатлари

Гарчи кўп ҳолларда бу икки тушунча синоним сифатида ишлатилса-да, улар орасида муайян лингвистик чегара мавжуд:

Жаргон (jargon): Бирор ижтимоий гуруҳнинг (масалан, талабалар, ҳарбийлар, маълум касб вакиллари) ўзига хос сўзлашув лексикаси бўлиб, у умумхалқ тилидан фақат сўз ясашдаги экспрессивлик, суррогатлик ва тез ўзгарувчанлик билан фарқ қилади. Масалан, замонавий ёшлар жаргонида дўстга нисбатан *"жигар"*, кетмоқ маъносида *"сирпандим"* сўзларининг қўлланиши.

Арго (argot): Маълум бир ёпиқ тоифа ёки касб эгалари (масалан, даллоллар, қиморбозлар, махбуслар) томонидан ишлатилувчи, асосий мақсади махфийликни

(конфиденциалликни) таъминлаш, ахборотни бегоналардан яшириш бўлган сунъий ясама тил тизимидир [10].

Бадиий асарларда жаргон ва арголардан фойдаланиш асар тилининг ҳаётийлигини оширади. Машхур адиб Тоғай Муроднинг “Yulduzlar mangu yonadi” қиссасида полвонлар ва курашчилар муҳитига хос профессионал-арготик нутқ шундай ифодаланади: “*Polvon bo ‘lsang halol yiqit! Ko ‘p tersayma! Sezdingmi, Abray ko ‘kraklarini berib olishyapti! Yoqasidan juft qilib ushlab, tikkasiga yag ‘ringa ol-chi*” [11]. Бу парча жонли спорт муҳитини ва қаҳрамонлар характерини китобхонга яқинлаштиришга хизмат қилган.

Касб-хунарга оид лексика: Терминлар ва профессионализмлар. Бу қатлам ҳам икки томонлама табиатга эга:

Термин (Атама): Муайян фан, техника ёки касб соҳасининг расмий равишда меъёрлаштирилган ва қатъий таърифга (дефиницияга) эга бўлган бирлигидир. Лотинча *terminus* — “чегара”, “ҳад” деган маънони англатиб, тушунчанинг чегарасини белгилайди.

Профессионализм: Ўша касб-хунар эгаларининг фақат оғзаки, норасмий мулоқотида қўлланиладиган, расмий луғатларга кирмайдиган жонли эквивалентларидир.

Вулгаризмлар ва уларнинг экспрессив-услубий функциялари

Вулгаризмлар — одоб-ахлоқ меъёрларига тўғри келмайдиган, сўзлашув маданиятида кўпол, ҳақоратли ва салбий баҳо ифодаловчи ноадабий лексик бирликлардир (*хўнаса, даюс, сўтак, тўнка* каби) [12]. Меъёрий нутқда вулгаризмларни қўллаш салбий ҳолат ҳисобланса-да, бадиий адабиётда улар муайян стилистик мақсадларда — услубий маркировка ва экспрессив-баҳоловчи лексика сифатида фаол ишлатилади. Уларнинг бадиий дискурсадаги вазифалари куйидагилардан иборат:

1. Қаҳрамоннинг ижтимоий ва маънавий қиёфасини, унинг маданият даражасини очиб бериш;

2. Асарнинг эмоционал таъсир кучини максимал даражада ошириш;

3. Ижтимоий иллатларни фош этиш, сатирик ва фоний бўёқ яратиш.

Бу жиҳатдан Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шоҳ асарларидан бири “Boburnoma” тарихий йилномасида келтирилган кучли салбий баҳоловчи ва лаънатловчи ифодалар диққатга сазовордир: “*Kimki bunday yomon yo ‘lga qadam qo ‘ysa va bunday ishga mayl qilsa, qiyomatgacha yuz ming la ‘natlar bo ‘lsin. Har kim Xisravshohning qilg ‘ilagini eshititsa, la ‘natlar aytsin. Bu voqeani eshitib la ‘natlamagan kishi ham la ‘natga sazovor bo ‘lsin*” [13]. Бу ердаги кучли ва аёвсиз ифодалар муаллифнинг адолат меъёрини, воқеликка бўлган шахсий-психологик муносабатини ва ўша давр нутқ маданиятининг бор ҳақиқатини акс эттиради.

4. Неологизм ва окказионализм муаммоси: Умумийлик ва хусусийлик дихотомияси

Жаҳон тилшунослигида луғат таркибининг янгиланишини тадқиқ этишда неологизм ва окказионализм (индивидуал-услубий неологизм) тушунчалари марказий ўрин тутди. Жамият ва инсоният тафаккурининг ўсиши тилда мунтазам

равишда янги лексемаларнинг пайдо бўлишини тақозо этади. Бироқ ҳар қандай янги сўзнинг тилга кириши ва сингиши бир хил кечмайди.

У.Турсунов ва унинг ҳаммуаллифлари таъкидлаганидек: *“Ҳар қандай неологизм дастлаб индивидуал нутқда юзага келади. Бундай неологизм кўпчилик томонидан тан олинса, тилнинг тараққиёт қонунларига мос ҳолда тузилган бўлса ва тилда маълум маънони англатиш учун зарур деб қаралса, шундагина индивидуал нутқ неологизми умумтил неологизмига айланади, якка нутқ доирасидан чиқади. Агар бундай талабларга жавоб бермаса, индивидуал нутқ доирасида қолиб кетади”* [14]. Мазкур таъриф неологизм ва окказионализм ўртасидаги диалектик чегарани аниқ кўрсатади.

Шуни ёдда тутиш керакки, ҳар қандай сўзнинг "янгилик мақоми" (неологизмлик хусусияти) нисбий ва вақтинчаликдир. Бугун неологизм бўлган сўз эртага оддий умумистеъмом сўзига, вақтлар ўтиб эса тарихий сўзга (архаизмга) айланиши мумкин. Тилшунос олима М.Абузалова айтганидек, *“Архаизмлар ўтмиш қолдиқлари, неологизмлар эса келажак куртакларидир”* [15].

Лингвистик табиатига кўра, янги сўзларни икки йирик гуруҳга ажратамиз: Умумтил неологизмлари ва индивидуал-услубий неологизмлар (окказионализмлар). Уларнинг орасидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатларни қуйидаги тизимли жадвал орқали ифодалаймиз:

Неологизм ва окказионализмнинг қиёсий-лингвистик таҳлили

Таҳлил мезонлари	Умумтил Неологизми (Лисоний янгилик)	Окказионализм (Индивидуал-услубий янгилик)
Умумий жиҳатлари	Янгилик бўёғига эга бўлиши; Одатдаги нутқ учун ғайриоддийлик; Дастлабки даврда луғатларга кирмаганлиги.	Янгилик бўёғига эга бўлиши; Одатдаги нутқ учун ғайриоддийлик; Дастлабки даврда луғатларга кирмаганлиги.
Лисоний мақоми	Ҳам нутқий, ҳам лисоний (тил тизимида оид) ҳодиса ҳисобланади.	Соф нутқий ҳодиса, тил тизимида муқим меъёрга айланмайди.
Манба асоси	Асосан хорижий ўзлашмалар ва соҳавий терминология ҳисобига яратилади.	Тилнинг ички деривацион имкониятлари ва муаллиф маҳорати маҳсули.
Ясалиш табиати	Тилнинг анъанавий, маҳсулдор сўз ясаш қолиплари асосида шаклланади.	Одатда, атипик ва ғайримеъёрий усуллар билан ясалади (<i>oyoqlibos, sukutchilar, paysalchilar, karamkor, kiyimgoh, yomg'irxat, xalaxat, qizzor, dunyolashmoq</i>).
Қўлланилиш мақсади	Жамиятдаги янги предмет ёки тушунчани номлаш (Номинатив вазифа).	Бадий матнда эстетик, эмоционал ва образли таъсир яратиш (Эстетик вазифа).

Вақт ва барқарорлик	Вақт ўтиши билан янгилик бўёғини йўқотади ва фаол луғатга сингб кетади.	Ҳар доим янги бўлиб қолаверади, чунки у фақат шу контекст ичида яшайди.
---------------------	---	---

Тадқиқотчи М.Йўлдошев ёзганидек: “Янгилик бўёғига эга бўлган неологизмлар вақти-вақти билан тилда пайдо бўлиб турсада, бадиий матн учун кўп ҳам аҳамиятли эмас. Бадиий матн учун ижодкорнинг ўзи томонидан бадиий ниятини ифодалаш мақсади била ясалган, яратилган индивидуал неологизмлар эстетик қийматга моликдир” [6]. Окказионализмлар шоир ва ёзувчиларнинг (масалан, Усмон Азим, Тоғай Мурод ижодида) индивидуал услубини белгиловчи, умумистеъмолдаги тилни жонли шеърий нутққа зид қўювчи бетакрор бадиий ҳосилалардир [7].

5. Замонавий экологик дискурс неологизмларининг шаклланиш механизми

Бугунги кунда соҳавий неологизмларнинг энг фаол ривожланаётган тармоқларидан бири экологик дискурсдир. Инсониятнинг табиатга салбий таъсири ва глобал иқлим ўзгаришлари тилдан янги лисоний номинацияларни яратишни талаб қилмоқда. Экологик инкирозларни ифодалаш, янги технологик ечимларни номлаш эҳтиёжи неологизмларнинг шаклланишига олиб келди. Тадқиқотимиз давомида экологик дискурс неологизмларининг вужудга келиш йўллари 4 та асосий механизм асосида аниқладик:

1. Ижтимоий-экологик (Номинатив) эҳтиёж. Жамият ҳаётида илгари мавжуд бўлмаган янги воқелик, янги муаммо пайдо бўлганда, уни тилда акс эттириш учун номинацияга эҳтиёж туғилади. Бу бирликлар дастлаб оммабоп нашрларда, ижтимоий тармоқларда кўриниш бериб, кейинчалик илмий тизимга ўтади. *Мисоллар*: қайта tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, chiqindisiz texnologiya, ekologik sayohat.

2. Тиллараро ўзлаштириш механизми. Глобал экологик ҳаракатлар, БМТ саммитлари ва халқаро илмий анжуманлар тили, асосан, инглиз тили бўлганлиги сабабли, экологик неологизмларнинг салмоқли қисми байналмилал сўзлар сифатида қабул қилинмоқда. *Мисоллар*: dekarbonizatsiya (decarbonization), karbon izi (carbon footprint), ekoaktivizm (eco-activism), biodiversitet (biodiversity).

3. Ички лисоний деривация (сўз ясаш). Ўзбек тилининг ўз суффикслари ва аффикслари, сўз қўшиш имкониятлари ёрдамида янги тушунчалар ясалади. Бунда соҳавий ядро унсурлари (“eko-”, “agro-”) фаол иштирок этади. Масалан, “agro-” компоненти асосида *agronomiya*, *agroiqtisodiyot*, *agrobiznes*, *agrosanoat* каби неологизмлар юзага келса, миллий негизлар асосида куйидаги сўзлар шакллантирилмоқда: *Мисоллар*: yashillashuv (\$yashil + -lash + -uv\$), ekotizim (\$eko + tizim\$), tabiatparvarlik (\$tabiat + parvar + -lik\$), daraxtkushlik (\$daraxt + kush + -lik\$).

4. Семантик конверсия (Маъно кенгайиши). Тилда аввалдан мавжуд бўлган, анъанавий маиший ёки конкрет маънога эга бўлган сўзларга янги замонавий экологик мазмун юкланади. Бунда соз ўз шаклини сақлаб қолган ҳолда янги

концептуал маъно касб этади. *Мисоллар*: “Из” — илгари фақат одам ёки ҳайвоннинг босган қадами (жисмоний из) маъносида бўлса, бугун экологик контекстда инсониятнинг табиатга салбий оқибати, зарари маъносини англатмоқда (*uglerod izi*).

"Яшил" — илгари фақат ранг (спектр) маъносини ифодалаган бўлса, ҳозирги кунда "экологик тоза", "табиатга зарарсиз", "инновацион" тушунчаларининг рамзига айланди (*яшил энергия, яшил ёлак, яшил тараққиёт*).

Шундай қилиб, экологик дискурсдаги неологизмлар тилнинг динамик табиатини ва инсоният тафаккурининг экологизациялашув жараёнини кўрсатувчи муҳим индикатордир.

ХУЛОСА

Олиб борилган комплекс лингвистик ва социолингвистик тадқиқот натижалари асосида куйидаги умумий илмий хулосаларга келинди:

Ўзбек тили луғат таркибининг бойиши ва трансформацияси ички деривацион имкониятлар ва ташқи ўзлаштиришларнинг узвий диалектик алоқаси асосида юз беради. Глобаллашув ва рақамли инқироз даврида анъанавий воситачи тил бўлган рус тилининг роли заифлашиб, рақамли медиа ва интернет таъсирида инглиз тилидан тўғридан-тўғри ўзлаштириш ядровий позицияга чиқмоқда.

Тил ўзининг ички қонуниятларига мос келмайдиган сунъий ва мажбурий аралашувларни рад этади. XX асрнинг 90-йиллари бошидаги халқаро сўзларни мажбуран сунъий сохта сўзлар билан алмаштириш уринишларининг муваффақиятсизликка учраши тилнинг ўз-ўзини ҳимоя қилиш ва табиий селекция (саралаш) қонунияти мавжудлигидан далолат беради.

Тил лексикасининг диалектлар, жаргонлар, арголар, касб-ҳунар атамалари ва вулгаризмлар кесимида ижтимоий табақаланиши тил тизимининг нуқсон ёки инқироzi эмас, балки унинг услубий ранг-баранглиги ва ифода имкониятларининг кенглигидир. Бобур ва Тоғай Мурод каби ижодкорларнинг асарлари таҳлили кўрсатадики, чегараланган лексика бадий матнда персонажларнинг ҳақиқий ижтимоий, психологик ва маънавий қатламини чизиб берувчи бекиёс бадий-эстетик восита ҳисобланади.

Бугунги кунда тилимизда кунора пайдо бўлаётган замонавий ўзлашмалар ва неологизмлар (айниқса, экологик ва IT соҳасидаги янги атамалар) масаласи алоҳида илмий масъулият талаб қилади. Четдан кираётган атамаларни ўз она тилимизнинг "туркона табиати"га, миллий менталитетимизга ва тилнинг онтологик (ички хусусий) қонуниятларига мувофиқ ҳолда қабул қилиш, уларни ўз вақтида тизимлаштириш ва имловий луғатларга изчиллик билан киритиб бориш замонавий тилшунос олимлар олдида турган энг долзарб вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Alisher Navoiy. Muhokamat-ul lugʻatayn. TAT. 20 tomlik. – T.: Fan, 2003. – T. 16. – B. 12-15.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1992. – B. 153-158.
3. Davronov X. Razvitiye leksiki uzbekskogo literaturnogo yazika. – Tashkent: Fan, 1989. – S. 84.
4. Doniyorov R. Oʻzbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 112.
5. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – T., 2009. – B. 34-36.
6. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Togʻay Murod asarlari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2017. – B. 45-48.
7. Umirova S. Oʻzbek sheʼriyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. (U.Azim sheʼriyati misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 2019. – B. 141.
8. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligining nazariy masalalari. — T.: Fan, 2012. — B. 31-35.
9. Yoqubov J. Soʻz oʻzlashtirish va til madaniyati muammolari. Monografiya. – Toshkent, 2015. – B. 67.
10. Reformatskiy A. A. Vvedeniye v yazikovedeniye. – M.: Aspekt Press, 2006. – S. 210.
11. Togʻay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. Qissa. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 54.
12. Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010. – B. 180.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2008. – B. 92.



O‘ZBEK TILI RAQAMLI DISKURSINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI



Sharopova Ra’no Jaxonovna
Navoiy davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi raqamli muloqotning sotsiolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda internet diskursida uchraydigan emoji, qisqartmalar, fonetik yozuv shakllari, kod almashish, yozuv tizimlarining aralash qo‘llanishi hamda ovozli xabarlarining kommunikativ va sotsiolingvistik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitda qo‘llanilayotgan til birliklarining foydalanuvchilarning lisoniy va ijtimoiy mansubligi, kommunikativ uslubi hamda nutqiy individualligini namoyon etishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilidagi raqamli kommunikatsiya til va jamiyat munosabatlarining zamonaviy ko‘rinishlarini aks ettiruvchi muhim kommunikativ makon ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli kommunikatsiya, sotsiolingvistika, internet diskursi, emoji, kod almashish, fonetik yozuv, ovozli xabarlar, lisoniy mansublik, ijtimoiy mansublik, kommunikativ uslub. **Аннотация.** В данной статье анализируются социалингвистические особенности цифровой коммуникации на узбекском языке. В исследовании рассматриваются коммуникативные и социалингвистические функции эмодзи, сокращений, фонетических форм письма, переключения кодов, смешанного использования систем письма, а также голосовых сообщений, встречающихся в интернет-дискурсе. Кроме того, анализируется роль языковых единиц, используемых в цифровой среде, в выражении языковой и социальной принадлежности пользователей, их коммуникативного стиля и речевой индивидуальности. Результаты исследования показывают, что цифровая коммуникация на узбекском языке представляет собой важное коммуникативное пространство, отражающее современные формы взаимоотношений языка и общества.

Ключевые слова: цифровая коммуникация, социалингвистика, интернет-дискурс, эмодзи, переключение кодов, фонетическое письмо, голосовые сообщения, языковая принадлежность, социальная принадлежность, коммуникативный стиль.

Abstract. This article analyzes the sociolinguistic characteristics of digital communication in the Uzbek language. The study examines the communicative and sociolinguistic functions of emojis, abbreviations, phonetic spellings, code-switching, mixed use of writing systems, and voice messages occurring in internet discourse. It also explores the role of linguistic units used in the digital environment in expressing users' linguistic and social identities, communicative styles, and speech individuality. The findings demonstrate that digital communication in Uzbek serves as an important communicative space reflecting contemporary forms of interaction between language and society.

Keywords: digital communication, sociolinguistics, internet discourse, emoji, code-switching, phonetic spelling, voice messages, linguistic identity, social identity, communicative style.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari sezilarli darajada o'zgardi. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va turli messenjerlarning keng ommalashuvi natijasida raqamli kommunikatsiya kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda millionlab foydalanuvchilar Telegram, Instagram, Facebook, YouTube va boshqa platformalar orqali muloqot olib borib, yangi kommunikativ muhitni shakllantirmoqda. Mazkur jarayon til tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, til birliklarining qo'llanishi, kommunikativ strategiyalar va nutqiy me'yorlarning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Raqamli kommunikatsiya an'anaviy og'zaki va yozma nutqdan qator xususiyatlari bilan farqlanadi. Muloqotning tezkorligi, interaktivligi va norasmiyligi natijasida bu tizimda qisqartmalar, emoji, fonetik yozuv shakllari, kod almashish, yozuv tizimlarining aralash qo'llanishi hamda ovozli xabarlar kabi yangi kommunikativ vositalar faol qo'llanilmoqda. Bunday hodisalar nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, til va jamiyat munosabatlarining yangi ko'rinishlarini namoyon etadi.

Raqamli kommunikatsiya masalalari jahon tilshunosligida internet lingvistikasi va kompyuter vositasidagi muloqot (Computer-Mediated Communication – CMC) doirasida keng o'rganilgan. Xususan, Devid Kristal internet tilini og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi kommunikativ vosita ("Netspeak") sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, internet muloqoti nutq va yozuv o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni xiralashtirib, yangi kommunikativ me'yorlar hamda til birliklarining yangi qo'llanish shakllarini yuzaga keltiradi [1]. Shu bois raqamli muhitda yuzaga kelayotgan til hodisalarini an'anaviy yozma yoki og'zaki nutq mezonlari asosidagina baholash yetarli emas.

Syuzan Herring tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa kompyuter vositasidagi muloqotning sotsial jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, internet kommunikatsiyasi foydalanuvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, guruhviy aloqalar va kommunikativ xulq-atvorning shakllanishida muhim omil hisoblanadi [2]. Shu sababli raqamli diskursni tahlil qilishda faqat til birliklarining struktur xususiyatlarini emas, balki ularning kommunikativ va sotsial vazifalarini ham hisobga olish zarur. So'nggi yillarda emoji, multimodal kommunikatsiya, internet slengi, kod almashish va virtual hamjamiyatlar tili bilan bog'liq tadqiqotlar ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda.

O'zbek tilshunosligida ham raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi internet muloqotining sotsiolingvistik xususiyatlari, xususan, raqamli muhitda til birliklarining funksional xususiyatlari, foydalanuvchilarning lisoniy va ijtimoiy mansubligini ifodalovchi vositalar hamda kommunikativ xulq-atvor masalalari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi raqamli muloqotning asosiy sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash va ularning kommunikativ vazifalarini tavsiflashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda uchraydigan yozishmalar, izohlar hamda internet diskursi namunalari tahlil qilinadi.

Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida raqamli kommunikatsiya jarayonlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Raqamli muloqotda qo'llanilayotgan emoji, qisqartmalar, fonetik yozuv shakllari, kod almashish, sheva elementlari va boshqa birliklar foydalanuvchilarning yoshi, ijtimoiy mavqei, kommunikativ muhiti hamda nutqiy odatlari bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan internet diskursi tilning ijtimoiy tabiatini kuzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi muhim kommunikativ makon hisoblanadi.

Raqamli kommunikatsiya til vositasida foydalanuvchilarning kommunikativ uslubi, lisoniy va ijtimoiy mansubligi hamda individual nutqiy xususiyatlarini namoyon etish imkonini beradi. Aynan shu sababli internet diskursini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Raqamli kommunikatsiyaning muhim xususiyatlaridan biri uning multimodal xarakter kasb etayotganidir. Multimodal kommunikatsiya deganda axborotning bir vaqtning o'zida turli semiotik vositalar — matn, tasvir, emoji, audio va video elementlar orqali uzatilishi tushuniladi. Internet diskursida bunday vositalar kommunikativ samaradorlikni oshirish hamda nutqning emotsional-ekspressiv jihatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda emoji birliklari raqamli muloqotning ajralmas qismiga aylangan. Ular foydalanuvchilarga o'z his-tuyg'ularini, munosabatini yoki bahosini qisqa va ixcham shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, “😊” kulgi yoki quvonchni, “👉” ma'qullashni, “🔥” yuqori baholashni, “😐” esa neytral yoki ijobiy munosabatni anglatishi mumkin.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan emoji birliklari kommunikativ iqtisod tamoyiliga xizmat qiladi. Foydalanuvchi uzun izoh yozish o'rniga bitta emoji yordamida o'z munosabatini ifodalashi mumkin. Ayrim hollarda esa emojilar mustaqil kommunikativ birlik sifatida qo'llanadi. Masalan, yuborilgan xabarga faqat “👉” yoki “❤️👉” belgisi bilan javob qaytarilishi muloqot ishtirokchilari tomonidan to'liq anglashiladigan kommunikativ mazmunni hosil qiladi.

Emoji birliklari shaxsning kommunikativ uslubi haqida ham muayyan ma'lumot beradi. Ayrim foydalanuvchilar emojilarni faol qo'llasa, boshqalari ulardan deyarli foydalanmaydi. Bu holat kommunikativ odatlar, yosh xususiyatlari va muloqot muhiti bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli emoji birliklari nafaqat emotsional-ekspressiv ma'no ifodalovchi vosita, balki raqamli diskursning sotsiolingvistik ko'rsatkichlaridan biri sifatida ham ahamiyatga ega.

Raqamli kommunikatsiyaning eng xarakterli xususiyatlaridan biri qisqartmalar va fonetik yozuv shakllarining keng qo'llanishidir. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardagi muloqotning tezkorligi foydalanuvchilarni fikrni imkon qadar qisqa va qulay shaklda ifodalashga undaydi. Natijada an'anaviy yozma nutq me'yorlaridan ayrim chekinishlar kuzatilib, yangi yozuv shakllari yuzaga keladi.

Internet muloqotida “kn” (keyin), “mn” (mumkin), “ln” (lekin), “blm” (bilmadim) kabi qisqartmalar tez-tez uchraydi. Bunday birliklar yozishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish hamda kommunikativ tezkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan bu hodisa kommunikativ iqtisod tamoyilining namoyon bo'lishi sifatida baholanishi mumkin.

Raqamli diskursda fonetik yozuv shakllari ham faol qo'llanadi. Masalan, "qalesiz", "raxmat", "gap yo'", "tori", "bow" kabi birliklar so'zlarning talaffuzga yaqin shaklda yozilishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday yozuv shakllari rasmiy yozma nutqdan ko'ra og'zaki muloqotga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Natijada internet diskursida yozma va og'zaki nutq belgilarining o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi.

Raqamli muloqotda sheva elementlari asosidagi fonetik yozuvlar ham uchray turadi. Xususan, "kere" (kerak), "chunvoldim" (tushunib oldim), "krsez" (kirsangiz) kabi shakllar foydalanuvchining hududiy nutqiy muhit bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday birliklar nafaqat axborot uzatish vazifasini bajaradi, balki foydalanuvchining lisoniy mansubligi va nutqiy individualligini ham namoyon etadi.

Fonetik yozuv shakllarining qo'llanishi ko'pincha muloqotning norasmiyligi va samimiyligini kuchaytiradi. Ayrim hollarda foydalanuvchilar adabiy me'yorlarga mos shakllar o'rniga talaffuzga yaqin variantlarni ataylab tanlaydilar. Bu esa suhbatdoshlar o'rtasidagi kommunikativ masofani qisqartirish va yaqinlik hissini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Raqamli kommunikatsiyada kuzatiladigan muhim sotsiolingvistik hodisalardan biri kod almashishdir. Sotsiolingvistikada kod almashish (code-switching) ikki yoki undan ortiq tilning bitta kommunikativ vaziyat yoki nutq oqimi doirasida almashib qo'llanishi sifatida talqin qilinadi. Ushbu hodisa ko'p tilli jamiyatlarda keng tarqalgan bo'lib, shaxsning til kompetensiyasi, kommunikativ maqsadi va ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog'liq.

Kod almashish masalasi jahon sotsiolingvistikasida keng tadqiq qilingan. Xususan, Shana Poplak kod almashishni ikki tilning bir nutq jarayonida grammatik va kommunikativ jihatdan o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanishi sifatida tavsiflaydi [3]. Carol Myers-Scotton esa mazkur hodisani kommunikativ strategiya sifatida baholab, til tanlovi orqali ma'lum ijtimoiy ma'nolar va munosabatlar ifodalanishini ta'kidlaydi [4].

O'zbek tilidagi raqamli muloqotda ham kod almashish faol kuzatiladi. Ayniqsa, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan birliklarning internet diskursida keng qo'llanishi buning yaqqol dalilidir. Masalan, "normalno", "uje", "like bosing", "story joyladim", "online bo'lib turibdi", "comment yozib qoldiring", "post tashladim" kabi birikmalar turli tillar elementlarining bir nutq oqimida qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday birliklarning qo'llanishi turli omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, ayrim tushunchalar internet va axborot texnologiyalari orqali ingliz tilidan kirib kelganligi sababli ularning asl shakllari saqlanib qoladi. Ikkinchidan, kod almashish muloqotning norasmiyligini kuchaytirish hamda muayyan internet hamjamiyatiga mansublikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Uchinchidan, ayrim hollarda foydalanuvchilar ma'lum ma'no yoki uslubiy ta'sirni kuchaytirish maqsadida boshqa til birliklaridan foydalanadilar.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan kod almashish faqat til birliklarining mexanik aralashuvi emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi hodisa hisoblanadi. U foydalanuvchilarning til tajribasi, kommunikativ muhiti, yosh xususiyatlari va ijtimoiy aloqalari haqida muayyan ma'lumot beradi. Shu sababli kod almashish internet

diskursida foydalanuvchilarning lisoniy va ijtimoiy mansubligini namoyon etuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Demak, o'zbek tilidagi raqamli kommunikatsiyada kod almashish hodisasi zamonaviy internet muhitining tabiiy va faol tarkibiy qismi bo'lib, u kommunikativ qulaylikni ta'minlash, yangi tushunchalarni ifodalash hamda foydalanuvchilarning kommunikativ uslubini namoyon etish vazifalarini bajaradi.

Raqamli kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri yozuv tizimlarining aralash qo'llanishidir. Internet muloqotida foydalanuvchilar ayrim hollarda lotin va kirill alifbosidan bir matn yoki hatto bir gap doirasida parallel ravishda foydalanadilar. Bunday hodisa raqamli diskursning grafik xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilida lotin yozuvi davlat alifbosi sifatida qo'llanilishiga qaramay, internet muloqotida kirill yozuvi elementlari hamon faol uchraydi. Masalan, "Zo'r chiqibdi бpar", "ishga keldim лекин net ishlamayapti", "gap yo'q вообще" kabi birliklarda lotin va kirill yozuvlari bir kommunikativ makon doirasida qo'llanmoqda. Bu holat foydalanuvchilarning til tajribasi, yozuv ko'nikmalari hamda kommunikativ muhiti bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Raqamli muloqotda yozuv qulayligiga intilish natijasida ayrim grafik o'zgarishlar ham kuzatiladi. Xususan, lotin alifbosidagi ayrim harflar o'rniga ularga tashqi ko'rinish jihatidan yaqin bo'lgan belgilar ishlatiladi. Masalan, "sh" harfi o'rnida "w" qo'llanib, "bow" (bo'sh), "iw" (ish) kabi shakllar yuzaga keladi. Shuningdek, "o'" va "g'" harflarining apostrofsiz yozilishi yoki umuman tushirib qoldirilishi ham keng tarqalgan: "tori" (to'g'ri), "ogil" (o'g'il), "togri" (to'g'ri) va boshqalar. Mazkur hodisaning yuzaga kelishida texnik va kommunikativ omillar muhim rol o'ynaydi. Ayrim foydalanuvchilar mobil qurilma klaviaturasida maxsus belgilarni qidirib topishga vaqt sarflamaslik uchun soddalashtirilgan yozuv shakllarini tanlaydilar. Natijada yozuvning qulayligi va tezkorligi adabiy yozuv me'yorlariga nisbatan ustunlik kasb etadi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yozuv tizimlarining aralash qo'llanishi foydalanuvchilarning kommunikativ muhiti va yozuv amaliyoti haqida muayyan ma'lumot beradi. Bu hodisa bir tomondan raqamli kommunikatsiyaning norasmiy xarakterini aks ettirsa, ikkinchi tomondan tilning zamonaviy texnologik muhitga moslashish jarayonini namoyon etadi. Shu sababli lotin va kirill yozuvlarining parallel qo'llanishi hamda grafik soddalashtirishlar internet diskursining muhim sotsiolingvistik belgilaridan biri sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda ovozli xabarlar (voice messages) keng tarqalgan kommunikativ vositalardan biriga aylandi. Telegram, WhatsApp va boshqa platformalarda foydalanuvchilar matnli yozishmalar bilan bir qatorda ovozli xabarlardan ham faol foydalanmoqdalar. Mazkur hodisa raqamli kommunikatsiyada yangi kommunikativ shaklning shakllanganligini ko'rsatadi.

Ovozli xabarlar o'z tabiati jihatidan yozma va og'zaki nutq oralig'idagi kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, ular raqamli texnologiyalar vositasida uzatilishi sababli yozma kommunikatsiya tizimiga mansub hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa axborot tovush shaklida yetkazilishi, intonatsiya, pauza, urg'u va emotsional ohangning saqlanishi bilan og'zaki nutqqa yaqinlashadi. Shu

sababli ovozi xabarlar an'anaviy yozma va og'zaki nutqning ayrim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan oraliq kommunikativ shakl sifatida qaraladi.

Ovozli xabarlar ommalashuvi bir qator kommunikativ omillar bilan bog'liq. Avvalo, ular foydalanuvchiga uzun matn yozmasdan turib murakkab fikrlarni tez va qulay tarzda ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, vaqt cheklangan vaziyatlarda yoki katta hajmdagi axborotni uzatishda ovozli xabarlar kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Shu bois internet muloqotida "voice tashlab yuboraman", "voice eshitib oling", "ovozda aytaman" kabi birliklar faol qo'llanmoqda.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan ovozli xabarlar muloqot ishtirokchilarining individual nutqiy xususiyatlarini yanada yaqqol namoyon etadi. Matnli yozishmalarda sezilmaydigan talaffuz, sheva elementlari, nutq tempi, intonatsiya va emotsional bo'yovlar ovozli xabarlar to'liq saqlanib qoladi. Natijada foydalanuvchining hududiy mansubligi, kommunikativ uslubi hamda ayrim individual nutqiy xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish imkoniyati yuzaga keladi.

Ovozli xabarlar kommunikativ yaqinlikni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki inson ovozi eshitisini muloqotning samimiylik darajasini oshiradi hamda suhbatdoshlar o'rtasidagi psixologik masofani qisqartiradi. Ayrim hollarda foydalanuvchilar yozma xabar orqali ifodalash qiyin bo'lgan hissiy holatlarni aynan ovozli xabarlar yordamida yetkazishni afzal ko'radilar. Bu esa raqamli kommunikatsiyaning emotsional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, ovozli xabarlar keng qo'llanishi internet diskursida og'zaki nutq unsurlarining faollashuviga ham sabab bo'lmoqda. Natijada raqamli kommunikatsiya tobora multimodal xarakter kasb etib, matn, emoji, tasvir va audio vositalarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida rivojlanmoqda.

Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning muayyan ijtimoiy guruh, hudud yoki kommunikativ muhitga mansubligini namoyon etuvchi muhim vosita ham hisoblanadi. Shu sababli sotsiolingvistik tadqiqotlarda til birliklarining tanlanishi ko'pincha foydalanuvchilarning ijtimoiy mavqei, kommunikativ muhiti va nutqiy xususiyatlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya jarayonida ham mazkur hodisa yaqqol namoyon bo'lib, internet diskursi foydalanuvchilarning lisoniy va ijtimoiy mansubligini ifodalovchi muhim kommunikativ makon sifatida shakllanmoqda.

Raqamli diskursda murojaat va baholash birliklari ham ijtimoiy mansublikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bunday birliklar nafaqat baholash yoki murojaat vazifasini bajaradi, balki kommunikanter o'rtasidagi munosabat xarakterini ham aks ettiradi. Masalan, "bro" birligi norasmiy va teng mavqedagi muloqotga xos bo'lsa, "ustoz" murojaati hurmat va e'tirof ma'nolarini ifodalaydi. "Admin" esa internet hamjamiyatlari doirasida shakllangan kommunikativ rollardan birini bildiradi.

Lisoniy vositalarning tanlanishi foydalanuvchilarning individual kommunikativ uslubini ham namoyon etadi. Ayrim foydalanuvchilar sheva elementlari, qisqartmalar va emojilarni faol qo'llasa, boshqalari adabiy til me'yorlariga yaqinroq shakllarni afzal ko'radilar. Bu holat raqamli kommunikatsiyada individual nutqiy xususiyatlarning saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, internet muloqoti

foydalanuvchilarning nutqiy individualligini kuzatish imkonini beruvchi muhim kommunikativ muhit vazifasini bajaradi.

Raqamli kommunikatsiyada lisoniy va ijtimoiy mansublikning ifodalanishi internet hamjamiyatlarining shakllanishi bilan ham bog'liqdir. Muayyan guruh yoki platforma doirasida keng qo'llanadigan til birliklari ushbu hamjamiyat a'zolarini birlashtiruvchi kommunikativ belgiga aylanishi mumkin. Natijada ayrim so'zlar, qisqartmalar yoki murojaat shakllari ma'lum guruh vakillarini boshqa foydalanuvchilardan ajratib turuvchi sotsiolingvistik marker vazifasini bajaradi.

Xullas, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida raqamli kommunikatsiya zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Mazkur jarayon o'zbek tilining qo'llanish doirasi, kommunikativ imkoniyatlari va funksional xususiyatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli internet diskursini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish bugungi tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi raqamli muloqot an'anaviy yozma va og'zaki nutqdan qator xususiyatlari bilan farqlanishini ko'rsatdi. Xususan, emoji birliklari, qisqartmalar, fonetik yozuv shakllari, kod almashish, yozuv tizimlarining aralash qo'llanishi hamda ovozli xabarlar internet diskursining muhim kommunikativ vositalari sifatida faol qo'llanilmoqda. Mazkur birliklar kommunikativ tezkorlikni ta'minlash, axborotni ixcham shaklda uzatish, emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalash va muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli kommunikatsiyada qo'llaniladigan til birliklari nafaqat kommunikativ, balki sotsiolingvistik vazifalarni ham bajaradi. Xususan, sheva elementlari, murojaat shakllari, baholovchi birliklar va kod almashish hodisalari foydalanuvchilarning lisoniy va ijtimoiy mansubligi, kommunikativ muhiti hamda individual nutqiy xususiyatlari haqida muayyan ma'lumot beradi. Shu jihatdan internet diskursi til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish imkonini beruvchi muhim kommunikativ makon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, raqamli muloqotda yozma va og'zaki nutq xususiyatlarining o'zaro yaqinlashuvi kuzatilayotgani aniqlandi. Ayniqsa, ovozli xabarlarining keng tarqalishi, fonetik yozuv shakllarining faollashuvi va multimodal kommunikatsiyaning rivojlanishi internet diskursining o'ziga xos kommunikativ tizim sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek tilidagi raqamli kommunikatsiya til taraqqiyotining zamonaviy bosqichini aks ettiruvchi murakkab sotsiolingvistik hodisa hisoblanadi. Uni izchil o'rganish internet diskursining lingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash, raqamli muhitda yuz berayotgan til o'zgarishlarini tavsiflash hamda o'zbek tilining zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini baholashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida raqamli kommunikatsiyaning yosh, gender, kasbiy guruhlar va hududiy nutqiy tafovutlar bilan bog'liq jihatlarini maxsus tadqiq etish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crystal D. *Language and the Internet*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 272 p.
2. Herring S. C. Computer-Mediated Communication on the Internet // *Annual Review of Information Science and Technology*. – 2002. – Vol. 36. – P. 109–168.
3. Poplack S. Sometimes I'll Start a Sentence in Spanish y Termino en Español: Toward a Typology of Code-Switching // *Linguistics*. – 1980. – Vol. 18. – No. 7–8. – P. 581–618.
4. Myers-Scotton C. *Social Motivations for Codeswitching: Evidence from Africa*. – Oxford: Clarendon Press, 1993. – 177 p.
5. Saloydinov S. Raqamli kommunikatsiya, uning til strukturasi va pragmatikasi rivojlanishiga ta'siri.
<https://refocus.uz/index.php/1/article/download/1396/1121/2166>



“ORZUGA AYB YO‘Q” QISSASINING PRAGMALINGVISTIK TADQIQI



Sanoyeva Muhtabar Nabiyeвна,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farhod Musajonovning “Orzuga ayb yo‘q” qissasidagi nutqiy birliklar pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asardagi muloqotlarda qo‘llanilgan nutqiy aktlar, muallifning presuppozitsion ma‘nolari va qahramonlar nutqidagi ijtimoiy-psixologik faktorlar tadqiq etiladi. Shuningdek, o‘zbek tili pragmatikasi uchun xos bo‘lgan lisoniy etiket va evfemizmlarning badiiy matndagi o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, nutqiy akt, presuppozitsiya, implikatsiya, lisoniy shaxs, diskurs.

Аннотация: В данной статье с прагмалингвистической точки зрения анализируются речевые единицы в повести Фархада Мусажонова «Мечте нельзя поставить в вину» («Orzuga ayb yo‘q»). Исследуются речевые акты, использованные в диалогах произведения, presupпозиционные значения автора, а также социально-психологические факторы в речи персонажей. Кроме того, освещается роль языкового этикета и эвфемизмов, характерных для прагматики узбекского языка, в художественном тексте.

Ключевые слова: прагмалингвистика, речевой акт, presupпозиция, импликатура, языковая личность, дискурс.

Abstract: This article analyzes the speech units in Farhod Musajonov’s novella “Orzuga ayb yo‘q” (“There Is No Fault in Dreaming”) from a pragmalinguistic perspective. The study examines the speech acts used in the dialogues of the work, the author’s presuppositional meanings, and the socio-psychological factors reflected in the characters’ speech. In addition, the article highlights the role of linguistic etiquette and euphemisms characteristic of Uzbek pragmatics in the literary text.

Keywords: pragmalinguistics, speech act, presupposition, implicature, linguistic personality, discourse.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matnga nafaqat lisoniy qurilma, balki ma'lum bir kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan murakkab tizim sifatida qaralmoqda. Pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonida, muayyan vaziyatda so'zlovchi va tinglovchi munosabatlari kontekstida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini o'rganadi. Farhod Musajonov o'z asarlarida xalqchil til, yumor va personajlarning xarakteriga mos nutqiy uslubni qo'llashda katta mahorat ko'rsatgan. Uning "Orzuga ayb yo'q" qissasi bu borada boy material beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Pragmatika" so'zning lug'aviy ma'nosi yunoncha "pragma" so'zidan tarjima qilingan bo'lib, ish-harakat ma'nolarini anglatadi. "Pragmatika" termini 30-yillarning oxirida Ch.U.Morris tomonidan semiotikaning bir bo'limi sifatida kiritilgan. Ch.Morris semiotikani uchga bo'lgan.

1. Semantika – belgilarning obyektga bo'lgan munosabati.
2. Sintaksis – belgilararo munosabat.
3. Pragmatika – so'zlovchi til belgilariga munosabatini tadqiq qiluvchi bo'lim.

Dastlabki izohlarda ushbu uch soha yonma-yan joy olgan bo'lsa-da, Morris keyinchalik "pragmatika" tushunchasini qolgan ikki soha – sintaksis va semantikaga nisbatan ancha keng ekanligini qayd etadi. Ba'zi manbalarda esa pragmatika falsafiy tushuncha sifatida fanga kirib kelganligi aytib o'tiladi. Jumladan, pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Suqrotidan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Arestoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlarga to'g'ri keladi.

Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida g'oyalarning keng targ'ibi aniq sezila boshladi. "Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitginshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etish lozim".

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida o'tgan asrning 60-70-yillarida shakllanadi. 1970-yilda Dordrext shahrida "Tabiiy tillar pragmatikasi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. "So'z boshida" qayd qilinishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan "Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlarini lingvistik nazariya doirasida o'rganishi lozim".

Pragmatikaning "qayta tug'ilish davri" deb e'tirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko'tarilish yuz berdi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig'inlar o'tkazildi. Keyingi yillarda "pragmatika" atamasini qo'llamaydigan tilshunos qariyb qolmadi, - desak mubolag'a bo'lmaydi. Natijada o'ziga xos pragmatik "fetishizm" holati paydo bo'lib, bajarilgan tadqiqotlarda atamaning qo'llanilishidan tashqari, uning mazmuniga oid biror bir ma'lumotni topish qiyinlashib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozish jarayonida kontekstual-situativ tahlil, implikativ tahlil, deskriptiv tahlil, pragmatik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Asar sarlavhasining o'ziyoq o'quvchi ongida ma'lum bir presuppozitsiya hosil qiladi. Pragmalingvistikada sarlavha bu katta nutqiy akt hisoblanadi. Bu o'rinda xalq maqolidan foydalanilgani sababli, o'quvchida "Inson

qanchalik balandparvoz orzu qilmasin, bu axloqiy yoki ijtimoiy xato emas” degan presuppozitsiya shakllanadi. Muallif bu orqali kitobxon bilan yashirin kelishuv tuzadi: asar qahramoni Ashurqulning g‘alati orzulari kamsitilishi emas, balki tushunilishi kerak.

Asardagi ko‘plab muloqotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no emas, balki yashirin ma’no implikatura asosida qurilgan: *Ashurqul deganlari... g‘alati bola edi. Tengqurlari ko‘chada to‘p quvsa, u tom tepasida xayol surib o‘tirardi.* (F.Musajonov, Orzuga ayb yo‘q)

Mazkur matnda muallif Ashurqulni dangasa deb atamaydi, balki uning xatti-harakatlarini boshqalarnikiga zid qo‘yadi. Bu nutqiy akt bo‘lib ko‘rinsa-da, pragmatik jihatdan qahramonning ijtimoiy muhitdan uzilganligini va uning individual dunyosini tasvirlaydi. G‘alati leksemasi bu o‘rinda baholovchi marker bo‘lib, o‘quvchining personajga nisbatan munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qahramonlarning bir-biriga murojaati va buyruqlari ularning ijtimoiy mavqeyini ko‘rsatuvchi ijtimoiy deysis hisoblanadi. Ota-onaning Ashurqulga nisbatan *Yuraverasanmi shunday sholpaya bo‘lib? Bir ishning boshini tutsang-chi!* (F.Musajonov, Orzuga ayb yo‘q)

Bir ishning boshini tutsang-chi! jumlasida savol bo‘lsa-da, pragmatik vazifasiga ko‘ra direktiv nutqiy aktdir. So‘zlovchi (ota/ona) tinglovchidan (Ashurqul) ma’lumot kutmayapti, balki uning harakatlanishini talab qilyapti. Bu erda vositavor nutqiy akt qo‘llanilgan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri “ishla!” deyish o‘rniga savol orqali tanbeh berilyapti.

Asarda qahramonlar o‘zbekona odob doirasida piching qilishadi, bu esa xushmuomalalik tamoyilining buzilishi orqali komik effekt yaratadi. Qo‘ni-qo‘shnilarning Ashurqulning orzulari haqidagi pichinglari: *Ha, Ashurqulvoy, qachon bizni samolyotingizda aylantirasiz?* (F.Musajonov, Orzuga ayb yo‘q)

Bu matnda so‘zlovchi ijobiy yuz strategiyasini kamsitish uchun ishlatmoqda. *Ashurqulvoy* deb erkalash qo‘shimchasini qo‘shish va *samolyotingizda* deb hurmat bilan murojaat qilish (lokutsiya), aslida uning ustidan kulish (illokutsiya) maqsadini ko‘zlaydi. Bu pragmatikistikada ironik nutqiy akt deb ataladi.

Muallifning bayon uslubida personajga nisbatan xayrixohlik va engil yumor markaziy o‘rin tutadi: *Orzu qilishga-ku, hamma orzu qiladi, lekin Ashurqulning orzulari boshqacha edi...*

Lekin bog‘lovchisi bu matnda kutilmagan burilish markeri bo‘lib xizmat qiladi. Muallif o‘quvchining umumiy tushunchasini (hamma orzu qiladi) inkor etmay, Ashurqulning holatini alohida ekanligini ta’kidlaydi. Bu muallifning o‘z matniga kiritgan epistemik modalligi bo‘lib, u haqiqatni emas, balki personajning subyektiv olamini birinchi planga olib chiqadi.

Asarda qishloq aholisining Ashurqulga bo‘lgan munosabati ko‘pincha ironik nutqiy aktlar orqali ifodalanadi. Pragmatikistikada bu so‘zlovchining ataylab yolg‘on gapirishi orqali tinglovchini masxara qilishini anglatadi. Qo‘shnilarning Ashurqulga *Uchuvchi polvon* yoki *Ashurqulvoy* deb murojaat qilishi.

So‘zlovchi (qo‘shni) Ashurqulning hali hech qanday uchuvchi emasligini biladi. Biroq, unga nisbatan *uchuvchi* deb murojaat qilishi uning orzusi va hozirgi nochor ahvoli o‘rtasidagi tafovutni bo‘rttirib ko‘rsatadi. Bu matnda illokutiv maqsad axborot

olish emas, balki qahramonning ustidan kulish orqali uning yuzini saqlash strategiyasiga hujum qilishdir.

Ashurqul osmon, yulduzlar va buyuk kelajak haqida o'ylayotgan bir paytda, onasining *Sigirga o't berdingmi?* deb savol berishi o'quvchida kulgu uyg'otadi.

Bu matnda deiktik markazlarning to'qnashuvi yuz beradi. Ashurqulning diskursi idealistik, onaniki esa pragmatik. Ikki xil diskursning bitta muloqot maydonida uchrashishi pragmatik absurdni yuzaga keltiradiki, bu badiiy matnda komik effekt yaratishning asosiy usulidir.

Ashurqul o'zini jiddiy olim yoki uchuvchi kabi tutishga, shunga mos nutqiy strategiyalar qo'llashga harakat qiladi. Biroq uning nutqidagi bo'rttirish real hayotdagi oddiy lisoniy vaziyatlarga (masalan, ovqatlanish yoki dehqonchilik qilish) mos kelmaydi. Uning o'z orzulari haqida gapirgandagi tasdiqlovchi ohangi boshqalar tomonidan ekspressiv yoki shunchaki bema'ni gap sifatida qabul qilinadi. Bu matnda so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ maqsadlari bir-biriga mos kelmaydi, natijada yuzaga kelgan implikaturalar yumorni kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Farhod Musajonovning "Orzuga ayb yo'q" qissasi pragmatik jihatdan nihoyatda boy asardir. Undagi har bir nutqiy birlik shunchaki axborot uzatishga emas, balki tinglovchiga ta'sir o'tkazishga, qahramonning ijtimoiy va psixologik qiyofasini yaratishga yo'naltirilgan. Asar matnini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, badiiy nutqning muvaffaqiyati so'zlarning lug'aviy ma'nosida emas, balki ularning ma'lum bir vaziyatda qanday ishlashi pragmatik salohiyatidadir. Muallifning o'zbek tili imkoniyatlaridan, ayniqsa, xalqona iboralar va kinoyadan foydalanish mahorati asarning bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmasligini ta'minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 25 б.
2. Ҳакимов. М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 32 б.
3. Исмоилова С.А. Ахборот сўрашда маданий факторнинг ўрни // Тил ва маданият. – Самарқанд. СамДЧТУ. 2004. – Б. 117–119.
4. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 27 б.
5. Фарҳод Мусаџонов. Орзуга айб йўқ (қисса). – Тошкент, 2023. – 78 б.



ТЕНДЕНЦИИ В ОПРЕДЕЛЕНИИ ГРАММАТИЧЕСКОГО РОДА ЗАИМСТВОВАННЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ



Хакимова Нигина Хусановна,
преподаватель
Навоийский государственный университет

Аннотация: в статье рассматриваются динамические процессы в системе морфологической адаптации заимствованных существительных в современном русском языке. На материале лексем, вошедших в обиход в течение последних лет, анализируются основные факторы, детерминирующие категорию грамматического рода: морфологический (тип финального форманта), семантический (влияние родового понятия) и аналоговый. Особое внимание уделяется случаям родовой вариативности и тенденции к маскулинизации неодушевленных заимствований. Автор делает вывод о превалировании формально-грамматического фактора над семантическим в процессе интеграции иноязычного слова в русскую языковую систему.

Ключевые слова: лингвистика, заимствования, грамматический род, морфологическая адаптация, необинарная родовая принадлежность, вариативность.

Abstract: the article examines the dynamic processes in the system of morphological adaptation of borrowed nouns in the modern Russian language. Based on lexemes that have come into use in recent years, the main factors determining the category of grammatical gender are analyzed: morphological (type of final formant), semantic (influence of the generic concept), and analogical. Special attention is paid to cases of gender variability and the trend towards the masculinization of inanimate borrowings. The author concludes that the formal-grammatical factor prevails over the semantic one in the process of integrating a foreign word into the Russian language system.

Key words: linguistics, borrowings, grammatical gender, morphological adaptation, non-binary gender identity, variability.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy rus tilidagi o'zlashma otlarning morfologik moslashuv tizimidagi dinamik jarayonlari ko'rib chiqiladi. Oxirgi yillarda kundalik turmush tarziga kirgan leksemalar misolida grammatik rod kategoriyasini belgilovchi asosiy omillar: morfologik, semantik va analogik omillar tahlil qilinadi. Muallif ingliz tilidagi so'zlarni rus tili tizimiga integratsiyalashuv jarayonida shakliy-grammatik omil semantik omildan ustun ekanligi haqida xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, o'zlashmalar, grammatik rod, morfologik moslashuv, rod variantliligi, neologizmlar.

Введение (Introduction).

Динамические процессы в лексической системе современного русского языка на рубеже первой четверти XXI века характеризуются беспрецедентным притоком иноязычных заимствований. Основным источником лексики выступает

английский язык, в котором категория грамматического рода (в её морфологическом понимании) отсутствует. При переходе в русский язык – язык флективного строя – каждое существительное неизбежно вовлекается в систему родовых оппозиций.

Анализ литературы по теме (Literature review)

Теоретический фундамент исследования категории рода заимствований был заложен в классических трудах В.В. Виноградова, который указывал на морфологическую устойчивость системы русского языка и её способность «подчинять» иноязычные лексемы своим грамматическим правилам.

Ключевую роль в изучении механизмов лексического заимствования играют работы Л.П. Крысина. В своих исследованиях он выделяет этапы освоения иноязычного слова: от фиксации в исходной форме до полной морфологической и семантической интеграции. Л.П. Крысин подчеркивает, что определение рода – это первый шаг включения слова в парадигму склонения⁴¹.

Значительный вклад в изучение динамических процессов в современном русском языке внес М.А. Кронгауз. В его работах рассматривается феномен «лингвистической тревоги», вызванной высокой скоростью заимствования, при которой язык не успевает выработать единую норму для новых слов, что порождает родовую вариативность (например, колебания в роде слов типа «виски» или «евро»).

Вопросы морфологической адаптации англицизмов подробно освещены в трудах Е.В. Мариновой⁴² и Э.Ф. Володарской⁴³.

Анализ и результаты (Analysis and results)

Для целей нашего исследования под заимствованным именем существительным понимается лексема, перешедшая из языка-источника (в данном случае – английского) в принимающий язык (русский) и адаптировавшаяся к его морфологической системе.

Процесс освоения иноязычного слова включает два ключевых этапа:

Фонетико-графическая адаптация: перенос иноязычной лексемы в кириллическую графику и её подчинение законам русской фонетики (например, произношение и написание слова «промпт»).

Грамматическая (морфологическая) адаптация: закрепление слова в определенном родовом классе, что является обязательным условием для его включения в систему склонения русского языка.

Ключевой особенностью современных заимствований (2024-2026 гг.) является их несклоняемость на начальном этапе. Многие новые слова, такие как «айди», «промо», «сторис», в первое время функционируют как несклоняемые существительные. Однако, согласно лингвистической закономерности, выявленной В.В. Виноградовым, русский язык стремится к «активному

⁴¹ Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. // Вопросы языкознания. 2002. - № 6. - С. 27–36.

⁴² Маринова Е. В. Иноязычные слова в русской речи конца XX – начала XXI вв.: проблемы освоения и функционирования: дисс. ... д. филол. н. - М., 2008. - 309 с.

⁴³ Володарская, Э.Ф. Заимствование как отражение русско-английских контактов Текст. /Э.Ф. Володарская // Вопросы языкознания. - 2002.-№4. с. 96-118.

подчинению» заимствований правилам склонения. Как только слово начинает склоняться (появляются падежные окончания), оно окончательно признается частью «своей» лексики.

Таким образом, определение грамматического рода заимствования – это не только классификация слова по мужскому, женскому или среднему роду, но и определение вектора его будущей грамматической жизни: будет ли оно оставаться неизменяемым или перейдет в разряд склоняемых существительных.

Процесс освоения иноязычного слова в системе русского языка начинается с его «подгонки» под существующие морфологические классы. Анализ эмпирического материала позволяет выделить три доминирующих фактора, определяющих грамматический род современных заимствований.

1. Морфологический фактор: Приоритет финального форманта

Этот фактор является ведущим для слов, заимствованных из английского языка. Если слово оканчивается на твердый согласный, оно в 95% случаев попадает в парадигму мужского рода (2-е склонение), независимо от рода соответствующего русского понятия. Например:

Маркетплейс (он): несмотря на то что родовое понятие – «торговая площадка» (она), конечное сочетание согласных -йс диктует мужской род.

Промпт (он): (текстовый запрос для нейросети). Слово «запрос» – мужского рода, что совпадает с морфологическим обликом слова, оканчивающегося на -т.

Стейблкоин, мемкоин (он): Окончание на -н однозначно определяет слово в класс мужского рода, по аналогии с уже освоенным словом «биткоин».

В современном языке наблюдается экспансия мужского рода. Языковая система «экономит» усилия: слово на согласный проще всего склонять по типу *стол / компьютера*.

2. Семантический фактор: Влияние родового понятия (Гиперонима)

В тех случаях, когда морфологический облик слова не дает четкой подсказки (например, слово оканчивается на гласный или мягкий знак), в силу вступает значение слова.

Нейросеть (она): Слово оканчивается на мягкий знак (нулевое окончание, 3-е склонение). Здесь решающую роль играет ассоциация с исконно русским словом «сеть» (она). Даже новые термины, такие как «генеративка» (жарг. от «генеративная модель»), принимают женский род по аналогии с «моделью» или «программой».

Крипта (она): хотя в английском *crypto* – это сокращение, в русском языке оно оформилось окончанием -а, что мгновенно перевело его в разряд женского рода по типу «валюта».

3. Родовая вариативность: Зона неопределенности

Самый интересный аспект для научной статьи – это слова, которые «колеблются» между двумя родами. Это происходит, когда форма и смысл вступают в конфликт.

Пример 1: *Айди (ID)*

Мужской род: По родовому понятию – «номер», «идентификатор». («Ваш айди принят»).

Средний род: По морфологическому облику (несклоняемое слово на -и, как такси, жюри). («Неверное айди»).

Вывод: наблюдается переход от мужского к среднему роду по мере того, как слово становится более привычным.

Пример 2: *Рилс (Reels)*

Здесь возникает уникальная ситуация смешения числа и рода.

Изначально это форма множественного числа («посмотреть рилсы»).

Однако в единственном числе часто говорят: «Крутой рилс» (м.р.), воспринимая конечный -с как часть корня, а не окончание множественного числа.

Таблица 1.

**Примеры адъективации причастий в подкаст-дискурсе
(2024-2026 гг.)**

Слово	Предлагаемый род	Основной фактор	Тип адъективации/новое значение
<i>Стрим</i>	Мужской	Морфологический	Окончание на согласный
<i>Нейронка</i>	Женский	Морфологический	Наличие суффикса -к- и окончания -а-
<i>Апи (API)</i>	Средний/мужской	Аналогический	Борьба между «интерфейс» (он) и формой на -и-
<i>Дипфейк</i>	Мужской	Семантический	Понятие «розыгрыш», «подделка»

4. Графико-фонетическая адаптация и её роль в определении рода

В современной лингвистической ситуации (2025–2026 гг.) важную роль начинает играть то, как иноязычное слово записывается кириллицей. Графический облик слова часто вступает в противоречие с его исконной фонетикой.

Кейс «Виар» (VR – Virtual Reality): хотя в основе лежит слово «реальность» (она), аббревиатура VR при транслитерации в «Виар» получила финальный согласный -р. Это автоматически перевело термин в мужской род («новый виар», «шлем виара»). Здесь мы видим победу графического облика над семантикой исходного словосочетания.

Кейс «Сторис» (Stories): в английском языке это форма множественного числа. Однако в русском языке слово закрепилось как несклоняемое существительное среднего рода («красивое сторис») по аналогии с «видео» или «фото». При этом в разговорной речи наблюдается переход в женский род («одна сторис»), так как финальный звук -с воспринимается как часть основы, а родовое понятие «история» (она) оказывает мощное давление.

5. Субстантивация и суффиксальный способ адаптации

Интересной тенденцией является «осистематизирование» заимствований через русские словообразовательные морфемы. Это самый надежный способ закрепления рода.

Суффикс -к- и женский род: Многие англицизмы, изначально не имеющие рода, в русском языке проходят через этап «одомашнивания».

Пример: «Нейронка», «крипта», «удаленка», «запрещенка». Добавление типично русского суффикса -к- и окончания -а мгновенно снимает проблему родовой неопределенности, жестко фиксируя слово в женском роде. Это свидетельствует о живой словообразовательной энергии языка, который «переваривает» чужеродные элементы, превращая их в стандартные формы 1-го склонения.

6. Влияние цифрового этикета и профессионального жаргона

Анализ показал, что в профессиональных сообществах (ИТ, финтех) наблюдается тенденция к унификации. Специалисты стремятся к краткости, что ведет к маскулинизации.

Апи (API): в документации чаще встречается мужской род («открытый АПИ» – по гиперониму «интерфейс»), в то время как в общей лексике чаще встречается средний род («удобное АПИ» – по фонетическому облику).

Промпт-инжиниринг: Слово «промт» окончательно закрепилось в мужском роде именно благодаря профессиональному дискурсу, где оно склоняется по всем правилам 2-го склонения («составить промт», «нет промта»).

Таблица 2.

Факторы определения рода иноязычных слов

Лексема	Род в русском языке	Доминирующий фактор	Конфликтующий фактор	Итог адаптации
Маркетплейс	Мужской	Морфологический (на согласный)	Семантический («площадка» - ж.р.)	Стабильный мужской род
Нейросеть	Женский	Семантический (аналогия с «сеть»)	Морфологический (нулевое окончание)	Устойчивый женский род
Айди (ID)	Ср./Муж.	Фонетический (на -и)	Семантический («номер» - м.р.)	Родовая вариативность
Рилс (Reels)	мужской	Морфологический (на -с)	Число (ед.ч. и мн.ч.)	Переход в категорию ед.ч.
Стори(с)	Средний/Жен.	Фонетический/Аналогический	Семантический («история»- ж.р.)	Несклоняемость/вариативность
Промт	Мужской	Морфологический/Семантический	-	Стабильный мужской

		ий		род
--	--	----	--	-----

Выводы и рекомендации (Conclusion/Recommendations).

Проведенное исследование позволяет сформулировать следующие выводы:

В современном русском языке при заимствовании англицизмов морфологический фактор управляет над семантическим.

Семантический фактор (ориентация на род русского синонима) сохраняет свою силу в тех случаях, когда заимствование имеет абстрактный характер или оканчивается на гласный или мягкий знак (*нейросеть, крипта*).

Период родовой неустойчивости (как в случае с *айди* или *сторис*) сокращается. Под влиянием профессионального дискурса и сетевой коммуникации слова быстрее обретают фиксированную родовую принадлежность, чаще всего в пользу мужского или среднего рода.

Тенденция к упрощению грамматических характеристик заимствований сохранится. Мы ожидаем дальнейшего размывания границ между именами существительными разных родов у несклоняемых лексем, что требует постоянного мониторинга и лексикографической фиксации.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Володарская, Э.Ф. Заимствование как отражение русско-английских контактов Текст. /Э.Ф. Володарская // Вопросы языкознания. - 2002.-№4. с. 96-118.

2. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021.12(90). – С.15-20.URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/12760>

3. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. - Международный научно-методический журнал «Образование и инновационные исследования». – 2022. - №6. – С. 61-67. - <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/35>

4. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 47 (389). – С. 468-472. – URL: <https://moluch.ru/archive/389/85522/> (дата обращения: 12.07.2022).

5. Жумаева Ф.Р., Хакимова Н.Х. Использование разных видов текстов в качестве дидактического материала на уроках русского языка- European Science, 2020 - elibrary.ru

<https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-raznyh-vidov-tekstov-v-kachestve-didakticheskogo-materiala-na-urokah-russkogo-yazyka>

6. Кронгауз, М. А. Русский язык на грани нервного срыва / М. А. Кронгауз. – Москва : АСТ, 2017. – 480 с.

7. Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. // Вопросы языкознания. 2002. -№ 6. - С. 27–36.

8. Маринова, Е. В. Иноязычные слова в русской речи конца XX – начала XXI вв.: проблемы освоения и функционирования : автореф. дис. ... д-ра филол. наук / Е. В. Маринова. – Нижний Новгород, 2008. – 42 с.



СМЕШАННОЕ ОБУЧЕНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН: ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ



Исканджанова Ферузахон Камоллидиновна

и.о.доцента кафедры филологии

Образовательного Университета Ренессанс

Комилова Малохат Олимовна

доцент кафедры педагогики

Ташкентского Университета Прикладных Наук

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты внедрения технологий смешанного обучения в процесс преподавания лингвистических дисциплин в высшей школе. Анализируются современные модели blended learning, их педагогический потенциал и влияние на формирование коммуникативной, речевой, цифровой и профессиональной компетенций студентов. Особое внимание уделяется интеграции традиционных и электронных форм обучения при изучении русского языка, культуры речи, стилистики, практической грамматики и методики преподавания языка. Представлены результаты анкетирования студентов, отражающие уровень удовлетворенности смешанными формами обучения, степень их эффективности и влияние на учебную мотивацию обучающихся. Делается вывод о том, что смешанное обучение является эффективным инструментом модернизации филологического образования в условиях цифровизации высшей школы.

Ключевые слова: смешанное обучение, blended learning, лингвистическое образование, коммуникативная компетенция, цифровизация образования, филологическая подготовка, дистанционное обучение, интерактивные технологии, электронные образовательные ресурсы, высшая школа.

Современный этап развития системы высшего образования характеризуется активным внедрением цифровых технологий в образовательный процесс. Глобальная информатизация общества, развитие интернет-коммуникации и изменение образовательных потребностей обучающихся обусловили необходимость модернизации традиционных подходов к организации учебного процесса. В условиях цифровой трансформации общества особую актуальность приобретает проблема интеграции инновационных технологий в систему преподавания гуманитарных дисциплин, в частности лингвистических.

Сегодня образовательное пространство высшей школы постепенно переходит от исключительно традиционной модели передачи знаний к гибким и вариативным формам организации обучения. Одной из наиболее востребованных образовательных технологий становится смешанное обучение (blended learning), представляющее собой сочетание очного и дистанционного взаимодействия участников образовательного процесса.

Особую значимость смешанное обучение приобретает в преподавании лингвистических дисциплин, поскольку изучение языка невозможно без активной коммуникативной практики, интерактивного взаимодействия, анализа текстового материала и самостоятельной исследовательской деятельности студентов. Традиционная система преподавания языка уже не в полной мере отвечает запросам современной образовательной среды, ориентированной на мобильность, вариативность и индивидуализацию обучения.

Использование цифровых образовательных ресурсов, электронных платформ, мультимедийных технологий и онлайн-коммуникации позволяет существенно расширить возможности преподавания русского языка и других лингвистических дисциплин. Современный студент находится в условиях постоянного информационного взаимодействия, поэтому образовательная среда должна соответствовать новым когнитивным особенностям обучающихся.

Смешанное обучение способствует переходу от пассивного усвоения учебного материала к активной познавательной деятельности студентов. При этом преподаватель перестает выступать исключительно источником информации и приобретает функции тьютора, модератора, консультанта и организатора образовательной деятельности.

Вместе с тем внедрение blended learning в систему филологического образования сопровождается рядом трудностей: недостаточным уровнем цифровой компетентности отдельных преподавателей и студентов, сложностями организации контроля знаний, необходимостью адаптации методики преподавания к новым условиям и созданием качественных электронных образовательных ресурсов.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью научного осмысления педагогического потенциала смешанного обучения в процессе преподавания лингвистических дисциплин в вузе и определения его эффективности в формировании коммуникативной компетенции студентов.

Цель исследования:

Выявить педагогические возможности смешанного обучения в процессе преподавания лингвистических дисциплин и определить его влияние на формирование коммуникативной компетенции студентов.

Объект исследования:

Образовательный процесс в системе высшего филологического образования.

Предмет исследования:

Технологии смешанного обучения в преподавании лингвистических дисциплин в вузе.

Материалы и методы исследования

В ходе исследования использовались:

- теоретические методы (анализ педагогической, лингвистической и методической литературы, сравнительный анализ, систематизация научных данных);
- эмпирические методы (наблюдение, анкетирование, беседа, анализ результатов учебной деятельности студентов).

Исследование проводилось среди студентов филологических направлений Ташкентского образовательного университета. В анкетировании приняли участие 108 студентов и 14 преподавателей гуманитарных дисциплин.

Теоретические основы смешанного обучения

В современной педагогической науке смешанное обучение рассматривается как образовательная технология, интегрирующая традиционные и электронные формы взаимодействия участников учебного процесса. По мнению С. Graham, blended learning представляет собой систему, объединяющую преимущества очного обучения и возможностей электронного образовательного пространства.

Развитие смешанного обучения напрямую связано с процессами цифровизации образования и расширением информационно-коммуникационной среды высшей школы. Современные образовательные платформы позволяют организовать синхронное и асинхронное взаимодействие студентов и преподавателей, обеспечивая гибкость и вариативность обучения.

В педагогической практике выделяются различные модели смешанного обучения:

- Face-to-Face Driver;
- Rotation Model;
- Flex Model;
- Self-Blend Model;
- Online Driver Model.

Наиболее эффективной в преподавании лингвистических дисциплин является модель «перевернутого класса» (Flipped Classroom), предполагающая предварительное самостоятельное изучение теоретического материала студентами посредством электронных ресурсов и последующее практическое закрепление знаний в аудитории.

Использование данной модели позволяет значительно увеличить время речевой практики студентов, организовать дискуссионную деятельность, анализ языковых явлений и развитие коммуникативных навыков.

Смешанное обучение в системе лингвистического образования

Лингвистическое образование имеет ряд специфических особенностей, обусловленных самой природой языка как средства коммуникации. Формирование языковой личности требует постоянной речевой активности, интерактивного взаимодействия и практической деятельности студентов.

Применение смешанного обучения в преподавании русского языка и лингвистических дисциплин способствует:

- развитию коммуникативной компетенции;

- совершенствованию навыков устной и письменной речи;
- формированию аналитического мышления;
- развитию исследовательских навыков;
- повышению мотивации к изучению языка;
- индивидуализации образовательного процесса.

Особую роль в процессе blended learning играют электронные образовательные ресурсы:

- Moodle;
- Google Classroom;
- Zoom;
- Google Meet;
- Quizizz;
- Kahoot;
- LearningApps;
- национальный корпус русского языка;
- электронные словари и медиатеки.

Использование цифровых платформ позволяет преподавателю организовывать различные виды речевой деятельности:

- анализ художественного текста;
- лингвистический комментарий;
- работу с аудио- и видеоматериалами;
- выполнение интерактивных тестов;
- участие студентов в онлайн-дискуссиях;
- подготовку исследовательских проектов.

Смешанное обучение обеспечивает формирование не только предметных, но и метапредметных компетенций студентов. В процессе работы с цифровыми ресурсами обучающиеся развивают навыки критического мышления, информационного поиска, анализа и систематизации данных.

Результаты исследования и их обсуждение

Результаты проведенного анкетирования показали, что большинство студентов положительно оценивают использование смешанного обучения в преподавании лингвистических дисциплин.

Среди опрошенных:

- 61 % студентов считают наиболее эффективным сочетание онлайн- и офлайн-обучения;

- 24 % предпочитают исключительно традиционный формат;

- 15 % отдают предпочтение дистанционному обучению.

Наиболее значимыми преимуществами blended learning студенты назвали:

- доступность учебных материалов;
- возможность самостоятельного выбора темпа обучения;
- удобство организации самостоятельной работы;
- повышение интереса к учебному процессу;
- использование современных цифровых технологий;
- расширение возможностей коммуникации.

Преподаватели отметили, что использование смешанного обучения способствует:

- активизации познавательной деятельности студентов;
- повышению качества самостоятельной работы;
- развитию исследовательских навыков;
- увеличению уровня вовлеченности студентов в образовательный процесс.

Однако были выявлены и определенные трудности:

- недостаточная техническая оснащенность отдельных студентов;
- нестабильность интернет-соединения;
- увеличение временных затрат преподавателя на подготовку электронных материалов;
- сложность контроля самостоятельности выполнения заданий.

Несмотря на существующие проблемы, результаты исследования подтверждают высокую эффективность смешанного обучения в системе лингвистического образования.

Таким образом, смешанное обучение является одним из наиболее перспективных направлений модернизации современного филологического образования. Интеграция традиционных педагогических методов и цифровых технологий способствует повышению качества образовательного процесса, развитию коммуникативной компетенции студентов и формированию профессионально значимых навыков.

Использование blended learning в преподавании лингвистических дисциплин обеспечивает:

- гибкость образовательного процесса;
- индивидуализацию обучения;
- повышение учебной мотивации;
- развитие самостоятельности студентов;
- совершенствование речевой культуры обучающихся.

Современное лингвистическое образование требует дальнейшего развития цифровой образовательной среды, создания качественных электронных ресурсов и совершенствования методики преподавания гуманитарных дисциплин в условиях цифровизации общества.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Григорьев С.Г., Андрюшкова О.В. Критерии эффективного использования blended learning // Информатика и образование. 2016. № 8. С. 16–19.
2. Фомина А.С. Смешанное обучение в вузе: институциональный, организационно-технологический и педагогический аспекты // Теория и практика общественного развития. 2014. № 21. С. 272–279.
3. Graham C.R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends and Future Directions // The Handbook of Blended Learning. San Francisco, 2006. P. 3–21.

4. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass, 2008.
5. Norberg A., Dziuban C., Moskal P. A Time-Based Blended Learning Model // *On the Horizon*. 2011. Vol. 19. № 3. P. 207–216.
6. Picciano A.G. An Integrated Multimodal Model for Online Education // *Online Learning*. 2017. Vol. 21. № 3. P. 166–190.
7. Wang Y., Han X., Yang J. Revisiting the Blended Learning Literature // *Educational Technology & Society*. 2015. Vol. 18. № 2. P. 380–393.
8. Комилова, М. О., Исканджанова, Ф. К., & Кахрамонов, А. (2024). ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ ГИБРИДНОГО ОБУЧЕНИЯ. *IMRAS*, 7(1), 25-31..
9. Исканджанова, Ф. К., & Валижонова, Д. В. (2016). ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК УЧИТЕЛЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС. *Ученый XXI века*, (11 (24)), 25-27. Xushboqovich, I. I., & Iskandjanova, F. K. (2026). LEKSEMALARNING SEMANTIK ASOSDAGI AYRIM MUNOSABATI XUSUSIDA. *Latin American journal of education*, 6(1), 100-105.
10. Kamoliddinovna, I. F. (2022). The Specificity of Emotional States in Medical Workers: Stress and its Stages, Wats to Eliminate. *Texas Journal of Medical Science*, 14, 76-79.
11. Комилова М.О. Организация смешанного обучения у студентов // *International Journal of Formal Education*. 2022. № 11. С. 27–33.
12. Комилова М.О. Современные образовательные технологии в преподавании гуманитарных дисциплин. Ташкент, 2023.

ТРАНСФОРМАЦИЯ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В ОНЛАЙН-ОБЩЕНИИ

Шахноза Батыралиева

д.ф.п.н.(PhD), и. о. доцента кафедры филологии
Образовательного университета Ренессанс

Иброхимова Наргиза

студентка 3 курса
направления филология и обучение языкам (русский язык)
Образовательного университета Ренессанс

Аннотация. В статье рассматриваются изменения речевого этикета в условиях цифровой коммуникации. Анализируются особенности общения в социальных сетях, мессенджерах и на образовательных онлайн-платформах. Выявляются основные тенденции трансформации традиционных форм вежливости: сокращение этикетных формул, усиление разговорности, использование эмодзи и графических средств для передачи эмоционально-оценочных значений, а также смешение официального и неофициального стилей общения. Отмечается, что цифровая среда способствует формированию новых норм сетевого этикета, сочетающих языковую экономию и стремление к поддержанию коммуникативного комфорта. Делается вывод о необходимости изучения речевого этикета в онлайн-коммуникации как важного аспекта современной лингвистики и методики преподавания русского языка.

Ключевые слова: речевой этикет, онлайн-общение, цифровая коммуникация, интернет-дискурс, сетевой этикет, эмодзи, коммуникативные нормы.

Abstract. The article examines the transformation of speech etiquette in digital communication. It analyzes communication patterns in social networks, messengers, and online educational platforms. The main trends include the reduction of traditional politeness formulas, increased colloquiality, the use of emojis and graphic means to convey emotional and evaluative meanings, and the blending of formal and informal styles. The digital environment contributes to the emergence of new norms of online etiquette that combine linguistic economy with the need to maintain communicative comfort. The study concludes that speech etiquette in online communication is an important area of contemporary linguistics and language teaching methodology.

Keywords: speech etiquette, online communication, digital discourse, netiquette, emojis, communicative norms.

Annotatsiya. Maqolada raqamli muloqot sharoitida nutqiy etiketning o'zgarishi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn ta'lim platformalaridagi muloqot xususiyatlari ko'rib chiqiladi. An'anaviy xushmuomalalik formulalarining qisqarishi, so'zlashuv uslubining kuchayishi, emodzi va grafik vositalarning qo'llanishi, shuningdek rasmiy va norasmiy uslublarning aralashuvi asosiy tendensiyalar sifatida aniqlanadi. Raqamli muhit til tejamkorligi va kommunikativ qulaylikni uyg'unlashtirgan yangi tarmoq etiketi me'yorlarini shakllantiradi. Nutqiy etiketning onlayn muloqotdagi o'zgarishini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, onlayn muloqot, raqamli kommunikatsiya, internet diskursi, tarmoq etiketi, emodzi, kommunikativ me'yorlar.

Цифровые технологии существенно изменили способы межличностного общения. Значительная часть коммуникативных практик переместилась в виртуальное пространство, где взаимодействие осуществляется посредством социальных сетей, мессенджеров и образовательных платформ. Эти изменения затронули и речевой этикет – систему устойчивых языковых средств, обеспечивающих вежливое и уместное общение [1, с. 15-21; 2, с. 47-55].

В онлайн-коммуникации традиционные этикетные формулы подвергаются трансформации: сокращаются обращения и приветствия, возрастает роль графических символов и эмодзи, изменяются нормы выражения благодарности, просьбы и извинения [3, р. 63-78; 4, с. 102-110].

Основные тенденции трансформации речевого этикета

Одной из ключевых особенностей цифрового общения является языковая экономия. Пользователи стремятся сократить сообщения, используя аббревиатуры, неполные предложения и минимальные формулы приветствия («Здравствуйтесь» → «Добрый день», «Здравствуйтесь!» → «Здравствуйтесь») [2, с. 58-61].

Другой тенденцией является усиление разговорности. Даже в профессиональной переписке нередко употребляются элементы устной речи, эмоционально окрашенная лексика и неформальные обращения [5, с. 34-39].

Эмодзи и графические средства как элементы цифрового этикета

Эмодзи, стикеры и GIF-изображения выполняют компенсаторную функцию, передавая эмоции и смягчая высказывания [3, р. 115-127]. Например, знак улыбки после просьбы может снижать категоричность сообщения и создавать более доброжелательный тон общения.

Однако чрезмерное использование эмодзи в официальной переписке может восприниматься как нарушение норм делового этикета [6, с. 74-80].

Смешение функциональных стилей

В цифровой среде наблюдается размывание границ между официальным и неофициальным стилями. Преподаватели и студенты, коллеги и руководители нередко общаются в мессенджерах, где традиционные требования к оформлению текста становятся менее строгими [1, с. 42-48].

Такое смешение стилей требует формирования новых коммуникативных компетенций, позволяющих выбирать адекватные языковые средства в зависимости от ситуации общения [4, с. 118-125].

Значение исследования для преподавания русского языка

Изучение трансформации речевого этикета имеет важное практическое значение для преподавания русского языка, особенно в нерусскоязычной аудитории. Студенты должны овладевать не только традиционными формулами речевого поведения, но и современными нормами цифровой коммуникации [5, с. 92-99].

Включение заданий по анализу переписки в мессенджерах, электронных писем и сообщений в социальных сетях способствует развитию коммуникативной и цифровой компетентности обучающихся [6, с. 141-148].

Перспективы развития речевого этикета в цифровой среде

Дальнейшее развитие цифровых технологий, включая искусственный интеллект, голосовых помощников и автоматизированные системы коммуникации, будет способствовать дальнейшей трансформации речевого этикета. Уже сегодня формируются новые нормы взаимодействия, регулирующие общение не только между людьми, но и между человеком и цифровыми системами.

Особое значение приобретает вопрос сохранения баланса между языковой экономией и соблюдением норм вежливости. Несмотря на тенденцию к сокращению сообщений и упрощению языковых форм, потребность в выражении уважения, тактичности и коммуникативного комфорта остаётся неизменной. В связи с этим сетевой этикет постепенно институционализируется, формируя устойчивые правила цифрового общения [3, р. 210-225; 6, с. 130-138].

Представляется перспективным дальнейшее изучение различий в использовании речевого этикета в зависимости от возраста, профессиональной сферы, культурной принадлежности и типа цифровой платформы. Особый интерес вызывает анализ общения в образовательной среде, где речевой этикет выполняет не только коммуникативную, но и воспитательную функцию [1, с. 287-295; 5, с. 201-214].

Речевой этикет в онлайн-общении представляет собой динамично развивающуюся систему, отражающую изменения в современной коммуникации. Цифровая среда способствует сокращению традиционных этикетных формул, усилению разговорности, использованию эмодзи и смешению функциональных стилей. Исследование этих процессов позволяет глубже понять закономерности развития русского языка и совершенствовать методику его преподавания в условиях цифровизации образования.

Список использованной литературы

1. Формановская Н. И. Речевой этикет и культура общения. М.: Высшая школа, 2002. 334 с.
2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. 477 с.
3. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 304 p.
4. Шмелёва Т. В. Речевое общение в цифровой среде // Русская речь. 2019. № 4. С. 101-126.
5. Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. М.: ЛЕНАНД, 2017. 308 с.
6. Горошко Е. И. Интернет-коммуникация: структура и свойства // Вопросы психолингвистики. 2015. № 3. С. 72-149.

YOLG‘ON VA ALDOVNING NEYROPSIXOLINGVISTIK SEGMENTLARI

Bobokalonov Po‘lotshoh,

filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD),

Osiyo Xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya. Maqolada nutq buzilishi holatlarining kommunikativ diskursda tez-tez uchrab turishi, yolg‘on va aldov kontentlarining neyropsixolingvistik segmentlar sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy tahlilga tortilgan. Mavzuni yoritishda fransuz yozuvchisi Prosper Merimening “Matteo Falkone” hikoyasi o‘rganish obyekti sifatida tanlangan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ diskurs, nutq buzilishi, kontent, neyropsixolingvistika, segment, yolg‘on, uydirma, aldov, Prosper Merime, “Matteo Falkone”.

Kirish. Kontent so‘zi, bu ilmiy tushuncha bo‘lib, “o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing va/yoki nashr etish uchun “nutq, yozuv yoki turli xil san‘at turlari kabi biron bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan axborot vositasi”, degan ma‘noni ifodalaydi. Insoniyat axborotni turli manbalardan olishi mumkin. Qadimgi qo‘lyozmalardan tortib, to hozirgi o‘lchamlari aniq bo‘lgan elektron manbalargacha insoniyatning bir-biridan qabul qiladigan va uzatadigan informatsiyalari diskurs holatida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, 23-dekabr 2024 yil holatida Yer aholisi jami soni 8,154,345,148 dan ortiq belgilanganligi aniq. Elektron doskani kuzatib hisoblaganimizda dunyo aholisi har daqiqada taxminan 140 nafarga oshib bormoqda. Ammo mavjud aholi ichida kommunikativ diskursga qatnashadigan qancha yolg‘onchi va qancha rostgo‘y miqdorini aniqlash mutlaqo mumkin emas. Chunki har daqiqada rost va yolg‘on ishlatib qo‘yganimizni hisoblamaymiz. Biroq yolg‘onni o‘z manfaatimizga qaratib, ishlatganimizni bilamiz [1; 2; 3].

Asosiy qism. Kommunikativ diskursda yolg‘on va aldash kontentlarini organishdan maqsad ularning miqdorini aniqlash emas, balki ularning nutq faoliyatida, matn va muloqot jarayonida nutqiy deformatsiyasi hosil bo‘lishni o‘rganishdan iboratdir.

Islomda faqat uch holatda yolg‘on gapirish kechiriladi: urushda, odamlar orasini isloh qilishda, er va xotinni yarashtirish zaruriyati tug‘ilganda [10].

Yolg'on rejalashtirilgan noto'g'ri qaror, uydirma, aldov, nohaqlik bo'lib ko'rinadi. Bu segment kommunikativ diskursda o'ziga xos rol o'ynaydi. Yolg'on aldov va qarama-qarshi manfaatlar, axloqiy va ijtimoiy normalar to'qnash kelgan paytda yuzaga keladi. Yolg'on – ba'zida ixtilofdan kelib chiqsa, adovatga aylanadi. *Yolg'onchilik, yolg'on gapirish, yolg'onga ishonish* leksemalari ham yolg'on o'zagidan paydo bo'lgan.

Yolg'onchilik shaxsdagi ruhiy holat bilan aloqador. Yolg'onni qanchalik yashirmaylik qirq yildan keyin ham siri oshkor bo'ladi. Yolg'onchilik aldanish, aldanib qolish, firibgarlikka duch kelish oqibatida fosh bo'ladi. Bu muammolarni o'rganuvchi psixologlar, yolg'on gapirish qiyinligini doim ta'kidlaydi. Haqiqatda, haqiqatni aytishdan ko'ra yolg'on ishlatish juda qiyin.

Yolg'on so'z ishlatilganda, insonning vujudida o'zgarish bo'ladi. Kamdankam odamning nutqidan yolg'on gapirayotgani bilinmay qoladi. Bunday odamlar o'ta mug'ombir ekanligi bilan ko'pchilik e'tiboriga tushishadi.

Ilmiy tahlil. Nutq deformatsiyasini yolg'on va aldash holatida hech kim va hech qachon kuzatmagan. Biz esa fransuz yozuvchisi Prosper Merimening "Matteo Falkone" hikoyasi zaminida neyropsixolingvistik tahlil olib borib, yolg'on va aldash segmentlarini kuzatishga urinib ko'rdik. Chunonchi:

Hikoyada Fortunato ismli bolakay yolg'on gapirib, o'zi pichanda yashirgan banditni tog'osi leytenant Gambaga kumush soatni olish evaziga fosh etib qo'yadi, Shuning oqibatida otasi Matteo banditdan o'z sha'niga nisbatan qattiq haqorat eshitib, farzandining qotiliga aylanadi. Bu vaziyatda paydo bo'lgan nutqiy deformatsiyani nafaqat ota holatida, balki jamiyat, siyosat, tabiat, odamiylik va hokazo masalalarda ham har doim ucratish mumkin.

Bolakay aqlsizligi tufayli yolg'onni soatga almashtiradi. O'z tili bilan emas, o'z nigohlari bilan banditni tutib berishga yordam beradi. Uning leytenant tog'asi qo'l soati bilan ish bajaradi. Bola shu xatosi uchun otasi tomonidan o'lim bilan mukofotlanadi, o'zicha "adolatli jazolandi". Ming afsuski, Fortunatoning otasi Matteo o'z o'g'li ustidan o'zi chiqargan hukmni "adolatli o'lim" deb baholadi.

Yolg'on ishlatish psixologik holatning o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Uni aniqlash uchun bilim va iste'dod talab etiladi. Leytenant Gamba bolakayga aynan shu usulni qo'llab maqsadga erishdi.

Yolg'on o'z tabiati, namoyon bo'lish shakli va maqsadiga ko'ra boshqa kontentlardan farqlanadi. Kimdir uni adolatni tiklash uchun kurash quroliga aylantiradi, kimdir yolg'on ishlatib foyda ko'radi. Har qanday holatda yolg'on oqibati inson hayotiga juda katta xavf soladi. Buni, albatta, hikoyani o'qib guvoh bo'lish mumkin [7].

Yolg'on kimdan va qayerdan chiqishidan qat'iy nazar, yomon yo'l tanlashni belgilab beradi. Jinoyat jarayonida haqiqatni aniqlashda xato ketish holati uchrab turadi, to'g'ri qaror qabul qilishda yolg'on adolatni sindiradi.

Aldash, yolg'onning ma'nodoshi, ammo u mantiqan tema emas, rema bo'ladi. Algebraviy tushunchada yolg'on suratdan, aldash maxrajdan joy oladi. Yolg'on birovni aldash uchun ishlatiladi. Haqiqiy fakt o'rniga yolg'onchi tasavvuridagi holatni qo'yish va haqiqatni aldoqchiga ma'qul bo'lgan uydirma bilan almashtirishning o'zaro hamkor usuli yolg'on va aldash birligida ro'yobga chiqadi. Yolg'on zanjirsimon xarakterga ega:

bir yolg'on ikkinchisini tug'diradi va u bilan bog'langan bir qator faktlarni mutanosiblashtirishni talab etadi.

Hikoyada yolg'onning bir necha turini kuzatish mumkin:

1. **Avtoritar aldash.** Oyog'idan jarohat olgan bandit Jannetto Sanpero bolakay Fortunatoga uni yashirishini so'raydi. U haqiqiy ma'nodagi bandit emas, hatti-harakatlari bilan shunday nom chiqargan. Bolakay undan qo'rqmaydi, uni yashirishdan bosh tortadi. Bolani ko'ndirish uchun saqlab turgan besh franklik tanga bilan bolani avrab yashirib oladi. U har qadamda o'z jonini o'ylaydigan va asraydigan unchalik hurmatga sazovor bo'lmagan odam ekanligi bola va soldatlar bilan bo'lgan munosabatda bilinadi, o'zini jonini e'zozlaydigan qo'rqq darajasida tutadi.

2. **Hiyla ishlatish.** Fortunato bolakay "yovvoyi odamlarga xos makkorlik bilan bir tadbir ishlatdi", banditning izlarini yashirish uchun ustiga tuproq sepib chiqdi. Ishini mustahkamlash uchun mushuk va uning bolalarini pichan g'arami oldiga keltirib tashladi. Bolaning o'jarlik qilib turishi ham yolg'onni yashirishdan darak beradi.

3. **Ayyorlikka qarshi makorlik qilish.** Leytinant Teodor Gamba boladan foydalanish uchun uni qo'rqitishga urindi. Bola g'ironlik bilan javob qaytardi. Otasi kimligi bilan hatto tazyiq qilishga urindi. Ofitser hech qanday najot qolmaganidan keyin avrash usuliga o'tdi va kumush soat bilan bolani ko'ndirdi. Gamba Matteo Falkonening qaynisi, bolani avrab o'z maqsadiga erishdi. Ammo ketish paytida yo'li shu tarafga tushgani va opasi Peppadan (asl nomi Juzeppe) ahvol so'rab ketishini yolg'ondan o'ylab topib gapirdi. Chunki uning yagona maqsadi banditni izidan quvish edi.

4. **Yolg'onni yashirish.** Matteo Falkone hamma bilgan darajada oppoq odam emas. Korsikada turli nayranglarga sherik bo'lgani, dehqonchilik qilishda o'rmonlarni yoqishga ishtirok etgani, hatto o'zi ham odam o'ldirgani hikoyaning ekspozitsiyasida bilinadi. Uning o'tmishda qilgan xatolari shunchaki bir sir bo'lib qolgan edi. Bolaning banditni tutib berishida uni shu jazoga loyiq topishi ortida o'zining yolg'onlari turardi. Yolg'on yuki og'ir, uning mutlaqo aybi yo'q inson deb bo'lmas edi. Bu haqiqatni yashirish ham yolg'on bilan hamnafas yashash bilan barobar. Vaziyat qurboni bo'lib, o'zi bilib-bilmay, bandit oldiga aldanib qoldi. Xotinidan bolani kimdan orttirib olganigacha so'radi. O'z farzandi ekanligiga shubha qildi, bolasi ekanligiga amin bo'lgach, bolasiga o'limni ravo ko'rdi va adolat tarafdori degan soxta obro'sini saqlab qoldi.

5. **Yolg'onchiga sherik bo'lish.** Xotini Juzeppe yoshligida o'z nozu karashmalari bilan qanchadan qancha yigitlarni rom etgan edi. Taqdiri Matteo Falkonega bog'lanib qolgach, nimadandir o'zini muttaham sanagandek, og'ir yukni yelkasiga ko'tarib yurishga u go'yo majbur. Eri Mateo esa faqat qo'lida qurol ushlab xotinini eshakchalik xo'rlanishiga chidaydi, undan qo'rqadi. U uch qiz tug'ib berib, oila muammosini yecha olmadi, so'ngra Fortunatoni mashaqqat bilan dunyoga keltirdi, unga Fortunato – "nasl davomchisi" degan nom qo'ydi. Ammo uni tish-tirnog'i bilan asrab qola olmadi. U hatto, yolg'on ishlatib bo'lsa ham, bolasini asrashga qodir emas edi. Bulardan anglashiladiki, ularning hayoti yolg'on ustida qurilgan edi. Voqealarning boshidan oxirigacha yolg'on ustida qurilgan hayot tasvirlanganini bir o'qishda bilib olish mumkin.

Aldashga urinadigan odamlar o'z xulqini, jumladan ovozinig sas-sadosini nazorat qilishga harakat qiladilar, ammo shu paytda buni qay darajada uddalaganliklarini aniq bila olmaydilar, chunki o'z ovozinig sas-sadosini to'liq nazorat qilish ancha qiyin ish. Jumladan, har bir obrazga e'tibor qaratib, bu ovozlarni biz yozuvchining ishlatgan kommunikativ diskursidan bilib oldik. Hayajon, jumladan fosh bo'lishdan qo'rqish tufayli kelib chiqadigan jarayonga ko'proq diqqat qaratdik hamda yolg'on axborot berish vaqtida ovoz va nutqda ko'rinadigan quyidagi belgilarni farqladik:

- ovozda titroq paydo bo'lishi; Fortunatoda buning aksini ko'rdik, bandit Janettoda esa qo'lga tushganidan keyin tirik qolishi uchun hamma narsaga tayyor ekanligi sezildi, Matteo Falkone juda xomush bo'ldi, bolasini o'zi bilan olib ketmaganidan afsus chekdi, uning xotini esa voqelikning dahshatini birinchi safar ko'rmaganini namoyon etib, o'zini maydondan chetga oldi. Leytinant Gamba har xil usullar bilan jiyanidan foydalanib ko'rdi va o'zi yolg'onni fosh qilish uchun hiyla ishlatdi;

- vaqti-vaqti bilan ovozni tozalash, yo'talib qo'yish; bunday holat emplitit holda hikoyada sezilib turdi. Xususan, bandit nutqidagi titroq va onaizor Juzeppeaning yigi faryodi juda baland eshitildi;

- og'iz qurishi hamda yutinish va lablarni yalash ehtiyoji tufayli gap o'rtasida jumlarlar uzilishi; bu holat bandit va leytenantning aljirab qapirishida namoyon bo'ldi.

- nutq ohangi (intonasiya)dagi ixtiyorsiz o'zgarishlar; barcha obrazlarda bu holat kuzatildi, faqat Matteo Falkoneda sukut saqlash va g'azab alomati nutq ohangining xomush qilib ko'rsatdi;

- nutq tezligidagi o'zgarish (jumlalarini oldindan o'ylab ko'rish zarurligi tufayli pasayishi); bolakay Fortunato yolg'onni yashirishda ancha hushyor, leytenant tog'asi Gambaga bas keladigan darajada ustakor. Ularning nutqlari sur'ati har maqomga o'zgardi. Banditning bola va leytenant bilan muloqoti sur'ati dinamik tebrandi ;

- ovoz tembrining o'zgarishi: bu holatni ham yuqoridagi obrazlarda ko'rish mumkin bo'ldi.

Bulardan kelib chiqadiki, ovozda hissiyotlar ko'rinishining ko'proq o'rganilgan belgisi ohang kuchayishida namoyon bo'ladi. Ranjigan odamlarda ovoz pardasi ko'tarilib boradi (masalan, bandit va leytenant nutqida) Ular g'azabl原因 yoki qo'rqan hollarda buni yanada ko'proq ko'rish mumkin. G'am-anduh yoki qayg'u-hasrat vaqtida ovoz pardasining pasayishidan dalolat beradigan tadqiqotlar mavjud. Va nihoyat, hayajon, xafagarchilik, nafrat va jirkanish vaqtida ovoz pardasining balandligi qanchalik o'zgarishi yoki o'zgarmasligi aniqlanmagan. Ovoz pardasining ko'tarilishi yolg'ondan dalolat beradigan ishonchli belgi emas; u qo'rquv yoki g'azab va, ehtimol, hayajon belgisidir. Ammo ovoz va undagi o'zgarishlarga qarab aldashdan rohatlanishni ham aniqlash qiyin.

Ilmiy mulohaza. Yolg'on gapirish insonga qo'rquv soladi. Ovozda hissiy o'zgarishlarni yashirish oson emas. Yolg'on gapirish paytidagi hissiyotlar haqida gapiriladigan bo'lsa, axborotning oshkor bo'lish ehtimoli ancha katta. Agar yolg'on gapirishdan maqsad qo'rquv yoki g'azabni yashirish bo'lsa, ovoz balandroq pardada va qattiqroq chiqadi, nutq esa, ehtimol, tezlashadi [4; 5; 6]. Bu hikoyada esa bolakay

Fortunato yolgʻonni oʻz qarashlari doirasida oʻz manfaati yoʻlida hal etishida namoyon boʻladi.

Maʼlumki, psixologik nuqtai nazardan inson diqqati ixtiyoriy va ixtiyorsiz boshqariladi. Ixtiyorsiz reaksiyada yuzning oqarib ketishi, qizarishi, qoʻlning qaltirashi, tez-tez nafas olish, terlab ketish, ovozning buzilishi, harakat yoʻnalishining oʻzgarishi, duduqlanish va boshqalarda namoyon boʻladi. Ixtiyoriy reaksiyalar esa «yolgʻon detektori» orqali tashxis apparatlarida aniqlanadi. Bunday reaksiyalar koʻrib oʻtilgan hikoya zaminida quyidagicha koʻrinishda boʻladi:

- yuzning qizarishi – uyat, gʻazab. Bu tuygʻu Matteo Falkoneda kuchli ifodalanganini his etish mumkin;

- oqarib ketish – qoʻrquv, aybdorlik hissi. Bu holat bolakay Fortunato va bandit Julietto hamda bolakayning onasining yuzida paydo boʻlgani maʼlum boʻladi;

- qorachiqning kengayishi – qiziqish, qoniqish hissi, rozilik, kuchli ogʻriq. Fortunato kumush soatni koʻrganda es-hushini yuqotadi, uni olishga qiziqadi;

- qorachiqning torayishi – qoniqmaslik, rad qilinish. Bu holat leytenant. Gambaga mos tushadi, u maqsadga erishish uchun jiyani Fortunato qulogʻidan choʻzishini misol qilish mumkin;

- qoʻl va boʻyin sohasi arteriyasida tomir pulsining kuchli urishi – (yurak urishining faollashuvi bilan boʻyinbogʻni boʻshatishga urinish) xavotir, qoʻrquv, uyat, yolgʻon. Bu holatlar ham Fortunato, Matteo, Gamba, Julietto, Juzeppe obrazlarida va shu hikoya asosida tayyorlangan filmda namoyon boʻladi;

- puls chastotasining pasayishi – diqqatning oshishi. Fortunato, Julietto, Juzepkada kuchli, Matteo va Gambada sezilarli darajada;

- tez-tez va yuzaki nafas olish – ichki zoʻriqish. Fortunato, Julietto, Juzepkada kuchli;

- burundan qisqa-qisqa nafas olish – jahl chiqish. Matteo va Gambada kuchli;

- nafas olishning buzilishi, tomoqning qisilishi, tupukni reflektiv yutinish – vahima, uyat, yolgʻon, Fortunato va Juliettoda kuchli;

- ogʻizning qurishi (yutinish, labni yalash, tashnalik...) – qoʻrquv, yolgʻon. Bu holatni Matteoda va Juliettoda kuchli boʻlishini taxmin qilish mumkin;

- toʻsatdan tishlarni koʻrsatish – qahr, tajovuzkorlik leytenant Gamba va Juliettoda koʻrinadi;

- terlamoq, ter – gʻazab, xijolat boʻlish, asabiylashish, yolgʻon. Bu holat deyarli barcha obrazlarning tashqi qiyofasida namoyon boʻladi;

- titroq (qoʻl, oyoq barmoqlarida, yuz mushaklarida) – ichki zoʻriqish, qoʻrquv, yolgʻon. Fortunato, Julietto va Juzepkada kuchli;

- koʻzini pirpiratishi – qoʻzgʻalish, yolgʻon, Fortunatoda juda kuchli;

- qorinning gʻuldirashi – qoʻrquv (doim ham emas, vaziyatga qarab). Bu holatni kuzatish juda mushkul;

- tishlarni gʻijirlatish – kuchli nevroz, stress, oʻylaganni amalga oshira olmaslik, bu leytenant Gamba va bandit Juliettoga xos holatdir.

Olib borilgan neyropsixologik tadqiqotlarda bunday reaksiyalar ayollarga nisbatan erkaklarda aniqroq ifodalanadi va kuzatish imkoni koʻproq boʻlishi taʼkidlanadi [9].

Mazkur hikoyada ham bir qator nutqiy buzilishlar uchraydi. Masalan, Fortunatto va leytenant. Gamba o'rtasidagi munosabatda «*Perche me c...*» degan tushunarsiz ifoda uchraydi. Avtor izohi bo'yicha "Siz nega meni mazax qilayapsiz?" deb Fortunato unga noroziligini namoyon qiladi. Ikkinchi misol: "Bandit" so'zi shunchaki yashirin holatni namoyon etadi. Bu so'z "jinoyatchi" ma'nosida juda yumshoq qo'llangan. Uchinchi holat: Juzeppe asl nomi Peppa erkalash so'zi bilan o'zgartirib ifodalangan. Shular bilan bir qatorda, diskursda sintaktik qurilmalarning to'liqsiz gap bo'lib ifodalanishi (Chunonchi: – *Soatni kim berdi senga?* – *deb so'radi u qahr bilan.* – *Serjant amakim;* – *Xotin!* – *dedi u.* – *Mendan bo'lganmi shu bola?* *Juzeppaning bug'doy rang chehrasi g'ishtdan ham qizilroq tusga kirdi.* – *Esingni yig'!* – *Ming la'nat!* – *dedi Matteo eshitilar-eshitilmas kabilar*), haqorat so'zlar (*Kutib tur? La'anati-e!*; – *Hoy, mug'ombir!*; – *Sotqinning uyi!*; – *Yo'qol ko'zimdan!*; – *Yo'qol!*) obrazlar ruhiy holatini namoyon etishga xizmat qilgan. Bularning barchasini neyropsixolingvistik nutqiy deformatsiyaning ko'rinishlari deb baholash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, suhbat jarayonida yolg'on gapirish borgan sari qiyinlashib borishi bilan bog'liq:

- so'zlarda qat'iyatsizlik paydo bo'lishi;
- to'xtovsiz gaplashish yoki ko'plab savollar berish orqali suhbatdoshni chalg'itish;
- savollarga javob berishni istamaslik yoki javob bera olmaslik;
- savollarga javob berishdan oldin uzoq vaqt jim qolish; savollarga haddan tashqari imillab yoki chalkash javob berish;
- berilayotgan savollarni ovoz chiqarib takrorlash yoki tushunarliroq qilib berishni so'rash;
- savolning mohiyatini ishga aloqasi bo'lmagan ortiqcha ma'lumotlar bilan niqoblash kabi.

Shaxs hatti-harakatidagi quyidagi xususiyatlar uning yolg'on gapirayotganidan dalolat berishi mumkin:

- inson xulqining vaziyatga nomuvofiqligi;
- xayrixohlikni oshirib yuborish; vaziyat taqozo etmasa ham iljayaverish;
- so'ramagan yordamingizni berish;
- arziyas sabablarga ko'ra qahr-g'azabini baralla ko'rsatish;
- o'zini yomon his qilayotganidan shikoyat qilish, tibbiy yordam so'rash, bu hol haqiqatan ham umumiy ahvoli yomonlashganidan dalolat berishi ham, e'tiborni chalg'itish usuli, suhbatni tugatish uchun bahona bo'lishi ham mumkin.

Xulosa. Olib borilgan tahlildan ma'lum bo'ldiki, ko'rib o'tilgan parametrlar shaxsning ruhiy holatlatini aniqlashtirishda qulaylik yaratadi. Bu vaziyatlar hayotda yolg'on va aldash kontenti sifatida kommunikativ diskursning og'zaki va yozma ko'rinishlarida har zamonda uchrab turishini aniqlash har bir insonning aldanmay qolishi uchun muhimdir. Bu segmentlar neyropsixolingvistik o'lchamlarda lingvistik shaxsning nutqiy holatini baholashda qulaylik tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobokalonov R.R. Speech product, semiotic sign, discourse and neuropsycholinguistic state, Globedite. Chisinau, 2023 -1-327 p.
2. Bobokalonov R. R. Medicine and neuropsycholinguistics. Monograph, GlobEdite. 2023. P. 3-123. ISBN: 978-620-0-64769-6.
3. Bobokalonov R.R. Neuropsycholinguistics: linguistic personality and charismatic person. Theory, practice and methodology. Monograph, LAP LAMBERT Academic Publishing. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
4. Bobokalonov R.R. Speech production, semiotic sign, discourse and neuropsycholinguistic status. Monograph, GlobEdite. 2023. P. 3-223. ISBN: 978-620-0-64729-0.
5. Freud Z. "Prohibition, symptom and fear", 2001.
6. Freud A. Psychology of the "I" and defense mechanisms -M.: "Education" 1993.
7. Prosper Merime. Matteo Falkone. Hikoya. Rus tilidan O.Sharafiddinov tarjimasi, <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/prosper-merime-matteo-falkone.html>
8. Sayfullaeva R.R., Bobokalonov R.R. Neuropsycholinguistics: the linguistic personality and the charismatic person. Monograph in Uzbek, GlobEdite. 2023. P. - 3-149. ISBN: 978-620-0-64878-5.
9. Sulaymonov M. Yolg'on gapirishimiz rostmi? <https://www.samdu.uz/uz/news/18246>
10. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uchta-holatda-yolgon-gapirishga-ruxsat-bor>



HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA QO‘LLANGAN PRETSEDENT BIRLIKLAR



Rizayeva Umeda O‘ktam qizi,
NavDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoirasi, betakror iste’dod sohibasi Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida qo‘llangan pretsedent birliklar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida shoira she’rlarining badiiy pishiqligi va o‘ziga xosligida pretsedent birliklarning o‘rni misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: pretsedent birlik, madaniy kod, lingvopoetik ko‘lam, emotsional bo‘yoq, kognitiv baza, lisoniy qolip, pretsident jumla, pretsident nom.

Аннотация. В данной статье анализируются прецедентные единицы, использованные в поэзии Народного поэта Узбекистана, обладательницы уникального таланта Халимы Худойбердиевой, а также их специфические особенности. В ходе исследования на конкретных примерах раскрывается роль прецедентных единиц в обеспечении художественной зрелости и самобытности стихотворений поэтессы.

Ключевые слова: прецедентная единица, культурный код, лингвопоэтический масштаб, эмоциональная окраска, когнитивная база, языковая модель, прецедентное высказывание, прецедентное имя.

Abstract. This article analyzes the precedent units used in the poetry of the People's Poet of Uzbekistan, the uniquely talented Halima Khudoyberdiyeva, and their specific characteristics. The study highlights the role of precedent units in ensuring the artistic perfection and uniqueness of the poetess's poems through specific examples.

Keywords: precedent unit, cultural code, linguopoetic scope, emotional coloring, cognitive base, linguistic pattern, precedent statement, precedent name.

Kirish. Badiiy matnning lingvopoetik qimmatini belgilovchi eng asosiy omillardan biri — bu muallifning lisoniy xazinadagi tayyor elementlardan, xususan, pretsedent birliklardan foydalanish mahoratidir. Halima Xudoyberdiyeva she’riyati o‘zining milliy ruhi, xalqona ohangi va chuqur falsafiy ildizlari bilan ajralib turadi. Shoira lirikasi doirasida pretsedent birliklar shunchaki tayyor lisoniy qoliplar emas, balki matnning badiiy qiymatini boyituvchi, kitobxon tasavvurida muayyan madaniy-tarixiy fonni jonlantiruvchi kognitiv-estetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pretsedent birliklar tushunchasi tilimizda azaldan qo‘llanib kelgan bo‘lsada, fanda til hodisasi

sifatida endigina o'rganila boshladi. Uni mohiyatan "talmeh" san'atining lingvistik shakli deyish mumkin. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda pretsedent birliklar deganda, ma'lum bir lisoniy jamoa uchun qadrli bo'lgan, qayta-qayta murojaat qilinadigan va nutqiy vaziyatlarda kognitiv bazani yangilovchi birliklar tushuniladi. Akademik V.V. Krasnix ta'kidlaganidek, "Pretsedent birliklar — bu shunday birliklarki, ular kognitiv jihatdan barcha nutq sohiblari uchun tushunarli, emotsional jihatdan ahamiyatli va muayyan madaniyatning lisoniy manzarasi shakllanishida tayanch vazifasini o'taydi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Rus tilshunosligida pretsedentlik muammosi lingvokulturologik va psixolingvistik aspektlarda o'rganilgan. Lingvokulturologik aspektda V.N.Teliya (1986), N.D.Arutyunova (1988), V.G.Kostomarov, N.D.Burvikova (1994), Y.YE.Proxorov (1996), G.G.Slishkin (2000), N.F.Alefirenko (2010), V.A.Voropayev(2009)lar pretsedent birliklarni tasniflash muammolari, V.A.Voropayev (2012), V.M.Shaklein (2012), YE.A.Fleysher (2014), M.L.Kovshova (2019)lar pretsedent nomlar masalasini; Y.A.Sorokin (1997),

N.S.Panarina (2017), N.V.Bubnova (2019) va boshqalar esa psixolingvistik aspektda tadqiq etganlar. [2]

D.Xudoyberganova "Matnning antropotsentrik tadqiqi" monografiyasida o'zbek tilshunosligida birinchi marta pretsedent birliklarni tadqiq qiladi va shu yo'nalishdagi qator izlanishlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. [3] D.Xudoyberganova pretsedent birliklarning pretsedent nom, pretsedent jumla, pretsedent matn turlari mavjudligi va ular motiviga ko'ra badiiy va diniy matnlar, mashhur va qiziq voqealar, afsona, rivoyat, ertak, latifa, kinofilmlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan , Layli, Majnun, Xizr, Nasriddin afandi,

Shum bola, Qorabotir, Tohir-Zuhra, Sotti kabi. [4]

N. Safarova o'zbek tilshunosligida pretsedent birliklarning kognitiv va diskursiv xususiyatlarini eng chuqur tadqiq qilgan olimlardan biridir. Olima pretsedent birliklarni "millatning madaniy kodini o'zida saqlaydigan va nutqda tejamkorlikni ta'minlovchi tayyor andozalar" [5]deb ta'riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari — lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvopoetika tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Tavsifiy metod: Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi pretsedent birliklarni aniqlash, ularni turkumlash va badiiy matndagi lisoniy ko'rinishlarini bayon etishda qo'llanildi.

2. Kognitiv-semantik tahlil: Shoiri ijodidagi pretsedent nomlar (Navoiy, To'maris, Dukchi Eshon, Otabek, Kumush va b.) ortida turgan kognitiv bazani, ya'ni kitobxon ongida jonlanadigan madaniy-tarixiy bilimlarni ochib berishda foydalanildi.

3. Kontekstual tahlil: Pretsedent birliklarning she'riy matn ichidagi yangicha ma'no tovlanishlari, ularning muallif individual uslubiga xos bo'lgan estetik funksiyalari (masalan, Navoiy obrazining "non" metaforasi orqali berilishi) tahlil qilindi.

4. Lingvokulturologik interpretatsiya: Matndagi pretsedent birliklar o'zbek xalqining "madaniy kodi" sifatida o'rganildi. Bunda birliklarning milliy o'zlikni ifodalash va tarixiy xotirani uyg'otishdagi roli tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. H.Xudoyberdiyeva ijodida ushbu birliklar tizimi o'zbek xalqining boy o'tmishi, mumtoz adabiyot namunalari, muqaddas diniy manbalar va mifologik tushunchalar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shoiralarida pretsedentlik usulining go'zal namunalarini ko'rish mumkin. Xususan, buyuk bobolarga ehtirom, ularning xalq tarixidagi xizmatlarini e'tirof etish, ta'kidlash ma'nosida pretsedent nomlarni keltirish usuli ko'p uchraydi. Shoiralar:

“Navoiy — non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,

G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj. (To'rtlikdan)

- deya xitob qilgan ekan, Navoiy merosini insoniyat yashashi uchun eng zaruriy moddiy ehtiyoj - non bilan qiyoslaydi. Bu yerda pretsedent nomning semantik ko'lamini kengaytib, u ma'naviy ochlikni qondiruvchi yagona manba sifatida talqin etiladi. “Toj” metaforasi esa Navoiyni tafakkur olamining sultoniga, uning asarlarini esa butun borliqni yorituvchi nurga qiyoslab, pretsedent nomning asl mohiyatini ochib beradi.

Shoiralarining davomida pretsedent birlikning diskursiv imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi:

Navoiyga o'zin ura, urma kofirni,

Axir, nonga musulmonu kofir birday och.

Ushbu misralarda ijodkor Navoiy shaxsini milliy chegaralardan yuqori qo'yadi. Bu yerda **“musulmon”** va **“kofir”** tushunchalari Navoiydek pretsedent siymo qarshisida tenglashadi. Shoiralar lirik qahramon tili bilan Navoiy merosini barcha uchun birdek daxldor bo'lgan, insoniyatni ma'naviy inqiroz(ochlik)dan qutqaruvchi **“umuminsoniy non”** deb e'lon qiladi.

Shoiralar Navoiy siymosidan boshlangan ma'naviy yo'lni qat'iyat va kurash maydoniga olib chiqadi. Bu yerda “To'maris” pretsedent nomi matnning ichki mazmunini tarixiy voqelik — Eron shohi Kir ustidan qozonilgan g'alaba syujeti bilan bog'laydi. I. Yoqubov ta'kidlaganidek, “kitobxon ushbu ismni eshitganda, uning ortidagi butun bir tarixiy voqeani va hissiyotni bir lahzada tasavvur qiladi” [6]:

Iloham, yonarkan ko'ksingda o'ch, kek,

Qasos maydoniga kelarkan kirib,

Bir qadam oldinga o't, To'marisdek

Yov boshini qonli xumga botirib. (“Bir qadam oldinga” she'ridan)

Ushbu bandda “To'marisdek” o'xshatishli pretsedent birligi lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalashda kognitiv model vazifasini o'taydi. Shoiralar “yov boshini qonli xumga botirish” kabi pretsedent vaziyatni (tarixiy detalni) keltirish orqali matnning ekspressivligini keskin oshiradi.

Nechun, bu - omad – deb bo'g'izni yirtmoq,

Shosha-pisha yuvmoq sachragan qonni.

Tushimda ilonday sollanar sirtmoq,

Dorga osadilar Dukchi Eshonni! (“Menga aytadilar” she'ridan)

Ushbu bandda Halima Xudoyberdiyeva **“Dukchi Eshon”** pretsedent nomi orqali she’rning dramatik ko‘lamini milliy ozodlik harakati va fojiaiy tarixiy xotira darajasiga ko‘taradi. Shoira lirikasi doirasida bu ism shunchaki tarixiy shaxs nomi emas, balki N. Mahmudov ta’biri bilan aytganda, **“milliy madaniy xotiraning lisoniy ko‘rinishi”** [7]— haqiqat yo‘lidagi qurbonlik ramzi bo‘lib keladi. Bu o‘rinda pretsedent birlik matnning ichki mazmunini kengaytirishga, ya’ni 1898-yildagi Andijon qo‘zg‘oloni va uning ayanchli yakuni bilan bog‘liq butun bir tarixiy fojiani birgina ism orqali jonlantirishga xizmat qilmoqda. Shoira Dukchi Eshon shaxsini keltirish orqali nafaqat o‘tmishni yodga oladi, balki **“omad”** deb atalgan soxta g‘alabalarning ortidagi qonli haqiqatni fosh etadi.

H.Xudoyberdiyeva she’riyatida pretsedent birliklar milliy madaniy xotirani uyg‘otuvchi, fikrni obrazli va ta’sirli ifodalovchi, eng muhimi, nutqda ma’naviy zichlikni ta’minlovchi muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi.

Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi misralarida **pretsedent nomlar** (*Otabek, Kumush, Zaynab*) va **pretsedent voqelik** (Abdulla Qodiriyning *“O‘tkan kunlar”* romani syujeti) asosida shakllangan yuksak lingvopoetik mahorat namoyon bo‘ladi:

“Gulim”, yonar Otabek ichdan qulab ketgan tog‘.

“Zaynab, Senga ming la’nat, taloqsan Sen. Ket, “taloq!”

Kumush yarq ko‘zin ochdi bu so‘zni eshitgan chog‘,

Qayta yumdi... Voh darig‘, shu so‘zmidi bor ilinj?!

So‘ng Otabek ko‘ksiga bosh qo‘yib jon berdi tinch. (*“Kumushning o‘limi” she’ridan*)

Ushbu lirik parchada **“Otabek”, “Kumush”** va **“Zaynab”** ismlari shunchaki shaxs nomlari emas, balki butun bir millatning badiiy tafakkuriga singib ketgan **pretsedent nomlar** vazifasini o‘tamoqda. Shoira ushbu nomlarni qo‘llash orqali kitobxon ongida *“O‘tkan kunlar”* romanidagi fojeaviy yakunni — Kumushning vafoti va Otabekning iztiroblari bilan bog‘liq butun boshli **pretsedent vaziyatni** bir lahzada jonlantiradi. Shoira pretsedent birliklar yordamida o‘zbek kitobxoni uchun tanish bo‘lgan klassik syujetni yangicha poetik talqinda taqdim etadi. Bu yerda **“Otabek”** — qulagan ma’naviy tog‘, **“Kumush”** — so‘nggi adolatni kutgan sadoqat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur pretsedent birliklar majmuasi matnda lisoniy tejamkorlikni ta’minlab, asar mazmuniga fojiaiylik va emotsional bo‘yoq bag‘ishlaydi.

Xulosa va takliflar. H.Xudoyberdiyeva lirikasida pretsedent nomlar qo‘llanilishi she’rning poetik ko‘lamini kengaytirib, uni umummilliy madaniyat darajasiga ko‘taradi. Shunday ekan H.Xudoyberdiyeva va boshqa shoirlarning ijodida qo‘llangan pretsident birliklarni o‘rganish ijodkorlarning lingvopoetik mahoratini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – С. 174.

2. Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: дисс. канд. филол.наук. Санкт-Петербург, 2014.

3. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология (Услубий қўлланма), Наманган 2017.; Сайдалиева М. Ўзбек прецедент номларининг қўлланишидаги айрим жиҳатлар // IV-EUROASIA International Congress on Multidisciplinary Studies. Shymkent, Kazakhstan, August 25-28, 2019.; Пардаева Н.Э. Замонавий тилшуносликнинг лингвокультурология соҳасида прецедент бирликлар тадқиқи // "Экономика и социум" №1(80) 2021// <https://www.iupr.ru>; Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, № 3 (38), 78-92
4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Т.: —Фан||, 2013. – Б. 90-91.
5. Safarova N. O‘zbek nutqida pretsedent birliklarning kognitiv-diskursiv tadqiqi: Filol. fan. dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 18.
6. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik idrok. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 124.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 7.
8. Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. She’rlar. – Toshkent:Sahhof nashriyoti, 2022. -352 b.



ИНТЕРНЕТ-СЛЕНГ КАК ЧАСТЬ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА



Шахноза Батыралиева

*д.ф.н.н.(PhD), и. о. доцента кафедры филологии
Образовательного университета Ренессанс*

Абсаматова Хонзодабегим

*студентка 3 курса
направления филология и обучение языкам (русский язык)
Образовательного университета Ренессанс*

Аннотация. В этой научной статье рассматривается интернет-сленг как важная часть современного русского языка. В работе рассматриваются детали создания и функционирования интернет-сленга, его влияние на языковую систему и роль цифровой коммуникации в изменении речевых норм. Особое внимание уделяется структурам, семантике и прагматике сленговых единиц, возникающих в Интернете. Согласно исследованию, интернет-сленг не только служит средством неформального общения, но и играет важную роль в развитии языка, отражая социальные, культурные и технологические изменения, происходящие в обществе.

Ключевые слова: интернет-сленг, современный русский язык, цифровая коммуникация, неологизмы, языковая трансформация, лексика, онлайн-дискурс, речевая норма.

Abstract. This scientific article examines internet slang as an important component of the modern Russian language. The study explores the mechanisms of formation and functioning of internet slang, its impact on the linguistic system, and the role of digital communication in transforming speech norms. Particular attention is paid to the structural, semantic, and pragmatic features of slang units that emerge in online environments. The findings indicate that internet slang serves not only as a means of informal communication but also plays a significant role in language development, reflecting ongoing social, cultural, and technological changes in society.

Keywords: internet slang, modern Russian language, digital communication, neologisms, language transformation, vocabulary, online discourse, speech norm.

Стремительное развитие цифровых технологий существенно влияет на все сферы человеческой деятельности, включая язык. Интернет как универсальная коммуникативная среда формирует новые условия речевого взаимодействия, в которых активно возникают и распространяются новые слова, трансформируются языковые нормы и развивается особый пласт лексики – интернет-сленг. [1, с. 45-62; 2, с. 78-94].

Интернет-сленг представляет собой совокупность неформальных языковых единиц, используемых преимущественно в онлайн-коммуникации. К ним относятся сокращения, аббревиатуры, заимствования, неологизмы, графические и

символические формы выражения. Его распространение обусловлено стремлением к языковой экономии, экспрессивности, высокой скорости передачи информации, а также влиянием глобализации и межкультурных контактов. [3, с. 101-119].

Актуальность темы статьи определяется широким распространением интернет-сленга и его заметным воздействием на современный русский язык. Сленговые единицы активно используются не только в социальных сетях и мессенджерах, но и в устной речи, средствах массовой информации и художественных текстах. Это свидетельствует о постепенном стирании границ между разговорным и литературным стилями.

Цель статьи – выявить основные структурные, семантические и функциональные особенности интернет-сленга и определить его роль в развитии современного русского языка.

Проблема интернет-сленга находится в центре внимания социолингвистики, прагмалингвистики, когнитивной лингвистики и теории дискурса. Исследователи отмечают, что интернет-сленг представляет собой особую форму языкового творчества, возникающую в условиях цифровой коммуникации. Его формирование связано с языковой экономией, игровой природой речи, стремлением к самовыражению и групповой идентификации. [4, с. 60-68; 6, с. 33-51].

Особое значение имеет влияние английского языка, которое проявляется в многочисленных заимствованиях и гибридных образованиях: лайк, пост, репост, стрим, бан, чатиться. Многие подобные единицы постепенно переходят из интернет-среды в повседневную речь.

Интернет-дискурс характеризуется краткостью, фрагментарностью, сочетанием письменных и устных элементов, активным использованием графических средств (эмодзи, мемов, символов). В этих условиях интернет-сленг выполняет важные коммуникативные и экспрессивные функции.

Интернет-сленг представляет собой динамичную систему, отражающую специфику цифровой коммуникации. Его важнейшими характеристиками являются краткость, экспрессивность, вариативность и высокая скорость обновления.

Словообразовательные особенности

Наиболее продуктивными способами образования интернет-сленга являются:

- сокращения и аббревиатуры (ИМХО, ЛОЛ, оффлайн);
- заимствования из английского языка (лайк, бан, стрим);
- графические и фонетические трансформации (спс, пж, щас);
- семантическое переосмысление существующих слов.

Эти формы обеспечивают экономию языковых средств и ускоряют коммуникацию. [2, с. 88-90].

ИМХО – это аббревиатура от английского In My Humble Opinion или In My Honest Opinion, что переводится как «по моему скромному (или честному) мнению».

Главная функция «ИМХО» – обозначить личную точку зрения и смягчить категоричность высказывания, особенно в спорных или эмоциональных темах.

Современный пользователь знает, что “ЛОЛ” – это аббревиатура, означающая “laughing out loud”, то есть «очень громко смеюсь».

Несмотря на то, что «ЛОЛ» – это реакция на смешное, сейчас его часто используют как индикатор легкого удивления или для смягчения фразы.

Примеры английских и международных аббревиатур:

FYI - for your information (к вашему сведению);

BTW - by the way (кстати);

ASAP-As Soon As Possible – (как можно скорее);

FOMO-Fear Of Missing Out – (страх пропустить что-то интересное);

TMI -Too Much Information – слишком много информации (слишком откровенно).

Функции интернет-сленга

Интернет-сленг выполняет несколько основных функций [4, с. 65-70; 6, с. 42-48]:

1. Коммуникативную – облегчает и ускоряет обмен информацией.
2. Экспрессивную – передаёт эмоции, оценки, иронию.
3. Идентификационную – обозначает принадлежность к определённой социальной группе.
4. Креативную – стимулирует языковое творчество пользователей.

Влияние на современный русский язык

Интернет-сленг активно пополняет словарный состав русского языка. Многие единицы выходят за пределы цифровой среды и становятся частью повседневного общения. Это способствует обновлению лексики и расширению выразительных возможностей языка.

Одновременно распространение интернет-сленга вызывает дискуссии о состоянии речевой культуры. С одной стороны, он повышает коммуникативную гибкость; с другой – чрезмерное употребление может приводить к снижению орфографической и стилистической грамотности.

Социальный аспект

Особенно активно интернет-сленг используется молодёжью как средство самовыражения и формирования групповой идентичности. Через сленговые выражения пользователи демонстрируют принадлежность к определённым интернет-сообществам и современным культурным тенденциям. [4, с. 69-73; 6, с. 47-51].

Заключение

Интернет-сленг является важным и активно развивающимся компонентом современного русского языка. Он отражает особенности коммуникации в цифровую эпоху и выполняет коммуникативную, экспрессивную, идентификационную и креативную функции.

Исследование показало, что интернет-сленг представляет собой не хаотичный набор слов, а динамичную языковую систему со своими

закономерностями формирования и функционирования. Он способствует обновлению словарного состава русского языка, расширяет выразительные возможности речи и отражает процессы цифровизации и глобализации.

В то же время чрезмерное использование сленговых единиц может отрицательно влиять на речевую культуру, поэтому важно соблюдать баланс между языковыми инновациями и нормами литературного языка.

Таким образом, интернет-сленг следует рассматривать как естественный этап развития языка, отражающий социальные и культурные изменения современного общества. Перспективы дальнейших исследований связаны с изучением региональных особенностей интернет-сленга, его влияния на различные функциональные стили и роли в формировании языковой личности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алексеева Т. Н. Современный русский язык в цифровую эпоху. – Москва: Наука, 2021. – С. 45-62.
2. Баранов А. Н. Язык интернета: структура и функции. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – С. 78-94.
3. Васильева Л. Г. Лексические инновации в русском языке. – Москва: Флинта, 2022. – С. 101-119.
4. Горшков М. К. Социолингвистика и интернет-коммуникация. – Москва: Юрайт, 2021. – С. 56-73.
5. Иванова Е. В. Интернет-сленг как лингвистическое явление. – Казань: Казанский университет, 2020. – С. 88-105.
6. Карасик В. И. Языковая личность в цифровом пространстве. – Волгоград: Перемена, 2023. – С. 33–51.
7. Плотникова С. Н. Дискурс социальных сетей. – Москва: ЛЕНАНД, 2022. – С. 120-138.
8. Сидорова Н. А. Современные тенденции развития русского языка. – Санкт-Петербург: Лань, 2021. – С. 67-84.

FONATSION NOVERBAL VOSITALAR PRAGMATIKASI

Yusubova Umida

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda nutqiy muloqotning ajralmas qismi hisoblangan fonatsion noverbal vositalarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Ishda inson ovoz tabiatiga xos bo'lgan tembr, temp (tezlik), intonatsiya (ohang), pauza, tovushlarning cho'zilishi yoki tushib qolishi singari fonatsion vositalarning badiiy matnda aks etish modellari o'rganilgan. Fonatsion vositalarning so'zlovchi ruhiy holatini ochib berish, matnda semantik kuchayishni yuzaga keltirish va muloqot mazmunini boyitishdagi pragmatik funksiyalari badiiy parchalar misolida asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: Fonatsion vositalar, paralingvistika, ovoz tembri, nutq tempi, qisqalik, intonatsiya, badiiy matn, pragmatika.

Аннотация: В данном исследовании анализируются лингвистические и прагматические свойства фонационных невербальных средств, являющихся неотъемлемой частью речевой коммуникации. В работе изучены модели отражения в художественном тексте таких фонационных компонентов, присущих природе человеческого голоса, как тембр, темп (скорость), интонация, паузы, вокальное удлинение или редукция звуков. На примерах художественных контекстов обоснованы прагматические функции фонационных средств в раскрытии психологического состояния говорящего, создании семантической интенсификации и обогащении содержания коммуникации.

Ключевые слова: Фонационные средства, паралингвистика, тембр голоса, темп речи, краткость, интонация, художественный текст, прагматика.

Abstract: This study analyzes the linguistic and pragmatic characteristics of phonation non-verbal means, which are an integral part of speech communication. The paper examines the models of representing phonation components inherent in the nature of the human voice, such as timbre, tempo (speed), intonation, pauses, vocal elongation, or sound reduction in literary texts. Based on literary contexts, the pragmatic functions of phonation means in revealing the speaker's psychological state, creating semantic intensification, and enriching communicative content are justified.

Keywords: Phonation means, paralinguistics, voice timbre, speech tempo, brevity, intonation, literary text, pragmatics.

Kirish. Muloqot shunchaki axborot almashish jarayoni emas, balki suhbatdoshlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy maqomi va madaniy kodlarini namoyish etuvchi murakkab tizimdir. So'zlarni qanday talaffuz qilishda kommunikantlarning statuslari katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning kasb-kori, lavozimi, mavqeyi ta'siri bilan bir qatorda, gender xususiyatlari, milliy-madaniy qarashlari kommunikativ aktda egallaydigan pozitsiyalarini belgilab beradi. O'zbek nutqiy madaniyati yuqori kontekstli xarakterga ega bo'lganligi sababli, ushbu omillar til birliklarini tanlashda yetakchi pragmatik mezon bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Paralingvistika G.Kolshanskiy, T.Nikolayeva, V.Koneskaya, B.Yarseva, M.Knapp, V.Birkenbil, V.Labunskaya, A.Nurmonov, M.Saidxonovlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda komponent va lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sharof Boshbekovning «Temir xotin» tragikomediyasida qahramonlarning ijtimoiy maqomi, dunyoqarashi va his-tuyg'ulari fonetik noverbal vositalar orqali mahorat bilan ochib berilgan. Fonetik noverbal vositalarga nutq sur'ati (temp), tovush balandligi, intonatsiya, to'xtam, tovushlarning cho'zib aytilishi (reduksiya va eliziya) hamda yig'i, kulgi, uh tortish kabi his-tuyg'u ifodalari kiradi. Masalan, qo'rquv va ijtimoiy status ta'siridagi nutq tempi va pauzalar:

“Inson artikulyatsiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ifodani hosil qilish jarayonida birdaniga ikki strukturani shakllantiradi, ana shu ikki strukturadan birinchisi fonetik birliklar orqali moddiylashgan lingvistik struktura hisoblanadi, ikkinchisi esa ovoz yordamida moddiylashadigan nolisoniy birliklardan iborat bo'lgan paralingvistik strukturalardir. Har ikkala birliklardagi shakliy va mazmuniy strukturalar o'rtasidagi oraliq holatni fonatsion vositalar deb atash mumkin bo'ladi” [1,41]. Ta'kidlamochimizki, bir-birini to'ldiradigan bu kabi qarashlar tilshunoslar tomonidan qayta-qayta ta'kidlansa-da, fonatsion vositalarning noverbal vositalar sifatida qaralishi bahsli munozara sifatida qolmoqda. Bizningcha, noverbal vositalarga tegishli bo'lgan temp, tembr, ton balandligi va ovoz kuchi kabi birliklarning paralingvistik jihatdan fonatsion vositalar deb nomlanishi asosli bo'lib, fonatsion vositalar paralingvistikaning markaziy masalalaridan biridir.

Haqiqatan ham, yuqori ijtimoiy maqomga ega shaxs nutqida so'zlarni to'liq, vazmin va aniq talaffuz qilish ustuvorligi kuzatilsa, bo'ysunuvchi shaxs nutqida tovushlarni pasaytirish, nutq sur'atini tezlashtirish yoki duduqlanish elementlari ko'zga tashlanadi. Muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollari ularning nutqiy xulq-atvorini oldindan dasturlaydi. Kasbiy maqom so'zlovchiga ma'lum bir kommunikativ imtiyoz yoki majburiyat yuklaydi.

A.Nurmonov ta'kidicha, “...informatsiyaning boshqa tomonlari esa so'zlovchining ovozi farqlashga imkon beradigan ovoz taktining xususiyati, uning fizik holati, barcha situatsiyaga munosabati, emotsional holati, sotsial aloqadorligi haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirish hisobiga bo'ladi” [2,214].

Mavzuning yana bir muhim jhati – gender omilidir. O'zbek ayollari va erkaklarining nutqiy xulq-atvori asrlar davomida shakllangan milliy-mental qarashlar bilan boshqariladi. Gender lingvistikasi bo'yicha o'zbek tilshunosligida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar nutqdagi jinsiy differentsiatsiyani ijtimoiy maqom bilan bog'laydilar. So'zlarni qanday talaffuz qilish ham noverbal kommunikatsiyani shakllantiradi. Intonatsiya va ohang, ovoz tembri, nutqning ravonligi va h.k. nazarda tutiladi. Tajribalardan ma'lumki, biz fikrimizni qanday bayon etishimizga qarab, gapning mazmuni ham keskin o'zgarishi mumkin. *QO'CHQOR. Ho', ho', ho', bola! Qoch-ye! Indamasa ja!.. Bu yoqqa o't! Menga nasihat qiladigan otam o'lib ketgan, bildingmi?! Mushtdaygina bo'lib aql o'rgatasan! (Alomatga.) Xotin, bor, ich-kariga kir!*

«Ho‘, ho‘, ho‘, bola!» ifodasidagi uch karra takrorlangan «Ho‘» undovi pragmatik jihatdan tinglovchining (bolaning) diqqatini tortish va uni harakatdan to‘xtatish uchun xizmat qilmoqda. Bu noverbal muloqotdagi *ovozni balandlatish, hayqiriq yoki ogohlantirish* signalining matndagi lingvistik ifodasidir. «Qoch-ye! indamasa ja!..» jumlasidagi «-ye» undovi va gap oxiridagi ko‘p nuqta (..) qahramon nutqidagi affektiv (hayajon, g‘azab) holatni, ovoz sur‘atining tezlashganini va nutqning uzilib-uzilib chiqayotganini ko‘rsatadi. Bu intonatsion noverbal vositalarning sintaktik belgilar orqali berilishidir. Misoldagi «*Bu yoqqa o‘t!*» buyruq gap tarkibidagi «*Bu yoqqa*» jumlasini ko‘rsatish, ishora qilish xususiyatini namoyon qilgan. Muloqot jarayonida bu so‘z. Albatta, qo‘l harakati (jest) yoki ko‘z qarashi (mimika) bilan birga qo‘llanadi. Bu ifoda faqat noverbal harakat bilangina to‘liq ma‘no kasb etadi. «*Xotin, bor, ich-kariga kir!*» proksemikasi (kommunikantlarning makonda joylashishi) lingvistik shaklda namoyon bo‘lgan, *ichkari* so‘zining birinchi bo‘g‘inini ajratib talaffuz qilish orqali intonatsiya yuqorilashgan va to‘xtam aniq namoyon bo‘lgan. Bu o‘rinda erkak kishining ayol kishiga buyruq ohangida gapirishi o‘zbek nutqida mansublikni namoyon qiladi, erkakning ustunligi, ayol kishining erkakka itoatkorligini ko‘rsatadi.

A.Nurmonovning ta’kidicha, nutqning tashqi tomoni nutq vaziyatiga daxldor “...ovozning turli xil intonatsion modulyatsiyasi, nutq tempi, tovush bo‘yog‘i” paralingvistikaga tegishlidir, “...turli xil imo-ishoralar, mimikalar, suhbatdoshning maneralari” [2, 214] axborot tarkibidagi subyektiv munosabatni ochishga xizmat qiladi. Bular noverbal vositalarga taalluqli bo‘lib, ularda intonatsion struktura mavjud emas. Intonatsiya va uning birliklari ovoz bilan bog‘liq pozitsiyalarda muloqotning noverbal tizimiga oid bo‘ladi. Paralingvistikada nutqning tempi, ritmi, tovushlarning cho‘zib aytilishi (vokal cho‘zilish) muhim o‘rin tutadi. Asarda Qo‘chqorning Olimtoyga qarata “*Ha-a, bundan chiqdi, sa-al ahmog‘roq bo‘lishi kerak ekan-da, a, Olimtoy?*” misolida fonatsion (ovoz) vositalarning grafik ifodasini ko‘rish mumkin. Yosh olim Olimjon o‘zi yaratgan Alomat ismli robot haqida gapirib, agar u fikrlay boshlasa, o‘z aqlini tanishini aytadi. Aqlini tanigan mavjudot esa «Nega odamlar maza qilib yuribdi-yu, men ertadan kechgacha eshakday ishlashim kerak?» deb isyon ko‘tarishi, natijada uni boshqarib bo‘lmay qolishini tushuntiradi. Olimtoyning «*Shuning uchun robot robotligini qilishi kerak, buyruq berildimi — bajarsin!*» degan fikridan so‘ng, Qo‘chqor vaziyatni mazax qilib: «*Ha-a, bundan chiqdi, sa-al ahmog‘roq bo‘lishi kerak ekan-da, a, Olimtoy?*» deb xulosa qiladi. Matnda bu jihatni bo‘rttirish uchun «sal» so‘zi oddiy holatda qisqa ema, balki «a» unli tovushini odatdagidan uzoqroq cho‘zib talaffuz qilish kerakligini ko‘rsatmoqda. Bu nutqning ohang (intonatsiya) sifatini o‘zgartiruvchi paralingvistik hodisaning yozuvdagi (grafikadagi) aksidir. So‘zning bunday cho‘zib aytilishi pragmatik jihatdan baholash darajasini oshiradi. Qo‘chqor «sal ahmoqroq» emas, balki aynan «judayam ahmoq, anchagina sodda» bo‘lish kerakligini piching, kesatiq va mazax ohangi bilan ifodalayapti. Tovushning cho‘zilishi so‘zning leksik ma‘nosini kuchaytirishga va Olimtoyning yaratgan roboti (Alomat) ustidan kulishga xizmat qilyapti.

Paralingvistik vositalar so‘zlovchining ichki kechinmalarini ochib beradi. Qo‘chqorning nutqidagi bu pauza va cho‘zilish uning o‘ylanib qolganini, Olimtoyning «haqiqati»dan hayratlanganini va ayni paytda vaziyatga nisbatan istehzosini bildiradi.

Bu yerda «sa-al» soʻzi qahramonning yuzidagi mazax qiluvchi tabassum yoki bosh chayqash kabi noverbal harakatlari bilan parallel ravishda ovoz tembrining ham oʻzgarganini anglatadi. Qoʻchqor bu gapni Olimtoyning «Agar robot fikrlasa, uni boshqarib boʻlmay qoladi» degan fikriga javoban, hukmronlik va itoatkorlik faqat aqlsizlik ustiga qurilishi mumkinligini piching va istehzo bilan tasdiqlash uchun aytadi.

ALOMAT. Olimjon aka, chiqing, ovqatingiz sovib qoladi. Olimjon qandaydir qogʻozga tikilganicha kelib karavotga oʻtiradi. Alomat ichkaridan toza koʻylak olib chiqib, artinib kelayotgan Qoʻchqorga uzatadi. Mana, tozasini kiyib oling.

QOʻCHQOR (yayrab). Shunaqa qilamizmi?.. Hay, mayli, may-li... (Kiyib.) Rakatoping, Alomatxon. (Karavotga chiqadi.)

“Shunaqa qilamizmi?.. Hay, mayli, may-li...” gapi tarkibidagi soʻroq-ayrilik belgisi (?..), koʻp nuqtalar (...) va «may-li» soʻzining boʻgʻinga ajratib yozilishi paralingvistik hodisadir. Bu jihat Qoʻchqor nutqidagi eʼtirozsiz rozilik, hayrixohlikni va ovozning biroz pasayib, yumshaganini bildiradi. Koʻylak kiyish jarayonidagi jismoniy harakat sababli nutqning boʻlinib-boʻlinib chiqishi ham koʻp nuqta orqali grafik ifodalangan.

Matnda «Rakatoping, Alomatxon. (Karavotga chiqadi.)» jumlasida Qoʻchqorning «karavotga chiqishi» (yaʼni dasturxon boshiga oʻtirishi) muloqot makonining (proksemika) oʻzgarganini anglatadi. Soʻz tarkibidagi «Alomatxon» degan lisoniy birlik bilan Qoʻchqorning karavotga chiqish harakati birlashib, unda Alomatga nisbatan paydo boʻlgan oʻzgacha hurmat va iliqlikni (verbal va noverbal) namoyon etadi.

Paralingvistikada nutqning talaffuz tezligi muhim rol oʻynaydi. Jonli soʻzlashuvda, ayniqsa, inson yaxshi kayfiyatda, shoshib yoki hayajonlanib gapirganda nutq tezligi keskin ortadi. Qoʻchqor Alomatning gʻamxoʻrligidan «yayrab», xursand boʻlib, tezlik bilan koʻylakni kiyadi va oʻsha quvnoq harakat ustida, tabiiy ravishda, soʻzlarni bir-biriga qoʻshib, tez talaffuz qiladi. Nutq tezligining yuqoriligi sababli «Rahmat, baraka toping» jumlasida tarkibidagi bir nechta tovushlar tushib qoladi va u yaxlit bir soʻz — «Rakatoping» shakliga keladi. Paralingvistik vositalar doimo soʻzlovchining ichki his-tuygʻusini ifodalaydi. Agar Qoʻchqor dona-dona qilib, sekin: «Rahmat, baraka toping» deganida, bu nutq rasmiy, iliqlik boʻlmagan ohangga ega boʻlar edi. Soʻzning «Rakatoping» deb qisqartirib, «yutib» yuborilishi Qoʻchqorning Alomatga nisbatan ichki yaqinligini, samimiyatini koʻrsatadi. Bu xalqona, sodda va issiq munosabatning ovozli kodidir.

Dramaturg Sharof Boshbekov oʻzbek tilining jonli soʻzlashuv tabiatini, uning paralingvistik imkoniyatlarini juda yaxshi bilgan. Jonli nutqdagi minimal kuch sarflash, yaxni nutqiy tejamlilikka amal qilgan. Inson oʻzini erkin his qilgan muhitda (masalan, oʻz uyida) tovushlarni toʻliq talaffuz qilib oʻtirmaydi. «Rakatoping» soʻzi orqali Qoʻchqorning ijtimoiy vaziyati — oʻz uyida, maishiy, rasmiyatchilikdan yiroq sharoitda turgani noverbal (tovush qisqarishi) tarzda koʻrsatilgan.

«Rakatoping» soʻzi — shunchaki imloviy xato yoki shevaga xos soʻz emas, balki nutq tezligining (paralingvistik omilning) lisoniy shaklga koʻrsatgan kuchli taʼsiri natijasidir. U muallif remarkalarisiz ham qahramonning quvnoq kayfiyatini, harakatdagi dinamikasini va jonli ovozini kitobxon qulogʻiga eshittirib turadi.

Xulosa. Paralingvistik vositalarning nutqdagi ishtiroki pragmatik vaziyat, suhbat mazmuni va verbal mazmun muvofiqligiga tayanadi. Bunda kommunikativ qimmatga ega bo'lgan noverbal birliklarni ongsiz ravishda bajariladigan individual kinetik harakatlardan farqlash majburiydir. Muloqot samaradorligi adresant va adresat o'rtasida nafaqat lisoniy, balki nolisoniy umumiylikni ham talab etadi. Dialogik muhit va psixologik vaziyatni taqozo etuvchi imo-ishora hamda ovoz verbal tizim bilan aloqada bo'lgani bois, lingvopragmatikaning o'rganish obyekti sifatida baholanadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hakimov va boshq. Til nazariyasi va amaliyoti. - Farg'ona, 2015.
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
3. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. – Andijon, 1980.
4. Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol.fan.nom. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1993.
5. Saidxonov M. Mimik noverbal vositalar. Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari // xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon, 2020-yil, 4-may.

ZULFIYA SHE'RIYATIDA KOGNITIV METAFORALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

O'rolova Zuhra

Renessans universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. R.N.Yusubova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya she'riyatidagi «ko'ngil/qalb» modeli kognitiv metaforalar lingvopoetik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ishda ijodkor tafakkuridagi abstrakt tushunchalarni konkretlashtirishga xizmat qilgan «qalb – dengiz», «ko'ngil – inson (personifikatsiya)» va «inson umri – tabiat fasllari» kabi majmuaviy kognitiv modellar badiiy matnlar misolida ochib berilgan. Metaforalarning badiiy matndagi semantik kompressiya (ma'no zichlashtirish), psixologizm va dramatismni yuzaga keltirishdagi vazifalari lingvistik jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari Zulfiya ijodida «ko'ngil» obrazi iztirob va sog'inchni yengib o'tgan o'zbek ayoli matonatining kognitiv-poetik modeli ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: She'riyat, kognitiv metafora, kognitiv model, lingvopoetik tahlil, kognitiv tahlil, badiiy matn.

Аннотация: В данной статье с лингвопоэтической точки зрения анализируются когнитивные метафоры с моделью «ko'ngil/qalb» (душа/сердце) в поэзии Зульфийи. На примере художественных текстов раскрыты такие комплексные когнитивные модели, как «душа — море», «сердце — человек (персонификация)» и «жизнь человека — времена года», которые служат для конкретизации абстрактных понятий в мышлении автора. Лингвистически обоснована роль метафор в создании семантической компрессии (сжатия смысла), психологизма и драматизма в художественном тексте. Результаты исследования показывают, что образ «ko'ngil» (души) в творчестве Зульфийи является когнитивно-поэтической моделью стойкости узбекской женщины, преодолевшей страдания и тоску.

Ключевые слова: Поэзия, когнитивная метафора, когнитивная модель, лингвопоэтический анализ, когнитивный анализ, художественный текст.

Abstract: This article analyzes cognitive metaphors based on the "ko'ngil/qalb" (soul/heart) model in Zulfiya's poetry from a linguopoetic perspective. Through the examples of literary texts, complex cognitive models such as "soul – sea", "heart – human (personification)", and "human life – seasons", which serve to concretize abstract concepts in the creator's mind, are revealed. The functions of metaphors in generating semantic compression, psychologism, and dynamism in literary texts are linguistically justified. The results of the research demonstrate that the image of "ko'ngil" in Zulfiya's poetry acts as a cognitive-poetic model of the resilience of an Uzbek woman who has overcome grief and longing.

Keywords: Poetry, cognitive metaphor, cognitive model, linguopoetic analysis, cognitive analysis, literary text.

Kirish. Metafora fenomeni qadimgi davrlardan boshlab hozirgi zamonaviy tilshunoslikka bo'lgan davrda olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda, shu sabab bugungi kunda metaforalarning o'rganilish davri sifatida klassik (an'anaviy) davr va kognitiv tilshunoslik davri (XX asr ikkinchi yarmi) ko'rsatiladi. An'anaviy davrda

metafora notiqlik san'ati va nutqni bezashning eng oliy vositasi sifatida tadqiq etilgan bo'lsa, kognitiv tilshunoslik davri olimlari metafora tilda emas, balki inson tafakkurida (ongida) tug'ilishini isbotladilar. Metaforada ikkita tushunchaning qiyoslanishi asosida yangi ma'noning kashf etilishi badiiy asarga ko'chirildi va badiiy matnda metaforaning estetik vazifani bajarishi aniqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Kvintilian, Sitseron metaforada tilga katta ekspressiv kuch beradigan ijodiy salohiyat borligini asoslab berishgan. Jahon tilshunosligida metaforaning bir qator turlari borligi Y.D.Apresyan, D.Lakoff, M.Djonson va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida kognitiv metaforalar D.Xudayberganova, Sh.Maxmaraimova, D.Rustamova, A.Yuldashev kabi tilshunoslar o'zbek tilining metafora nazariyasini yaratdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda lingvopoetik va lingvokognitiv tahlil olib borilgan.

Tahlil va natijalar. Har bir yozuvchining o'z ijodiy mulki bo'lgan individual metaforalar tasviriy vositalarning eng yaxshi namunalari bo'lib, u badiiy uslubning ham o'ziga xos xususiyati sanaladi. Yozuvchi ijodida hatto bitta metaforik qo'llangan so'z butun bir matnni o'z atrofida jipslashtirishi, tayanch nuqta hisoblanib, metaforik kontekst hosil qilishi mumkin [1,149]. Zulfiya she'riyatida *ko'ngil (qalb)* shunchaki his-tuyg'ularni emas, balki shoiraning butun borlig'ini, ichki dunyosini, quvonch va dardini aks ettiruvchi bosh lirik markaz hisoblanishi badiiy ifodasini topgan. Ushbu kognitiv modelli metaforalar Zulfiya poeziyasining eng ta'sirchan qatlamlaridan birini tashkil qiladi, obrazlar hayotiy tajriba va o'zbek ayoli ruhiyati negizida yaratilgan. Shuning uchun ham ular o'zbek o'quvchisining hissiyoti bilan tez uyg'unlashadi, she'r qalbdan chiqqan so'z sifatida qabul qilinadi.

Ko'ngil, nega bugun bemorsan va mo'rt,

Ko'ngil, nega buncha taranglikda tor?

Ko'ngil, erkaliging, o'ktamliging yut,

Tan ol, oxir endi bahoringda qor.

Zulfiyaning ushbu mahzun va falsafiy to'rtligida «Ko'ngil» obrazi markaziy o'ringa chiqib, biz oddiy metafora emas, balki inson ichki olamini borliq qonuniyatlari bilan bog'lovchi «*Ko'ngil — she'riyat / inson*» va «*Ko'ngil –tabiat*» majmuaviy kognitiv modellarini ko'ramiz. «*Ko'ngil – she'riyat / inson*» kognitiv modelida tafakkurda mavhum tushuncha bo'lgan «ko'ngil»ga tirik mavjudot (inson)ga xos xususiyatlar ko'chirilgan. Shoir o'z qalbini tashqaridan turib kuzatayotgandek, uni suhbatdosh sifatida tanlaganligini ko'rish mumkin. «*Ko'ngil, nega bugun bemorsan va mo'rt...*» «Bemorlik» va «mo'rtlik» odatda jismoniy tanaga yoki moddiy buyumga xos sifatlardir. Bu yerda esa ular qalbning ruhiy charchog'i, hayotiy zarbalardan shikastlanganini ifodalovchi metaforik belgilar bo'lib kelgan.

Badiiy nutqda metaforaning kognitiv tabiati haqida fikr yuritilganda ta'kidlash lozimki J.Lakoff va M.Jonson kabi kognitiv yondashuv vakillari atrofdagi haqiqatni metaforik idrok etishda inson moyilligiga ishora qiladilar [2, 387–415.].

«*Ko'ngil – musiqa asbobi / tor*» kognitiv modelida inson ruhiyatining eng yuqori nuqtaga yetgan og'riqli va portlash arafasidagi holatini ko'rsatish uchun shoir musiqa

elementlaridan foydalangan. «*Ko'ngil, nega buncha taranglikda tor?*» misrasining kognitiv mazmuni musiqa asbobining tori haddan tashqari tarang tortilsa, u salgina teginishdan uzilib ketishi kabi, ko'ngil ham ruhiy ezilishlardan bir kun xarob bo'ladi. Shoir «taranglikda tor» iborasi orqali qalbning sabr-toqati, chidam chegarasi eng oxirgi nuqtaga kelganini poetik jihatdan g'oyat nafis ifodalagan. Ta'kidlash joiz, metaforik ko'chayotgan nom va uning bazasi (ko'chish o'rni) orasidagi munosabatlar turli-tuman bo'lishi mumkin [3,30], yuqoridagi misolda bu xususiyat yaqqol ko'ringan.

“**Ko'ngil – tabiat**” kognitiv modelida bejizga bahor va qor so'zlari kontrast qo'llanmagan. To'rtlikning yakuniy qismi inson hayotining eng katta falsafiy haqiqatini — keksalik va umr kuzi (yoki qishi) kelganini tan olish og'rig'ini majoziy aks ettirgan. «*Ko'ngil, erkaliging, o'ktamliging yut, / Tan ol, oxir endi bahoringda qor*». «Erkalik» va «o'ktamlilik» — yoshlikka, g'ayrat-shijoatga xos fazilatlar. Ularni «yutmoq» (ya'ni ichiga yutish, voz kechish) metaforasi orqali shoir vaqt oqimiga bo'ysunish majburiyatini nazarda tutgan. Odatda bahor — yoshlik, umid va uyg'onish fasli. Qor esa — qarilik, sovuqlik va xotima (qish) belgisi. «Bahordagi qor» oksymoron (ziddiyatli birlik)li metafora bo'lib, lirik qahramonning ruhan hali yosh, ijodkor (bahor) ekanligi, lekin jismonan va yosh jihatdan umrning kuzi/qishi (qor) kelib qolganini anglatadi.

“**Ko'ngil — bahor**” modeli metafora Zulfiya ijodida umid, orzular gullab-yashnaydigan makon qiyofasida namoyon bo'ladi. *Ko'ngil bahoridan umid uzsam xazon yaqin... misrasida «ko'ngil bahori» va «xazon» antonimik kontekstda ishlatilgan.* Ushbu model “*Inson ichki dunyosi — tabiat fasllari*” metaforizatsiyasining kognitiv ko'rinishini namoyon qilgan. Ko'ngilning shodlik va umidbaxsh holati «bahor» (metaforik ko'chim), umidsizlik esa «xazon» orqali ifodalangan. Lingvistik jihatdan ushbu nominativ ko'chimlar she'rning emotsional bo'yoqdorligini (ekspressivligini) oshirgan.

«*Salom!*» — deyman xayol binafshasiga,

– Sensiz **ko'ngil** bog'im qolardi g'arib! (Bu oqshom...)

D.S.Xudayberganova metaforalarga kognitiv jihatdan yondashadi, metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini ta'kidlaydi [4,18]. J.Lakoff va M.Jonsonlar konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo'libgina qolmasdan, tafakkur va fikrlashning usulidir, aksariyat kishilar uchun metafora kundalik hayotiy nutq emas, balki noodatiy tilga tegishli bo'lgan poetik va ritorik ifoda vositasi. [2, 219].

«**Ko'ngil – bog'**» modeli metafora Zulfiyaning lirik uslubiga xos tasvirni ochib beradi. Shoir og'ir falsafiy tushunchalarni ham qalbgga yaqin ifoda vositalari orqali beradi; natijada she'r ham sodda, ham teran ma'noli bo'lib qoladi.

Bu nazm bog'iga kirolmas xazon,

Bizni mahf etolmas zavol lashkari, (Bu oqshom...)

Bu o'rinda «**Nazm – bog'**» modeli metafora hosil qilingan bo'lib, metafora obrazlilik va assotsiativlikni birlashtiruvchi xususiyat sifatida aks etgan, *bog'* obrazi o'zbek assotsiatsiyasida o'z o'rniga ega, chunki oila bog'ga qiyoslanadi, ilm bog'ga qiyoslanadi, go'zal hayot bog'ga, Vatan bog'ga qiyoslanadi. Metaforada ikki sifat

tizimi o‘zaro ta’sirlashib, shoir tomonidan tasvir yaratilar ekan, ikki hodisani taqqoslashda avvaldan mavjud qarashlar, qiyoslashlar ikki voqelik g‘oyalarini bir-biriga bog‘laydi.

Bunday metaforalarning ifodaliligi, avvalo, obrazning bevosita va majoziy ma’no bilan bir vaqtda bog‘liq ikki assotsiatsiya silsilasini hosil qilishi bilan bog‘liq.

Va shu mard ko‘nglimiz erka qushini

O‘tli qo‘sh qanotda ketadi olib. «**Ko‘ngil – qush**» tipidagi metaforasida ko‘ngilning erkinligi, mardligi, shiddati, tafti shaxs omilini reallashtirgan, insonga xos xislatlar ko‘ngilda aks etadi, bu kabi ma’noli metaforik ifodalar badiiy ohanglar bilan yo‘g‘rilgan holda namoyon bo‘ladi.

Mana, qalb – baxtu dard to‘la dengizim,

Mavjlari shuhratim, hijron, o‘kinchim.

Qo‘rquv kalxatlari tegib sindirgan –

Yodim siniqlari ostda – cho‘kindi. (Xotiram siniqlari).

Z.Hakimova oddiy metaforalardan konseptual metaforalarning farqini ular konseptning lingvistik va lingvistik bo‘lmagan izohlaridagi ma’nolarini, ba’zi matnlarda o‘sha konseptning strukturasini ochib berishi kabi xususiyatlarida ko‘rsatib o‘tadi [5]. Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» she’ridan olingan ushbu to‘rtlik o‘zbek ayoli ruhiyatining eng mahzun va ayni paytda eng mahobatli manzarasini chizib beradi. Bu yerda qo‘llanilgan “**qalb – dengiz**” modeli metafora shunchaki oddiy o‘xshatish emas, balki inson ongi va tafakkuri qa’riga yo‘naltirilgan murakkab kognitiv (konseptual) metaforadir. “**Qalb – dengiz**” kognitiv modelida «qalb»ning holatini tushuntirish uchun mavhum tushuncha konkret makon bo‘lgan «dengiz» metaforasiga ko‘chirilgan. Ongimizda dengiz tushunchasi qanday xususiyatlarga ega bo‘lsa, shoira qalbiga ham shu sifatlar yuklangan:

- **Dengizning kengligi va cheksizligi** – Qalbning baxt va dardni birdek sig‘dira olish imkoniyati.

- **Dengizning mavjlari (to‘lqinlari)** – Inson hayotidagi yutuqlar (shuhrat) va yo‘qotishlar (hijron, o‘kinch).

- **Dengizning tubi (osti)** – Inson xotirasining eng chuqur, yashirin va hech kimga ko‘rinmaydigan qatlami.

Mana, qalb – baxt-u dard to‘la dengizim... misrasining leksik-semantik xususiyati shundaki, misrada «baxt» va «dard» singari antonimik tushunchalar birlashtirilib, dengizning «suvi»ga qiyoslanmoqda, ya’ni, dengiz suvdan iborat bo‘lganidek, Zulfiyaning qalbi ham baxt va darddan iborat. «Dengizim» so‘zidagi -im egalik qo‘shimchasi metaforani faqat shoironing o‘ziga tegishli ekanligini (individuallashtirish) ta’minlaydi. Bu qalb aynan lirik qahramonning ichki olamidir. «*Mavjlari shuhratim, hijron, o‘kinchim...*» misrasida metaforali o‘xshatishning poetik funksiyasi kengaygan. Dengiz bor ekan, uning to‘lqini (mavji) bo‘lishi tabiiy. Shoira o‘z hayotidagi uchta katta tushunchani (*shuhrat, hijron, o‘kinch*) mavjlarga o‘xshatib, ikkinchi kognitiv metaforani yaratgan. «Shuhratim, hijron, o‘kinchim» so‘zlari ketma-ket, bog‘lovchilarsiz ishlatilib, inson hayotidagi hissiy evrilishlarning tezkorligi va shiddatini (xuddi to‘lqinlar kabi) ifodalagan, shuhrat (quvonch) ortidan darrov hijron va

o'kinch kelishi dengiz mavjlarining ko'tarilib-tushishiga mantiqiy jihatdan ham mos tushadi.

«*Qo'rquv kalxatlari tegib sindirgan Yodim siniqlari ostda – cho'kindi*» misralari «*qalb – dengiz*» modeli metaforaning eng yuqori nuqtasi sanaladi. Bu misralarda dengizning tubi (osti) haqida gap ketadi. Biz kognitiv ravishda bilamizki, dengiz tubida insoniyatga ma'lum va ma'lum bo'lmagan narsalar yotadi. Shoira hayotidagi fojialarni (turmush o'rtog'i Hamid Olimjonning erta vafoti, qatag'on davri qo'rquvlarini) «*qo'rquv kalxatlari*» (bu ham alohida animalistik metafora) orqali ifodalaydi.

Bu o'rinda «qo'rquv – qush» va yod – shisha» modeli kognitiv metaforalar hosil qilingan, shoira o'tmish xotiralarini qo'rquv bilan eslaydi, shu qo'rquv xotiralarni to'la eslashga imkon beraydi. «Qo'rquv kalxatlari» sindirgan narsa – «*yodim siniqlari*» (xotiralar) dengiz (qalb) ostiga cho'kadi. «*Cho'kindi*» so'zi unutilgan, lekin qalb tubida abadiy muhrlanib qolgan og'riqli nuqtalarni anglatuvchi kuchli semantik bo'yoqqa ega.

Zulfiya «*qalb – dengiz*» kognitiv metaforasi vositasida inson ruhiyatining yaxlit xaritasini chizgan, dengizning ustki qismi (mavjlar) — bu insonning tashqi dunyoga ko'rinadigan hayoti (shuhrati, ochiq qayg'usi), dengizning tubi (cho'kindi) esa – hech kimga ko'rsatilmaydigan, faqat shoira o'zigagina ayon bo'lgan «xotira siniqlari»dir.

Xulosa va takliflar. Zulfiya o'zbek she'riyatidagi an'anaviy «ko'ngil/qalb» obrazini yangi kognitiv pog'onaga ko'targan, ko'ngil/qalb ichida ulkan voqealar, fojialar va yutuqlar sodir bo'ladigan makromakondir, bu kabi kognitiv model orqali inson ruhiyatining cheksizligi va undagi ziddiyatlarning keng ko'lamini ko'rsata olgan. Zulfiya she'riyat olamida «*Ko'ngil/qalb*» iztirob va sog'inchni yengib o'tgan, hayotiy zarbalardan mo'rtlashgan, lekin o'z asl nafosati va o'ktamligini yo'qotmagan o'zbek ayoli matonatining she'riyatdagi kognitiv-poetik modelidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002..
2. Лакофф Ж., Жонсон М. Метафоры, которыми мы живём. – М., 1990.
3. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya –T., 2000.
4. Xudayberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik tadqiqi: Filol. fan. doktori. diss. avtoref. – Toshkent, 2015.
5. Hakimova Z.T. Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar // "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. Volume 3 Issue 5. 2022. -B.1976-1981. <http://www.openscience.uz.>]

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI
ELEKTRON JURNALI**

**№ 4 (2),
2026-yil, Iyun**

O‘zbekcha matn muharriri:

Ruscha matn muharriri:

Inglizcha matn muharriri:

Musahhih:

Texnik muharrir:

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL
VA TALQIN ILMIY-METODIK
JURNALI
4-jild, 2-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI
CENTURY
VOLUME 4, ISSUE 2**

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy
Web-site: <http://linge.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: <http://linge.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45